

Ma'mur QAHHOROV

FALSAFA

**Pedagogika oliy o'quv yurtlari
bakalavriat bosqichi talabalari uchun
o'qov qo'llanma**

TULDIRILGAN 2-NASHRI

Qo'qon-2009

Taqrizchilar:
Ichki taqriz :
Tashqi taqriz:

Q. M. Tursunov,f.f.d., professor (QDPI)
A.Egamnazarov (Far DU)

1-MAVZU

FALSAFA FANINING PREDMETI, MUAMMOLAR DOIRASI VA VAZIFALARI

I. Dunyoqarash, uning ijtimoiy-tarixiy mohiyati va tiplari. Ma'lumki, inson – ongli mavjudot. U er yo'zida paydo bo'libdiki, "Borliq nima? Uning asosida nima yotadi? Inson nima? Inson hayotining ma'nosi nimada?" kabi boshi ham, oxiri ham yoq jumboqli savollarga tinimsiz javob izlaydi. Bu savollar ustida bosh qotirish va tegishli javoblar topish uchun esa borliqni, o'zlikni teran anglash, fikr yuritish, atrof-olamga tegishlicha munosabat bildirishga imkon beruvchi muayan tasavvurlar va qarashlar sohibi bo'lish lozim. Dunyoqarash – bu insonning borliq va o'zligi haqidagi bilimlari, tasavvurlari, his-tuyg'u va kechinmalari yig'indisidir. Inson jamiyatdagi o'z o'rnini, boshqa odamlarga munosabatini, o'z qadriyatlarini, dunyoqarashidan kelib chiqib belgilaydi.

Dunyoqarashning ob'ekti va sub'ekti bor. Dunyoqarashning ob'ekti bu – atrof borliq, sub'ekti esa odam, turli ijtimoiy guruhlar va muassasalardir. Dunyoqarash ijtimoiy sub'ektlariga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1. Alohida olingan bir shaxsning bilimlari, ko'nikmalari, malakasi, his-tuyg'ularini ifodalovchi **individual dunyoqarash**. 2. Turli ijtimoiy guruhlar va tashkilotlar, masalan, xalq, millat, sinf, ijtimoiy guruh, partiya, harakat, davlat, jamiyatga xos bo'lgan **ijtimoiy dunyoqarash**.

Individual dunyoqarash odam tug'ilganidan boshlab hayot faoliyati davomida shakllana boradi, shaxs sifatida kamol topganda takomiliga etadi. Shaxs dunyoqarashi kundalik borliqning oddiy hissiy va aqliy in'kosidan hosila tuyg'ular, kechinmalar, tasavvurlardan tortib hayotiy malaka va ko'nikmalar, ishonch va e'tiqodlardan, niyat va maqsadlar, ideallardan tarkib topadi.

Ijtimoiy dunyoqarash individlar dunyoqarashlarining oddiy yig'indisi bo'lib qolmasdan, kishilarning o'z ijtimoiy mavqe'laridan kelib chiqib, dunyoni nazariy jihatdan o'zlashtirilishlari natijasidir. U bir butun jamiyat, davlat, ijtimoiy guruhlarining moddiy va ma'naviy faoliyatida o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy dunyoqarash nazariy tafakkurda mantiqan qayta ishlanib, muayan tizim holida tartibga solingan mifologik, diniy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, ahloqiy, estetik, badiiy, ilmiy g'oyalar, qarashlar, nazariyalar, mafkuralarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy dunyoqarashda jamiyat hayoti, rivojlanishi va istiqboliga daxldor

ma'naviy qadiryatlar mujassamlashadi. Dunyoqarash ichdan uyushgan, tartibga solingan murakkab to'zilma. Shaxs dunyoqarashining o'zagini nisbatan barqaror g'oyalar, hayotiy maqsadlar va bilimlardan iborat **e'tiqod** tashkil qilsa, ijtimoiy dunyoqarashning jipslashtiruvchima'naviy-g'oyaviy o'zagini **mafkura** tashkil etadi. Individual va ijtimoiy dunyoqarashlar bir-biridan farq qilishiga qaramay, ular biri ikkinchisini taqozo qiladi va o'zaro dialektik aloqadorlikdadir. Shaxs dunyoqarashi jamiyatda ustuvor, xukmron g'oyalar ta'sirida shakllansa, ijtimoiy dunyoqarash, xususan, uning yadrosi bo'lmish mafkura oddiy kishilarning kundalik his-tuyg'lari, orzu-umidlari, maqsadlari, ma'naviy ehtiyojlari va ideallarini inobatga olgandagina muvaffaqiyat qozonadi.

Dunyoqarashning amal qilishi va riv oylanishiga xos muhim qonuniyat **vorisiylik** tamoyilida ko'rinadi, ya'ni eskirib qolgan g'oyalar, qarashlar, tasavvurlardan voz kechiladi, ularning ijobiy tomonlari saqlab qolinadi, asrab-avaylanadi, uning negizida yangi tarixiy bosqich va ijtimoiy sub'ektlar talab-ehtiyojlariga muvofiq kaluvchi yangi dunyoqarash shakllantiriladi.

Dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy mohiyatga ega. Insoniyat tarixida davr shart-sharoitlari, amaliy faoliyat hamda olam haqidagi bilimlarning kengayib borishi bilan bog'liq ravishda ijtimoiy dunyoqarashning oddiydan murakkabga yo'nalgan mifologik, diniy va falsafiy tiplari yuzaga kelgan.

Mifologik dunyoqarash miflar (asotirlar, naqlar, irdoyatlar) negiziga qurilgan bo'lib, insoniyat evolyutsiyasining ilk bosqichlari uchun xosdir. Ilmiy bilish imkoniyatlari bo'lmagan qadimgi dunyo sharoitida borliq xayoliy-fantastik usulda idrok etilgan, izohlangan va baholangan. Ajdodlarimiz tabiat va jamiyatning o'zlari oxirigacha anglab etmagan hodisa va jarayonlarini afsonaviy qahramonlar, ma'budlar, g'ayritabi'iy kuchlar obrazida gavdalantirganlar. Shu yo'l bilan dunyoga o'z munosabatlarini ifodalaganlar va tasavvurlarini shakllantirganlar.

Mifologik dunyoqarash uchun notirik tabiatni jonlantirib tasvirlash xos. Shu asosda hosil qilingan obrazlar xuddi odam singari hayot kechiradilar, o'zaro munosabatlarga kirishadilar, ezgu yoki yovuz ishlar bilan mashg'ul bo'ladilar. Hissiy-emotsional, poetik metaforalar negiziga qurilgan afsona va rivoyatlar zahirida real mazmun mujassamlashgan. Narsa-xodisalar insoniy sifatlar va xususiyatlardan kelib chiqib baholanadi hamda tushuniladi. Masalan, qadimgi yunon afsonalari va rivoyatlarida dunyoning barpo bo'lishi, to'zilishi, tabiat va jamiyatda yu'z berayotgan jarayonlar; narsa va

hodisalarning o'zaro bog'liqligi, insonning kelib chiqishi, hayotning ma'nosi kabi teran muammolar aks etgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining uzoq o'tmishdan meros bo'lib kelayotgan afsona va rivoyatlarida ham ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi murosasiz ziddiyat g'oyat jozibali ifodalanadi. Masalan, "Avesto"da yaxshilik timsoli Ahuramazda bilan yovuzlik ilohi Ahriman o'rtasidagi kurash pirovardida ezgulik, yorug'likning zulmat ustidan g'laba qozonishi haqida xulosa chiqarilgan.

Miflarda tabiat hodisalari bilan bir qatorda ijtimoiy hayot muammolari ham ko'tarilgan. Ilohlar yaxshi va yomonga, aqlli va farosatsizga, urushqoq va tinchlikparvarga, sahovatli va xasisga bo'lingan. Ular, xuddi insonlardek, turmush qurganlar, farzand ko'rganlar, o'zaro janjallashganlar, xullas, mifologik obrazlarning hayot faoliyati va o'zaro munosabatlari odamlarga o'z hayotlarini anglash va bilishga imkon bergan. Sug'orma dehqonchilik hayotiy muhim bo'lgan qadimgi Markaziy Osiyoda suv ilohiy ne'mat hisoblangan. Massagetlar daryolarni muqaddas bilganlar. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning shohidlik berishicha, saklar Quyoshni eng ulug' xudo bilib, unga uchqur otlarda etish mumkin, deb xisoblaganlar. Malika Tumaris o'z qavmlari oldida ont ichgan paytlarida buni "Quyosh nomi bilan qasamyod qilib aytamanki, ..." degan so'zlar bilan boshlangan.

Mintaqamizda miloddan oldingi 1-ming yillikda tarqalgan zardushtiylik e'tiqodida olov bilan bir qatorda tuproq muqaddas hisoblangan, uni xarom qilmaslik uchun xatto murdani erga ko'mish ta'qiqlangan. II-V asrlarda hozirgi Farg'ona vodiysi o'rnida vujudga kelgan Dovon mamlakatida ajdodlarimiz olov, quyosh, ot, muqaddas ajdodlar ruhi, ayol kabi ko'plab ilohlarga sig'inganlar. Shunday qilib, mifologik xudolar aslida hayot va faoliyatda muhim o'rin tutuvchi narsa va hodisalardan iborat bo'lgan.

Mifologik dunyoqarashda ijtimoiy adolat va ahloq g'oyalari etakchi o'rin tutgan. Masalan, yunon asotirlaridan birida naql qilinishicha, borliq xukmdori bo'lmish Uran (Samo) xudosi hamda uning rafiqasi Geya (Er) xudosidan ulkan kuchu-qudrat timsoli bo'lmish titanlar dunyoga kelgan. Ulardan xukmronlikka moyil Kron o'z otasini o'ldirib, taxtni egallaydi. Vasvasa domiga tushgan Kron o'z tug'ishgan singlisini, rafiqasi Reyani, farzandlari Xestiya, Xera, Demedra, Aida, Poseydon, Okean, Tefisiyalarni ham birin ketin nobud qiladi. Faqat Zevs tasodif tufayli omon qoladi va keyincha Kronni taxtdan ag'darib, yaqinlari uchun qasos oladi, adodatni tiklaydi. Xulosa qilib aytganda, mifologik dunyoqarashda qadimgi dunyo kishilarining

tabiat, jamiyat, inson haqidagi sodda bilim va tasavvurlari, ahloqiy va sotsiologik qarashlari mujassamlashgandir.

Dunyoqarashning navbatdagi, birmuncha murakkabroq ijtimoiy tarixiy shakli **diniy dunyoqarashdir**. Mifologik dunyoqarash turli narsa-hodisalar sababini ko'plab afsonaviy, g'ayritabi'iy kuchlar bilan bog'lab talqin etsa, diniy dunyoqarash, abstract tafakkurga asoslanib, bir butun, yagona borliqning mavjudligi va o'zgarishini yagona xudo bilan bog'lab tushuntiradi.

Diniy dunyoqarash – bu tabiat, jamiyat, insonni ilohiy yaratuvchi kuch bilan bog'liq deb tushunish va tushuntirishdir. Diniy dunyoqarash borliqning diniy ilohiy manzarasini yaratadi. Diniy dunyoqarashni oliy ruhiy kuch bo'lmish xudo to'g'risidagi ta'limot - ilohiyot o'rganadi. Unga ko'ra, butun borliqni xudo yaratgan va o'zi boshqarib turadi. Diniy dunyoqarash, shu tamoidan kelib chiqib, barcha dunyoviy narsa hodisalarga ilohiy tus beradi. Diniy aqidalarga ko'ra, butun borliq xudoning ilohiy yaratuvchilik mahsuli, hamma joyda va hamma narsada uning xohish irodasi xukmron. Dunyo ikki qismdan iborat: "bu dunyo" – o'tkinchi, foniyl hisoblansa, "u dunyo", ya'ni odamlar vafotidan keyin uning ruhi yashaydigan haqiqiy, abadiy, boqiy dunyodir. Har ikki dunyoning chegarasi "oxirat" deb ataladi. Inson bu yolg'onchi dunyoga o'zini bog'lab qo'ymasligi, oxiratni o'ylab yashashi, haqiqiy dunyoga rixlatga tayyorgarlik ko'rishl lozim. Islom dini aqidalariga ko'ra, xudo olamni olti kunda yaratgan va u etti qavatdan tuzilgan. Odaml yettinchi qavatda binoga kelgandir. Diniy dunyoqarash isbot talab qilmaydigan aqidalarga asoslanadi. Masalan, islom dinining beshta aqidasi mavjud: olloh va farishtalarning borligiga, olloh tushirgan kitoblarga, payg'ambarlarga va oxiratdagi hisob kitob kuniga ishonish. Diniy aqidalarga ishonish vojib hisoblanadi, ularga zarracha bo'lsin xilof ish to'tish xudoga shak keltirishga teng bo'ladi, oxiratda do'zax azobi bilan jazolanadi, deb uqtiriladi. Demak, diniy dunyoqarash xudodan qo'rqish, xudo g'azabidan saqlanish his-tuyg'ulariga asoslanadi. Diniy dunyoqarash insonning kundalik hayoti, faoliyati, kechinmalari, his-tuyg'ulari, umid va e'tiqodlari bilan aloqador bo'lganligi sababli ham mifologik dunyoqarashdan hayotiyliigi hamda barqarorligi bilan ajralib turadi. Diniy dunyoqarash takomillashib borishi bilan din kelib chiqadi. Din ko'pchilik xalqlar, shu jumladan, o'zbek xalqi uchun ham e'tiqodgina bo'lib qolmasdan, ma'naviyatning o'zagi va hayot tarzining uzviy qismidir.

Mustaqil O'zbekistonda din va diniy tashkilotlarga yangicha munosabat shakllangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining

31-moddasida: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarning majburan singdirilishiga yo'l qo'yilmaydi", deyiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov "Oллоh qalbimizda, yuragimizda" (1999 yil) nomli asarida ta'kidlanganidek, "Islom asrlar mobaynida umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan, u bundan keyin ham xalqimizni tarixiy va madaniy merosga yaqinlashtirishi lozim". Shu bilan birga dunyoviy davlatda dinning siyosatga, sud ishlariga, xokimiyat uchun kurashga aralashuvi davlat xavfsizligi va barqarorligiga putur etkazadi. Diniy dunyoqarash umuminsoniy qadriyatlar vositasida jamiyat ma'naviy kamolotiga xizmat qilishi lozim.

Dunyoqarashning uchinchi shakli **falsafiy dunyoqarash bo'lib, u borliqni umumiy mantiqiy tushuncha va nazariy xulosalar shaklida aks ettiradi.** Mifologik va diniy dunyoqarashdan farqli o'laroq, falsafiy dunyoqarash tabiat, jamiyat va inson tafakko'rini, bir so'z bilan aytganda, moddiy va ma'naviy borliqni atroflicha va mukammal, mohiyatan chuqur aks ettiradi, baholaydi va izohlaydi. Mifologik qarashlar hayoliy obrazlarga, diniy dunyoqarash e'tiqod asosiga qurilsa, falsafiy qarashlar mantiq qonun qoidalariga tayanadi va eng muhimi – amaliy hamda nazariy faoliyatda o'z ifodasini topadi.

Dunyoqarash tuplari o'zaro ta'sirda va bog'lanishdadir. Mifologik tasavvurlar diniy dunyoqarashning shakllanishiga, diniy dunyoqarash falsafiy qarashlarning tarkib topishiga xizmat qilgan. Turli tarixiy davrlarda kishilar ongida goh mifologik, goh diniy, goho falsafiy qarashlar ustunlik qilib kelgan. Biroq, har uch tipdagi dunyoqarash uchun ham umumiy ob'ekt – borliq, yagona maqsad – haqiqatga intilish bo'lib kelgan. Bu umumiylikni ko'plab allomalar zukkolik bilan qayd etganlar. Masalan, Hakim at-Termiziy fanni "ilm", dinni "ma'rifat", "hikmat" deb bilgan. Suqrot, Aflotun, Arastu kabi buyuk mutafakkirlar fan va din aynan bir soha – falsafa deb hisoblagan, uni ikki tarkibiy qismga – fizika va metafizikaga ajratib o'rganganlar. Islom dinidagi "ilm" tushunchasi serqirra ma'noga ega bo'lib, "ilmi qol" – bu ta'lim vositasida o'rganish mumkin bo'lgan dunyoviy ilmni, "ilmi hol" esa intuitiv (qalban) uzatiladigan ilmni anglatadi. Masalan, Abu Rayhon Beruniy – "ilmi qol", Bahovuddin Naqshband esa "ilmi hol" vakili bo'lganliklariga qaramay, Beruniy o'ziga zamondosh so'fiylar ta'limotini inkor qilmagan, Naqshband esa dunyoviy ilmlarga xayrihoh bo'lgan. Xullas, dunyoqarash tiplari o'zaro muayyan xususiyatlari bilan tafovutlansa-da, mazmunan o'hshashdirlar, zotan

bu “ob’ekt-sub’ekt” munosabatlarining xususiy ko‘rinishlaridan iboratdir.

II. Falsafiy dunyoqarash **falsafa fani** bilan chambarchas bog‘liqdir. **Falsafa - bir butun yaxlit tizim bo‘lmish borliqni nazariy xulosa va qoidalar shaklida izohlab beruvchi fandir. U tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatlari haqida bahs yuritadi.** Falsafa ijtimoiy ongning o‘ziga xos shakli, u muayyan iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy shart-sharoitlar bilan bog‘liq hamda aqliy-intelektual salohiyat negizida yuzaga keladi. Eramizdan avvalgi I ming yillikda, quldorlik tuzumi davrida aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralishi natijasida ana shunday ijtimoiy-iqtisodiy va intellektual shart-sharoitlar etildi. Falsafa fani vujudga kelgach, u shungacha amal qilib kelgan diniy va mifologik qarashlarga kuchli ta’sir ko‘rsatdi, ularga yangicha mazmun bag‘ishladi. Shu tariqa odamning o‘zini qurshab turgan olamga yangicha munosabatni talqin etuvchi qarashlar tizimi yuzaga keldi. Falsafa insonni ham shu yaxlit va bir butun borliqning uzviy bo‘lagi sifatida qarab tahlil qiladi. Uning hayoti, faoliyati, umrining ma’nosi, oqilona turmush kechirish kabilar ham asosiy falsafiy muammolar doirasiga kiradi. Falsafiy masalalarning o‘zagi, bosh masalasi haqida gapiradigan bo‘lsak, bu, shak-shubhasiz, insonning mohiyati, hayot va o‘lim masalalaridir.

Falsafa tabiat, jamiyat va inson, uning tafakkuri muammolarini mushohada etish va tadqiq qilish natijasida to‘plangan bilimlarini muayyan falsafiy tushunchalar – kategoriyalar, falsafiy qonunlar va tamoyillarda ifodalaydi. Bu qonun, tamoyil va kategoriyalar borliqni idrok qilish, bilishda, faoliyatni maqsadga muvofiq tashkil etish, dunyoni izohlash va o‘zgartirishda o‘ziga xos tayanch nuqtalar vazifasini o‘taydi. Falsafa – fan, ammo shu bilan birga u ijtimoiy ongning shakllaridan biri, ma’naviyat, madaniyatning ham ajralmas tarkibiy qismidir. U, bir tomondan, ijtimoiy borliqdan o‘sib chiqadi, jamiyatning talab ehtiyojlari hamda manfaatlarini ifodalaydi. Ikkinchi tomondan, shu zaylda dunyoga kelgan turli falsafiy ta’limotlar, g‘oya va qarashlar ijtimoiy borliqqa, kishilar ongiga faol aks ta’sir ko‘rsatadi, yangi g‘oya va nazariyalarning, ijtimoiy ideallar, qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishiga ma’naviy ruhiy ozuqa beradi. Shunday qilib, falsafa fanlar tizimidagi oddiy bir unsur bo‘lib qolmasdan, borliq va uning rivojlanish qonuniyatlari, insonning mohiyati va olamga munosabatini o‘rganuvchi va o‘rgatuvchi dunyoqarash ahamiyatiga molik bo‘lgan fandir.

Falsafa tabiiy va ijtimoiy fanlar tizimida alohida o‘rin tutadi. Falsafa avvalo siyosiy, huquqiy, ahloqiy, estetik, diniy, ilmiy va boshqa qarashlar bilan chambarchas, bevosita bog‘liq. Shu sababli falsafa

ijtimoiy hayotning muayyan sohalarini maxsus tadqiq etuvchi siyosatshunoslik, huquqshunoslik, etika, estetika, dinshunoslik kabi ijtimoiy fanlar bilan yaqindan aloqadorlikda. "Filosofiya" yunoncha "fileo" – "sevaman" hamda "sofos" – "donolik" so'zlaridan to'zilgan bo'lib, tarjimada "donolikni sevis", "donishmandlikka intilish" ma'nolarini beradi. Arab tilida "filosofiya" – "falsafa", "filosof" esa "faylasuf" deb nomlanadi. Tabiat, jamiyat va inson haqidagi bilimlar hali kurtak holida bo'lgan qadimgi davrlarda falsafa ozmi-ko'pmi shakllanib ulgo'rgan bilim sohalarining barchasini o'zida mujassamlashtirgan "fanlar fani" deb qaralar edi. U paytlarda "donishmand", "faylasuf", "olim" "alloma" so'zlari sinonim tushunchalar deb qo'llanilgan. Masalan, qadimgi yunon faylasufi Zenon (er.av. IV-III asrlar): "Falsafa turli mevalar to'la boqqa o'xshaydi: unda mantiq – devor, fizika – daraxt, etika – mevadir" degan edi. "Filosof" atamasini birinchi bo'lib qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor qo'llagan va o'zini shu nom bilan atashlarini so'ragan. Aflotun falsafani alohida bilim sohasi, olam va odam to'g'risidagi fan sifatida ilk marta ta'riflab bergan faylasufdir. "Faylasuflarga hayratlanish xos, - deydi u, - falsafa hayratdan boshlanadi. Chinakam faylasuflar haqiqatni bilishni sevadilar". Donolik, donishmandlik ko'p narsani o'qish, ko'p narsani bilish, bilag'onlikda emas. Zero qadimgi yunon mutafakkiri Aristipp (er.av. 430-355 y) ta'kidlaganidek, "odam ko'p narsani iste'mol qilishdan sog'lomroq bo'lib qolmaydi. Olim ham huddi shunday. Ko'p o'qiyotgan emas, balki foyda bilan mutolaa qilayotgan kishi olimdir".

Haqiqiy donolik, faylasuflik bilganlaridan teran umumlashmalar, chuqur xulosalar chiqarish, mohiyatni bilishdir. "Donolikdan, - degan edi Demokrit, - uch fazilat kelib chiqadi: maqbul qarorga kelish, bexato so'zlash va lozim bo'lgan ishni qilish". Shunday qilib, falsafa juz'iy masalalar bilan chegaralanmasdan, bir butun tizim holidagi borliqning eng umumiy taraqqiyot qonunlarini o'rganish, tushuntirish, izohlash bilan shug'ullanadi. Shu bois falsafa dunyoqarash ahamiyatiga molik fan hisoblanadi.

Falsafa fanining muammolar doirasi ham birdaniga aniq-ravshan bo'lib ajralib chiqmagan. Falsafa dastlabki vaqtlarda "fanlar fani", "fanlar podshosi", "fanlarning gulto'ji" deb qaralgan, faylasuf kishi esa odamlarda tug'iladigan har qanday savolga javob bera oladigan har tomonlama bilimdon odam deb tushunilgan. O'z-o'zidan ravshanki, bu davrlarda falsafa juda ham keng muammolar doirasiga ega bo'lgan, shu sababdan ining predmeti, bahs-munozara mavzulari doirasi nihoyatda keng, mavhum

bo'lgan. Keyinchalik, kishilarning ilgari bir butun bo'lgan bilimlar doirasi differentsiatsialanib, maxsus fan sohalari tarmoqlanib chiqishi natijasida sof falsafiy muammolar sohasi aniq ko'zga tashlanib qoldi.

Falsafa fanining predmeti – tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatlarini o'rganishdan iborat.

Butun borliqqa xos bo'lgan umumiy taraqqiyot qonunlarini tadqiq etish, kashf qilish va kishilarni ana shunday umumfalsafiy nazariy bilimlar bilan qurollantirib, dunyoni to'g'ri idrok etishga o'rgatish, to'g'ri dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilish falsafa fanining o'ziga xos muammosi va vazifasi bo'lib kelgan. Shu ma'noda falsafa birorta aniq (konkret) fanning o'rnini bosa olmaydi, o'z navbatida, hech bir konkret fan ham falsafaning o'rnini bosishga qodir emas. "Barcha fanlar, - degan edi Arastu, - falsafaga qaraganda ko'proq zarurdirlar, lekin ulardan birortasi falsafadan yaxshiroq emas". Haqiqiy faylasuf atrof-olamning umumfalsafiy xususiyat va jihatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini kashf etishda zavq va lazzat topadi. "Bitta ilmiy isbotni topish men uchun butun fors podsholigiga ega bo'lishdan afzal" – degan edi Demokrit. Shuni nazarda to'tib, Aflotun: "Haqiqiy faylasufning tashvishlari tanaga emas, qalbiga yonaltirilgan bo'ladi" degan edi. Arastu zukkolik bilan qayd etganidek, "hamma mashg'ulotlarda natija mashaqqat bilan mashg'ulot yakunida keladi. Falsafada esa bilim va lazzat bir-birlarini kim o'zarga quvib yuradilar. Huzur bilimning ortidan yurmaydi, bilim va huzur bir vaqtning o'zida mavjud bo'ladi".

Falsafiy bahs-munozaralarda mag'lub bo'lgan kishining o'zi bo'lmaydi. Epikur buni juda o'rinli qaid etgan: "Falsafiy bahsda mag'lubiyatga uchragan kishi ham yutadi, shu jihatidan yutadiki, u bilimlarini ko'paytirib oladi". Demak, falsafa, umumnazariy masalalar doirasi bilan mashg'ul bo'lar ekan, pirovardida, kishilarning amaliy faoliyati samarador bo'lishini ko'zlaydi.

Borliqning mohiyati teran va serqirradir. Shu boisdan falsafa uni idrok va tadqiq etishda shartli ravishda bir qator ob'ektlarga taqsimlaydi. Shu asosda falsafa fanining ham quyidagi tarkibiy qismlari ajralib chiqadi:

1. Ontologiya — borliq haqidagi ta'limot.
2. Gnoseologiya — bilish haqidagi ta'limot.
3. Sotsiologiya — jamiyat haqidagi falsafiy ta'limot.
4. Falsafiy antropologiya — inson haqidagi ta'limot.
5. Metodologiya — tafakkur uslublari haqidagi ta'limot.
6. Aksiologiya — qadriyatlar haqidagi ta'limot.
7. Praksiologiya — amaliyot haqidagi falsafiy ta'limot.

8. Mantiq — to'g'ri fikrlash haqidagi ta'limot. Shuningdek, xulq-atvor madaniyati haqidagi etika, go'zallikning mohiyati haqidagi estetika fanlari ham o'z predmetiga ko'ra falsafiy fanlar qatoriga kiradi.

III. **Falsafa fanining vazifalari** shartli ravishda ikki qismga bo'linadi:

1. Dunyoqarash sifatidagi ijtimoiy vazifalar. 2. Fan tarmog'i sifatidagi funksialari. Dunyoqarash ahamiyatiga molik fan sifatida, bilimlar tizimi sifatida falsafa: 1. Umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarni rivojlantiradi. 2. Insonning atrof-borliqqa munosabatini bosh falsafiy masala darajasiga ko'taradi. 3. Kishilarni falsafaning bir necha ming yillik durdona fikrlar xazinasini bilan tanishtirib, ularda falsafiy madaniyatni shakllantiradi.

Inson borki, ongli mavjudot sifatida, o'tmishni tahlil qiladi, bugungi kunini his qiladi, kelajakni bashorat qilishga intiladi, xullas, umumiy mulohazalar yuritadi, istasa-istamasa, falsafiy muammolarga duch keladi. Shularni nazarda tutib, Aristipp quydagilarni aytib qoldirgan: "Hech kim o'spirinlikda falsafani paysalga solmasin va keksalikda undan charchamasin. Falsafaning xali fursati etmadi yoki u o'tib ketdi, deyayotgan odam xuddi baxtning xali fursati etmadi yoki u o'tdi deyayotgan kishiga o'hshaydi. Shuning uchun falsafa keksaga ham, o'spiringa ham zarur: o'spiringa – qarigan chog'ida, o'tmishdan xursand bo'lib, baxt-saodatli yashashi uchun kerak; keksa kishiga – uning kelajak oldida dov yurak bo'lishi uchun kerak".

Arastu o'z zamonasida "Falsafa bilan hamma shug'ullanavermasligi kerak" degan mulohazalarga javoban shunday degan edi: "Inson falsafa bilan shug'ullanmasligi kerakmi? Agar inson falsafa bilan shug'ullanmasligi kerak bo'lsa, unda hech bo'lmaganda ushbu holatni asoslash uchun falsafiy fikr yuritmog'i lozim. Xulosa oddiy va qat'iy: inson falsafa bilan baribir shug'ullanmog'i kerak". Xullas, dunyoqarash masalalari mavjud bo'lar ekan, ularni hal qilish zarurati mavjud bo'lar ekan, falsafaga ehtiyoj bo'adi.

Fan tarmog'i sifatida falsafa quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Metodologik.
2. Evristik.
3. Gnoseologik.
4. Tarbiyaviy.
5. Mafkuraviy.

Metodologik funksiya shunda ko'rinadiki, o'z tadqiqot ob'ektidan kelib chiqib, falsafa borliqning eng umumiy xususiyat, jihat va bog'lanishlarini tegishli kategoriyalar, tamoillar va qonunlarda umumlashtiradi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurini o'rganuvchi

konkret fanlar o'zlari erishgan yutuqlarni izohlash, talqin etishda ushbu nazariy xulosalarga yo'l-yoriq sifatida tayanadilar. Negaki qismni tadqiq etish bilan mashg'ul fanlar bir butun haqida umumlasmalar chiqarishga qodir emaslar. Borliqning ma'lum bir qismini, ya'ni bo'lakni o'rganish, u haqda xulosalar chiqara olish uchun esa butun haqida umumiy, nazariy bilimga ega bo'lish zarur. Shu jihatdan falsafa xususiy fanlarga nisbatan umumnazariy, umummetodologiyaviy asos vazifasini bajaradi.

Falsafaning **evristik** funksiyasining ma'nosi shundaki, u ham barcha fanlar qatori borliqdan yangi jihat va qonunlarni kashf etadi. "Evristika" – lotinchadan tarjimada "kashf etmoq", "ochmoq" deganidir. Tarixdan ma'lumki, ko'plab faylasuflar aniq fanlar sohasida, masalan, fizika, matematika, geometriya, tibbiyot, biologiya fanlarida olamshumul kashfiyotlar qilishgan, yangiliklar yaratishgan. Misol tariqasida, Ibn Sino, Forobiy, Pifagor, Arastu, Leybnits, Kantning ilmiy yangiliklarini keltirish mumkin. Muhimi faylasuflar – bir butun borliq harakati va taraqqiyotiga daxldor nihoyatda muhim umumfalsafiy qonun va tushunchalarni kashf etganliklari bilan mashhurdirlar. Masalan, Arastu to'g'ri fikrlashning uch qonuni – ayniyan, ziddiyat va istisno qonunlarini, Gegel dialektika qonunlarini tom ma'noda kashf etgandilar. "Haqiqat – chuqur quduqning tubida yashiringan" – degan edi qadimgi yunon mutaffakkiri Demokrit. Falsafiy haqiqatlarni topish esa boshqa sohalaridagi kashfiyot va ihtirolardan nazariy qimmatini jihatidan aslo kam emas.

Falsafaning eng muhim funksiyalaridan biri – **gnoseologik** funksiya bo'lib, insonning biluvchanlik qobiliyati, bilish faoliyati, uning mexanizmlari, bocqichlari, usullari, vositalari, haqiqatning mezonlari haqidagi ta'limot – bilishning umumfalsafiy nazariyasidir. Falsafani o'rgangan kishi olam haqidagi umumiy bilimlar sohibi bo'libgina qolmay, shu bilimlarni ko'paytirish, yanada chuqurlashtirish yo'llari, usullaridan ham boxabar bo'ladi.

Falsafaning **tarbiyaviy funksiyasi** shundaki, u insonning mohiyati, yashashdan maqsadi, hayotning qadr-qimmatini o'tmish va kelajak nuqtai nazaridan oqilona tushuntiradi, moddiy va ma'naviy boyliklarning hayotdagi o'rnini to'g'ri belgilashga, insonni oliy qadriyat deb bilishga, ma'naviy-ruhiy poklikka da'vat etadi. Faylasuf o'zini foniy dunyoning o'tkinchi hoyu-havaslari bilan bog'lab qo'ymaydi, zero olamda yaxshi nom va ezgu ishlargina mangu qoladi. Faylasuf odamning qanoat va shukronalik hissi bilan yo'g'rilgan kamtarona, ammo yuksak ma'naviyat to'la shaxsiy hayoti har qanday namunadan kuchliroq ibrat maktabidir. Rivoyat

qilishlaricha, qadimgi yunon faylasufi Diogendan: "Falsafa sizga nima berdi?, - deb so'raganlarida donishmand kamtarlik bilan: - Hech bo'lmaganda taqdirning har qanday taqozolariga tayyor turishni" deb javob qilgan ekan. Donishmand allomalarning pand-nasihatlarini, o'g'itlari inson ma'naviyatiga tengsiz ozuqa beradi. Bu haqda qadimgi davr allomalaridan Epikur shunday degan: "Faylasuflarning ulardan inson davo topmagan so'zlari puchdir. Xuddi inson tanasidan kasallikni quvib chiqarmayotgan tabobatdan hech qanday foyda yo'qligi kabi inson qalbidan dardlarni haydamagan falsafa ham befoydadir".

Falsafaning **mafkuraviy funksiyasi** shundaki, u odamni tabiat bilan bir qatorda jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini, istiqbollarini oldindan ko'ra bilishga, ko'p qutbli murakkab bu dunyoda mustaqil yo'l topishga o'rgatadi. Globallashuv va information tajovuzlar ta'sirida keng tarqalayotgan g'ayri ilmiy, mistik, irratsional, eklektik, aqidaparastlik mafkura va g'oyalarining tazyiqlariga bardosh berish uchun odam umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar tizimiga, sobit ilmiy asoslangan e'tiqodga tayanmog'i, avlodlardan meros falsafiy madaniyatni puxta o'zlashtirmog'i lozim bo'ladi. Ayniqsa, jamiyat va davlat rahbarlarining falsafiy madaniyati nihoyatda zarurdir. Aflotun bu to'g'rida shunday deydi: "Inson zoti, davlat lavozimlarini haqqoniy va to'g'ri fikrlovchi faylasuflar egallamaguncha yoki davlatlardagi xukmdorlar qandaydir ilohiy ajrimga ko'ra, chinakam faylasuflarga aylanmagunlarigacha, musibatlardan xalos bo'la olmaydi".

Falsafa insonni mustaqil, erkin fikrlashga o'rgatadi, fikriy qaramlik va mahdudlikka, g'oyaviy bo'shliqqa barham beradi, boshqa insonlar sha'ni, fikri, g'oyasini, mafkuraviy plyuralizmni hurmatlashga, turli g'oyalar ichidan saragini-sarakka, puchagini-puchakka ajrata bilish malakasini hosil qiladi.

O'zbekistonning davlat mustaqilligi barcha sohalarida bo'lganidek, falsafada ham sifat o'zgarishlari amalga oshirishni taqozo etmoqda. Umuminsoniy va milliy, sharqona va islomiy an'analarga qirilgan XXI asr o'zbek milliy falsafasini yaratish dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylandi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Dunyoqarash, individual va ijtimoiy dunyoqarash, dunyoqarashning ijtimoiy-tarixiy tiplari: mifologik, diniy va falsafiy, falsafa fani, falsafa fanining predmeti, falsafiy bilimlar tizimi, falsafiy fanlar turkumi, falsafaning muammolar doirasi, tarkibiy qismlari, ijtimoiy vazifalari va funksiyalari.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. E'tiqod va mafkura dunyoqarash tizimida qanday o'rin tutadi?
2. Falsafiy dunyoqarashning mifologik va diniy dunyoqarashdan farqi nimada?
3. "Falsafa – fanlar fani" degan iborani qanday izoxlaysiz?
4. Falsafa fanida milliy va umuminsoniy jihatlar qay nisbatda?
5. Falsafa va falsafiy fanlarning o'zaro aloqadorligi nimada?
6. Falsafa fanini o'rganish insonga qanday naf keltiradi?

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. – T, Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I. A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. "Fidokor" gazetasi, 2000 yil, 8 iyun.
3. Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. – "Tafakkur" jurnali, 1998, 2-son.
4. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent, 2001.
5. Falsafa O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2005.
6. Falsafa Ma'ruzalar matni. – Toshkent. 2000.
7. Qahhorov M. Falsafa. Ma'ruza matnlari. — Farg'ona, 2000.

2- MAVZU

SHARQ FALSAFASI

I. Qadimgi Xindiston va Xitoy falsafiy fikrning ilk o'choqlari hisoblanadi.

Qadimgi xind falsafiy maktablari ikki turga bo'linadi: astika – muqaddas kitoblar sanalmish vedalarga asoslanuvchi maktablar. Bo'larga vedanta, mimansa, sankhya, nyaya, vaysheshika maktablari kiradi. Nastika – vedalarning muqaddasligini tan olmaydigan falsafiy maktablar. Bo'lar qatoriga jayнизм, buddizm, charvaka, lokayata va boshqa maktablar kiradi.

Vedalar falsafasiga ko'ra, jon va xudo bor narsalardir. Vedanta maktabining madxva oqimi ularni bir-biridan mustaqil deb hisoblasa, sharqata oqimi xudo va jon bir narsadir, deb e'tirof etadi. Kapila asos

solgan (er.av. 600 - yillar) sankhya maktabi ta'limotiga ko'ra olamda ham moddiy, ham ruxiy boshlangichlar mavjuddir. Jumladan, prakriti dunyodagi hamma narsaning ruxiy asosi deb hisoblangan. Olamni odam sezgi a'zolari va aql yordamida biladi. Ammo uning moxiyati veda aqidalari bilan ochiladi.

Nastika falsafiy maktablari jayнизм falsafasiga er.av.v. VI asrda Vardxmana (asli ismi G'olib Jina) asos solgan deyiladi. Uning ta'limoti – jayнизмga ko'ra, borliq jonli va jonsiz mavjudotlarga bo'linadi. Jonsiz tabiat bo'linmas mayda moddiy zarrachalardan tuzilgan. Fazo, vaqt, harakat ham notirik borliqqa kiradi. Tirik tabiatga avvalo jon mansub bo'lib, uning asosiy xususiyati onglilikdir. Jon – mukammal narsa, uning imkoniyatlari cheksiz. Biroq u tana bilan bog'langan, tananing xoxish – istaklari, extiyojlariga bog'langan. Shu bois jonni tanadan xalos etish, unga erkinlik bag'ishlash kerak. Bu esa xaqiqiy ilmning, falsafaning vazifasidir.

Charvaka maktabi ta'limotiga ko'ra, olam moddiy, tabiat, xatto inson ham to'rt unsur – xavo, suv, tuproq va olovdan tarkib topgan. Boshqa mavjudotlardan farqli o'laroq, inson ongli zot, u aql va sevgilari yordamida olamni bilishga qodir.

Qadimgi xitoy falsafasi er. av.v. VII asrda shakllangan. U dastavval Konfutsiy (551 – 479) yaratgan maktab nomi bilan bog'liq. Konfutsiyning axloqiy – falsafiy ta'limoti markazida xudo g'oyasi turadi. Uning fikricha, «kishilar xayoti taqdirga bog'liq, boylik va shon-shuxrat esa xudodandir». Konfutsiy axloq va tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratadi: «Hamma odam tabiatan bir xil, ammo ular tarbiya tufayli bir-birlaridan farqlanadilar». Jamiyat xayotida, umuman borliqda qa'tiy tartib mavjud. U «Li» deb nomlanadi. Tartib – qoida, qonun bo'lmasa, rivojlanish bo'lmaydi. Pirovardida «Li» iloxiy moxiyat kasb etadi.

Er. av.v. V asrda **Mo Tszi** nomli mutafakkir diniy – falsafiy maktabga asos solgan. Uning fikricha, inson iloxiy qonun-qoidalar buyicha xayot kechirmog'i lozim, aks xolda xudo uni jazolaydi. Xudoni tan olganlar baxtiyor bo'ladi. Moistlar urushlarni qoralaganlar, davlatlar o'rtasida tinch-totuv yashashni qo'llab-quvvatlaganlar. Xaqiqiy bilim sezgi va tafakkur uyg'unligidan kelib chiqadi, deb hisoblaganlar.

Er.av.v. VI asrda yashab, ijod etgan xitoy faylasufi Lao Tszi **daosizm falsafasini ishlab chiqqan**. «Dao» xitoy tilidan tarjimada «qonun», «yo'l» degan ma'noni beradi. Daochilar fikricha, olam moddiy, u tabiiy qonun bo'lmish «dao» buyicha harakatlanadi. Lao Tszi hamma narsa ichki qarama-qarshiliklardan to'zilgandir, degan dialektik fikrni bildirgan. Dao olamning qonuniyati bo'libgina qolmasdan, balki

olamning mohiyati hamdir. Bu mohiyatni bilish mumkin. Bilish sezgilardan boshlanadi va tafakkurda davom etadi.

Qadimgi xind va xitoy faylasuflarining ta'limotlari jaxon falsafiy fikrining keyingi taraqqiyotiga, jumladan, Turonzaminda falsafiy qarashlar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

II. Qadimgi Turonda ilk falsafiy fikrlar er.avv. VIII-V asrlarda paydo bo'ldi.

Mintaqaning ijtimoiy – iqtisodiy va ma'naviy rivoji bunga asosiy omil bo'ldi. Milodning III asrigacha bu xududlarda dualistik mohiyatga ega bo'lgan Zardusht asos solgan diniy falsafa keng tarqaldi. Bu g'oyalar muqaddas kitob sanalmish «Avesto»da bayon etilgan.

Borliq, Zardusht ta'limotiga ko'ra, er bilan okeandan, osmon esa yorug'lik va jannatdan iborat. Er okean bilan qurshalgan. Oy va Quyosh esa ilox Axuramazdaning tanasidir.

Odam zoti, zardushtiylik ta'limotida bayon qilinishicha, birinchi odam hisoblanmish Ilmadan tarqalgan. Ilmaning xukmronlik davri «oltin davr» sanaladi, chunki bu davrda odamlar ulim nimaligini bilishmagan. Axuramazda odamlarning baxtli va farovon xayoti xaqida qayg'urgan. Biroq odamlar gunoh ishga qo'l urib, ta'qiqlangan mol go'shtini iste'mol qilganlar. Bundan g'azabga kelgan ilox Axriman odamlar boshiga jazo tariqasida qor va sovuq yuborgan. Ilma odamlar va jonivorlarni muqarrar o'limdan saqlab kolish uchun uy qurib, barcha jonzotlardan bir juftdan joylashtirgan. Shundan so'ng «oltin davr» tugab, ezgulik iloxi Axuramazda bilan yovuzlik iloxi Axriman o'rtasida ixtiloflar boshlanadi. Zardusht bashorat qilganidek, istiqbolda Axuramazda g'olib chiqib, yaxshilik, ezgulik, baxt va saodat saltanati qaror topadi, o'lganlar tirilib, gunoxkorlar jazolanadi.

Zardushtiylikning axloqiy falsafasi uch g'oya – ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amalga ko'rilgandir. Ezgu fikr – Axuramazdadan, yomon fikr – Axrimandandir. Ezgu fikr – niyatning yaxshiligi, yaqinlarga yaxshilik tilash, zarur bo'lganda, madad berishga tayyorlik, yovuzlikka qarshi turish, tinch-totuv yashashga intilishdir. Ezgu amal faqirlarga mehribonlik, insonparvarlik, isnodan, xasaddan, o'g'rilik, talonchilik, o'zgalar molini o'zlashtirishdan, zinodan, dilozorlikdan tiyilishdir. Axloqiy o'g'itlarni o'zlashtirish bilan cheklanmasdan, oila, turmush o'rtog'i, farzandlar to'g'risida qayg'urish, burch, farzand tarbiyasi xaqida g'amxo'rlik qilish ham ezgu amalga kiradi.

II-III asrlarda Markaziy Osiyo va Eronda feodal munosabatlar shakllana boshladi. Zardushtiylikdan ajralib chiqqan oqim bo'lmish moniylik buni o'zida aks ettirdi. Uning asoschisi Moniy 216 yilda Botl shaxrida tavallud topgan va 276 yilda Jundishopur shaxrida qatl

etilgan. Uning asarlari bizgacha etib kelmagan, ammo og'zaki ta'limoti xalq orasida og'izdan-og'izga ko'chib yurgan.

Zardushtiylik kabi Moniylik ham yorug'lik (ezgulik) bilan zulmat (yovuzlik) o'rtasidagi ayovsiz kurashni e'tirof etish g'oyasidan kelib chiqadi. Moniyning fikricha, inson xulq-atvori, faoliyati ezgulikka xizmat qilishi lozim. Xurfikrlikka asoslangan bu g'oya, quldorlik davlat tuzumi va diniy aqidalarga xilof ekanligi sababli moniylik tarafdorlari ta'qib ostiga olinadilar, uning raxnomosi esa qatl etiladi.

V asr oxiri – VI asr boshlarida Markaziy Osiyo va Eronda xalq yo'lboshchisi Mazdak asos solgan ta'limot keng tarqaldi. Jamoa erlarini bosib olish va dexqonlarni qaram qilishga qarshi qaratilganligi sababli xalq Mazdak qo'zg'olonini qo'llab quvvatlagan.

Mazdak ta'limoti falsafiy jihatdan ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash xaqidagi zardushtiylik g'oyalariga asoslansa-da, unda ijtimoiy masalalarga ko'proq e'tibor qaratilgan. Masalan, boylikka xirs quyish ham, qambag'allik ham yomonlikning ko'rinishlari deb tushuntirilgan. Chunki g'arazgo'ylik, xasad, qasos olish kabi illatlar shundan kelib chiqadi. Bu illatlar xudoga sidqidildan ibodat qilish yo'li bilan barham topilishi mumkin. Mazdak dinga murojaat orqali tenglik g'oyasini asoslaydi. Har bir kishi mulkka tenglik asosida egalik qilishi, jamiyatda kishilar mulkiy jihatdan teng mavqega ega bo'lishi keraqligi targ'ib qilinadi. Tekischilik, barcha boyliklarni xalqqa bo'lib berish g'oyasi etakchi o'rinni egallaganligi uchun ham mazdakizm oddiy xalq, dehqon va xunarmandlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan.

Qadimgi Turonda buddaviylik ham keng tarqalgan e'tiqodlardan edi. Marv, Balx, Termiz, Koson, Samarqand, Buxoro axli qo'shonlar davrida buddizmning maxayana oqimiga e'tiqod qilganlar.

Budda ta'limotiga ko'ra, qalbning oliymaqom osoyishtaligi, jannatiy ne'matlarga daxldorlik – nirvana xolatiga nafaqat narigi dunyoda, balki bu dunyoda ham erishmoq mumkin, degan aqidaga qo'shonlik buddaviylar o'zgartirish kiritib, ma'naviy-ruxiy poklikka va komillikka intilgan har qanday kishi bunga doxil bo'lishi mumkin, deb hisoblaganlar. Buddaviylik e'tiqodi to'rt qoidaga kurilgan: 1. Azob-uqubatlar ko'p va dunyo ular bilan to'la. 2. Bu azob-uqubatlarning sababi mavjud. 3. Azob-uqubatlardan qutilish mumkin. 4. Azob-uqubatlardan qutilish yo'li mavjud. Bu yo'l – har tomonlama poklanish – «aximsa» dir. Insonning har bir harakati, o'zgalarga munosabati ezgu bo'lmog'i, butun fikr-uyi, xis-tuygusi, qalbi Buddaga qaratilmog'i lozim, shundagina u nirvana xolatiga erishadi.

III. VIII-XIII asrlarda Markaziy Osiyo. O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida tasavvuf, arab-musulmon falsafasi (mashshoiyyun) hamda tabiatshunoslik falsafasi (tabiiyyun) shakllandi. Dunyoviy

adolat, insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, demokratik boshqaruv kabi qadriyatlar bu ta'limotdan keng o'rin egalladi. Shulardan ayrimlari xususida to'xtalaylik.

Tasavvuf islomiy falsafaning o'ziga xos ko'rinishidir. Markaziy Osiyo va Erondan Ibroxim Adham, Bistomiy, as-Sulamiy, Abu-Bakr al-Farg'oniy, Bobo Kuxiy, Bobo Toxir, Ansoriy, Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi tasavvuf allomalari etishib chiqdilar.

Tasavvuf xudoning o'zligida (vaxdat-ul-vujud), borliqda (vaxdat-ul-mavjud) shariat, tariqat, ma'rifat, xaqiqat bosqichlari xaqidagi ta'limotlari bilan rasmiy islom aqidalaridan bir qadar chetlashgan, sodda dunyoviy va erkin fikrlar bildirgan. Masalan, oriflik, zoxidlik, darveshlik, gushanishinlik, rindlik harakatlari adolatsizlik, zuravonlik va boylik to'plashga qarshi, insonlarning xudo oldidagi tengligi, kambagallarga insoniy munosabatda bo'lish g'oyalari bilan o'rta qatnashgan. Shu sababli tasavvuf quyitabaqalar vakillari orasida e'tibor qozongan, o'z navbatida, diniy mutaasiblikni, bid'at va xurofotlarni rasmiy islom, kalom nomidan qonunlashtirib olgan ruxoniylarning noroziligiga sabab bo'lgan. Tasavvuf falsafasining naqshbandiya, kubraviya, yassaviya kabi tarikatlari ma'lum va mashxurdir.

X-XIII asrlarda Markaziy Osiyo va Eronga arab xalifaligidan mu'tazila va kalom falsafasi kirib keldi. Xorazmlik Abu Mudar Abulqosim Zamaxshariy, Imom Tojiddin Shaxaristoniylar mutazila ta'limotining ratsionalistik jihatlarini targ'ib qildilar. Masalan, Zamaxshariyning fikricha, aqliy bilimlar va mantiqiy dalillar ko'r-ko'rona e'tiqoddan ustindir. Shaxaristoniylar falsafa ratsionalizmga, mantiq tamoyillariga rioya qilishi tufayli dindan tafovut qiladi, degan.

Islom ilohiyot falsafasi – **kalomning** yuzaga kelishi vatandoshimiz **Abu Mansur al-Moturidiy as-Samarqandiy** (853-944) nomi bilan bog'liq. Kalom targ'ibotchilarini mutakallimlar deyilgan. Moturidiyning bosh asari «Kitob-ut-tavxid»da shunday deyiladi: «Inson o'z xatti-harakatlarida yaxshilik va yomonlikni faqlovchi aqlga ega. Bizning ollox to'g'risidagi bilimlarimiz ham aqldandir». Inson o'z xatti-harakatlarini soxibi ixtiyoridir, ya'ni erkin iroda soxibidir.

Kalom falsafasining yana bir zabardast vakili **Abdulhamid Muxaddam al-G'azzoliy** (1059-1111) «Minxoj-ul-obidiyn» asarida ilmning zarurligi va vazifalari xaqida shunday yozgan: «Ilm quydagi muloxazalarga ko'ra ibodatdan ilgari turishi kerak : din buyurgan ibodatlarni saxib bajarish uchun mazkur arkonlarni chuqur bilish, ularni qanday bajarish va kimga bag'ishlashni yaxni bilish kerak bo'ladi. Bo'lmasa o'zining kim yoki nima ekanligini bilmagan narsaga qanday ibodat qilasan? Bunday ibodatning sanamlarga yoki butlarga qilingan ibodatdan nima farqi bor?» Alloma fikricha, ilm

ollox taolo oldida xaqiqiy qo'rquvni tug'dira olishi va ayni paytda najotga umidbaxsh etishi tufayli foydalidir. Ollox ilm tufayli bilinadi va ulug'lanadi. Shunday qilib, kalom islom aqidalari, shariat talab va ta'qiqlariga ko'r-ko'rona e'tqod qilishni emas, har qanday bilimni, xaqiqatni mantiqiy dalillap asosini targib qiladi

VIII-XIII asrlarda tabiatshunoslik fanlarida erishilgan yutuqlar va kashfiyotlar falsafiy jixatdan umumlashtirishni, baxolashni taqozo etar edi. Tabiiy-ilmiy qarashlardan umumiy xulosa chiqarish jarayonida borg'liq, substantsiya, materiya, harakat, vaqt, fazo, jon, rux, ong, tafakkur kabi falsafiy tushunchalar mazmuni to'ldirib borilgan. Xind, xitoy yunon falsafasidan eng nodir asarlarning arab tiliga tarjima qilinganligi va sharxlab berilganligi ham falsafiy tafakkurning rivojlanishiga turtki bergan. Mashshoiyyun (Aristotel falsafasini ijodiy riv ojlantirish) va tabiiyyun (tabiatshunoslik falsafasi) ning asosiy qoida va xulosalari o'zaro uyg'unlashib borgan.

Mashshoiyyun yo'nalishidagi, ya'ni Aristotelning sharqdagi izdoshlari bo'lgan mutafakkirlar qatoriga birinchi navbatda Forobiy va Ibn Sino mansubdir. **Abu Nasr Forobiy** (873 – 950) bejiz «Sharq Aristoleli», «Ikkinchi ustoz» degan nomlarga loyiq topilmagan. Forobiy 160 dan ortiq tabiiy-ilmiy va falsafiy asarlar hamda Aristotel asarlariga yozilgan sharxlar muallifidir. Forobiy Aristotel izidan borib, ikki turdagi borliq xaqida yozadi: «vujudi vojib» (ollox) va «vujudi mumkin» (barcha moddiy va ruxiy narsalar). Ular biri-ikkinchisi bilan sabab-oqibat bog'lanishidadir. Ollox – sabab, olam uning oqibatidir.

Olamning mohiyati, Forobiy fikricha, sifat, miqdor, javxar (muxim xossa), aktsidentsiya (muxim bo'lmagan xossa), imkoniyat, zaruriyat, tasodifiyat, makon, zamon, harakat, rivojlanish kabi tushunchalar orqali ochiladi. Borliq, o'simlik, minerallar, fazoviy jismlar, aqilli mavjudotlar (insonlar), aqlsiz jonivorlar shakliga ega. Jamiki narsalar to'rt unsur – suv, olov, xavo va tuproqdan iboratdir.

Forobiy olamni bilish aql va sezgilarga tayanadi, deb hisoblagan. Bilishda aql va mantiqiy tafakkurning urni beqiyosdir. Bilish tufayli aql-tafakkur vositasida ilm-fan yaratiladi. Fan xodisaning moxiyatini ochadi. U inson va jamiyat extiyojini qondirishga xizmat qiladi.

Forobiy jamiyatga qarashlarda bir qator ilg'or g'oyalarni ilgari surgan. Komil inson, fozil fuqaro odil xukmdor xaqidagi fikrlar, baxt-saodatga dunyoviy tarbiya va ma'rifat orqali erishilishi xaqidagi xulosalar ana shular jumlasidandir.

Abu Rayxon Beruniy (973-1048) tabiiyyun falsafasi namoyondalaridan bo'lib, bizgacha uning jismlarni tortishuvi, quyosh va oyning tutilishi, zarra, inertsiya va sun'iy tanlanish, rivojlanish, geotektonika, er evolyutsiyasiga oid 28 ta asari etib kelgan. Alloma

ulardan tegishli falsafiy xulosalar chiqargan. Jumladan modda, makon va zamon, qonuniyat, zaruriyat, tasodifiyat, harakat va rivojlanish kabi tushunchalarga murojaat qilgan.

Beruniy olamni bilish mumkinligi g'oyasini qat'iy yoqlab chiqqan. Bilish sezgilar bergan ma'lumotlardan boshlanadi. Sezgi aqliy bilish uchun xom ashyo vazifasini o'taydi. Bilimlarimiz chinligi yoki yanglishuv ekanligi tajribada aniqlanadi. Tajriba narsa-xodisalarning muxim xususiyatlari va tomonlarini, miqdoriy va sifatiy jihatlarini, mohiyatini ochib beradi.

Beruniyning fikricha, insonning shakllanishi – evolyutsion jarayon, ayni vaqtda komil inson maqomiga erishish shaxsning o'z qo'lida, u o'z ma'naviy olamini takomillashtirish va o'zgartirish imkoniyatiga ega. Jamiyat tabiat singari tadriijiy (evolyutsion tarzda) o'zgaradi, xukmdorlarning burchi- adolat o'rnatish, fuqarolarga g'amxo'rlik qilish, jamiyatni aql va adolat qonunlari asosida boshqarishdan iboratdir

Mashshoiyyun falsafasining yana bir namoyondasi – **Abu Ali Ibn Sino** (980-1037) Buxoro yaqinidagi Afshona qishlogida tavallud topgan va Hamadon shaxrida vafot etgan. Falsafa, mantiq, psixologiya, musiqa, farmakologiya, tibbiyotga oid 280 dan ziyod asarlar yozgan. Ularning eng mashxurlari «Kitob-ash-shifo», «Tib qonunlari», «Bilimlar kitobi»dir.

Aristotelning dualistik falsafasini ijodiy davom ettirib, Ibn Sino borliqni «Vujudi vojib» va «Vujudi mumkin»ga ajratadi. Birinchi sabab bu «Vujudi vojib»dir. «Vujudi mumkin», ya'ni narsa-xodisalar uning oqibatidir. Ibn Sino yondoshuvining o'ziga xosligi shundaki, uning fikricha, «Vujudi vojib», ya'ni yaratuvchi ollox mangu abadiy bo'lganligidan, undan yaralmish «Vujudi mumkin» ham abadiydir. Ibn Sino xudoni «birinchi sabab» deb ataydi. Bu bilan kifoyalanib qolmasdan, alloma sababning boshqa turlarini o'z ichiga olgan sababiyat tamoyilini ishlab chiqadi. Bu muayyan xolatni keltirib chiqaruvchi moddiy sabab, muayyan xolatni o'zgartiruvchi faol sabab, turli xil quvvatlar bilan bog'langan shakliy sabab, barcha sabablarning pirovard maqsadi bo'lgan tugallovchi sabablardan iboratdir.

Ibn Sino Abu Bakr ar-Roziy va Beruniy singari allomalarning tabiiy – ilmiy izlanishlarini davom ettirib, bilishda kuzatish va tajribaga aloxida o'rin ajratdi. Ayniqsa, tabobat sohasida kuzatishning ahamiyati beqiyosdir. Mutafakkir jamiyatni «sog'lomlashtirish»ga ham alohida e'tibor qaratgan. Ibn Sino ilm bilan odob-axloqning uyg'unligi, inson kamoloti, baxt-saodatga erishish yo'llari, ijtimoiy adolat, hamkorlikning ahamiyati, xukmdorlarning burchlari to'g'risida teran fikrlar bildirgan. Mutafakkir jamiyat ijtimoiy jixatdan bir xilda bo'la olmasligini, ijtimoiy

tabaqalanish, boy va qambag'allarga bo'linish tabiiy xol ekanligini asoslashga harakat qiladi. Nochorlar to'g'risida g'amxo'rlik, mexr-saxovatli, muruvvatli bo'lish jamiyatni tanazzul va xalokatdan saqlaydi, deb hisoblagan.

Shunday qilib, ilk o'rta asrlarda sharq mamlakatlarida tarqalgan tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlar, yangi yo'nalishlar musulmon sharqi, qolaversa, butun jaxon falsafiy tafakkurining rivojlanishida muxim bosqich bo'ldi.

IV. Amir Temur va temuriylar davri falsafiy ta'limotlari. XIV – XVI asrlar tarixga Temur va temuriylar davri nomi bilan kirgan. Amir Temur, uning avlodlari – Shoxrux, Umar Shayx Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bobur xukmronligi iqtisodiy, harbiy – siyosiy barqarorlik, ilm-fan, madaniyat, davlatchilik, idora usullarida yuksalishni ta'minladi, falsafa sohasida ham rivojlanish yuz berdi. Jumladan, tasavvuf falsafasi keng tarqaldi.

Amir Temur saltanatidagi illatlarga, janjal va nizolarga barham berishda, xaqiqat, adolat va insonparvarlikni ustuvor etishda tasavvufdan keng va unumli foydalanilgan. Soxibqiron sufiylikning zinodan, faxshdan, haromdan qochish, halol mehnat, kasb-xunar egallash, muxtojlariga mexr shavqat kabi tasavvuf g'oyalarini xalqqa singdirishga harakat qilgan. Naqshbandiylik tariqatining yirik shayxlari Sayyid Amir Ko'lol, Shayx Abu Bakr Taybodiy, Mir Sayyid Baraka kabilar Amir Temurga pirlik qildilar, soxibqiron ulardan tez-tez maslaxatlar olib turgan. Temuriylar Shoxrux, Ulug'bek, Xusayn Boyqaro, Bobur Mirzolar davlat, din va ma'rifat masalalarida soxibqironning an'analari davom ettirganlar.

Ushbu davr allomalaridan **Sa'diddin Taftazoniy** (1322-1392) Niso viloyatiga qarashli Taftazon qishlog'ida dunyoga kelgan. Ilohiyot, mantiq, falsafa, til va nutq madaniyatiga oid 40 dan ziyod asar muallifi sanaladi. U sabab va oqibat, iroda erkinligi, bilish, ong, mantiq borasida ko'plab teran fikrlar bildirgan, Tabiatda sabab-oqibat munosabatlari amal qiladi, -degan edi Taftazoniy - binobarin, har qanday ezgu ish bosh sabab - xudoning moxiyatidan kelib chiqadi». Yaratguvchi insonlarni yomon xatti-harakatlardan saqlaydi, xayrli ishlarga da'vat etadi, ayni vaqtda iroda erkinligi ham mavjuddir.

Ushbu davr falsafa va mantiq ilmi rivojiga **Mir Said Sharif Jurjoni** ham salmoqli xissa qo'shgan. U Asirobodga yaqin qishloqda dunyoga kelgan, Istambo'l, Koxira, Xiro, Sherozda ilm o'rgangan. Alloma falsafa, mantiq, fikr, falakiyot, adabiyotga oid 50 dan ziyod risola bitgan. «Ta'rifot», «Munozara odobi», «Borliq xaqida risola», «Mantiqda o'rta xulosa» asarlarida borliq, modda va uning shakllari,

jismoniy va ruhiy munosabatlar, mantiqiy fikrlash, til va tafakkurning o'zaro aloqasi, koinot, inson, aql va bilish metodlari masalalarini chuqur taxlil qilgan. Jurjoniylar xuddi Taftazoniy kabi narsa – xodisalar o'zaro sabab-oqibat aloqadorligidadir, deb hisoblagan. Oddiy narsalar to'rtinchi unsur, ya'ni suv, olov, xavf, tuproqdan xosil bo'lgandir, o'simliklar va hayvonot dunyosi ularning qorishuvidan barpo bo'lgandir.

Jurjoniylar atoqli mantiqshunos hamdir. U xulosaning uch turi: qiyos (sillogizm), induksiya va analogiyaga ta'rif beradi, mantiqni xuquq va til bilan yondosh fan sifatida taxlil qiladi.

Abduraxmon Jomiy (1414 - 1492) falsafiy qarashlarini «Bahoriston», «Xaj qilish yo'llari xaqida», «Voxid atamasi haqida» risolalarida bayon etgan. Uning fikricha, xudo abadiy, mutloq. U mavjud bo'lgan vaqtda xali borliq yo'q edi, dunyo o'z boshlanishini olloxdan olgan. Jomiy buyuk shoir sifatida o'z falsafiy qarashlarida insonparvarlik g'oyalari tarannum etdi, tasavvufning naqshbandiya tariqatini nazariy va amaliy jihatdan asoslash va rivojlantirishga harakat qildi. Sufiylar, mutafakkir fikricha, xalol va pok yashash, kasb-xunar bilan tirikchilik qilish, qanoatli va olijanob bo'lish, ta'magirlikdan o'zoqroq yurish, nafsni jilovlash demakdir. Tasavvufona she'riy satrlarda u xudoni «go'zal ma'shuka» deb ta'riflaydi, sufiylar e'tiqodidagi insonning oliy maqsadi xudoning vasliga etishdir, deydi.

Jomiyning ijtimoiy qarashlarida odil jamiyat, adolatli shox, tenglik, erkinlik, insof va diyonat, kishilar o'rtasidagi o'zaro yordam, mexr-shafkat, do'stlik va birodalik xaqida orzu qiladi.

Temuriylar allomalaridan buyuk shoir va mutafakkir **Alisher Navoiy** (1441-1501)ning fozil jamoa va komil inson xaqidagi badiiy vositalar, majoziy obrazlar, o'xshatmalar, ramzlarga uralgan fikrlari bilan ma'lum va mashxurdir. Shoir dostonlarining qaxramonlari Iskandar, Farhod, Shirin, Layli, Majnunlar komil insonlardir. Ular mexnatsevar, o'z kasbining ustasi, aqlli, bilimdon, saxovatpesha, sofdil, kamtar insonlar. A. Navoiyning ideal jamiyat va odil podsho, farovon turmush va baxt-saodatga eltuvchi, zulm-istibdoddan xoli davlat xaqidagi g'oyalari xali ham o'z jozibasi va ahamiyatini yo'qotmagan.

Xirotlik **Kamoliddin Xusayn Voiz Koshifiy** (1440/1450 - 1505) axloq falsafasiga oid «Axloqi muxsinii», «Futuvvatnomai sultoniyy», «Anvari Suxayli», «Maxzan – ul – insho», «Risoi xotamiya» kabi asarlarida go'zal xulq – odob, davlatni boshqarish, ilm-fan va kasb-xunar egallashning, ta'lim-tarbiyaning qimmatini masalalarini ishlab chiqdi. Jamiyatga qarashlarda, sharq mutafakkirlari an'analarini davom ettirib, odil podsho, xalqqa g'amxo'rlik, xaqsizlik va o'zboshimchalikka muvohiq xukmdor xaqida fikr yuritdi.

Temuriylar avlodidan **Zaxiriddin Muhammad Bobur** (1483 - 1530) Xindistonda «Buyuk mo'g'ullar» saltanatiga asos solgan shox, badiiy, falsafiy fikr rivojiga salmoqli hissa qo'shgan mutafakkirdir. Uning devonlari, «Boburnoma» asari, shariyat asoslari to'g'risidagi «Mubayyan» risolasi, falsafiy ruxdagi ruboiylari mashxur. Boburning ijtimoiy – falsafiy qarashlari insonparvarlik g'oyalariga asoslangan.

Vatanni sevish, boshqa xalqlar, millatlar, e'tiqodlarga bag'rikenglik, xurmat bilan munosabatda bo'lish, aziz – avliyolar oldida o'zini xoksor tutish, shijoatlilik, mardlik, xayr ishlar qilish – Bobur dunyoqarashining asosiy xususiyatlari ana shulardan iboratdir. U farzandi Xumoyunga yozib qoldirgan «Vasiyatnoma»sida: «Xech bir qavmning ma'budini buzmagil, barcha mazhab kishilar bilan, shox va ra'iyat orasidagi rishtaning do'stona bo'lmog'i uchun har bir xolatda insofga rioyat qilguvchi bo'lgil. Shunday bo'lsa, mamlakatda o'zaro ishonch va omonliklar barqaror bo'lgay», deydi.

Bobur tariqat va din peshvolarini davlat ishlariga aralashtirmagan, ammo Axmad Yassaviyga buyuk xurmat ko'rsatgan, naqshbandiya tariqati vakillari Xoja Axror Valiy, uning muridi Mavlono Qozi, Said Axmad Kosoniylar etagini tutgan, ularni iqtisodiy va ma'naviy qo'llab turgan. Xullas, Temur va temuriylar davri falsafiy, ijtimoiy – axloqiy fikr taraqqiyotida o'ziga xos «Uyg'onish davri» bo'ldi, deyish mumkin.

V. Turkistonda XVI asr oxiri – XX asr boshlaridagi falsafiy fikrlar.

Temuriylardan sung, XVI asrdan boshlab, Movarounnahrda o'zaro urushlar avjga mindi, markazlashgan davlat, shu jumladan, Shayboniylar davlati ham inqirozga uchradi. Bu iqtisodiyotda, u bilan birga dunyoviy ilmlar, falsafiy fikrlar rifojida ham o'z aksini topdi. Shunga qaramay, falsafiy tafakkur rivoji tuxtab qolmadi. **Yusuf Korabog'iy** (1563 - 1647) asli ozarbayjonlik bo'lib, faylasuf sifatida Buxoroda kamolga etdi. Uning falsafa, mantiq, fikx ilmiga oid «Risolai botiniya», «Risolai xilvatiya», «Ilm ta'rifi» asarlari yaxshi ma'lum. Korabog'iyning fikricha, olam o'zviy qismlari chambarchas bog'langan yagona jismdir. Narsalar bir-biri bilan sabab-oqibat zanjiri orqali bog'langan. Olam to'rt unsurdan to'zilgan va muttasil harakat, o'zgarishdadir.

Ushbu tarixiy davrda **Boboraxim Mashrab** (1640 – 1711) diniy tasavvufiy qarashlarni targ'ib qildi. Asli namanganlik bo'lgan bu sufiy shoirning gazal va ruboiylarida ilohiy muxabbat, ya'ni olloxga muxabbat kuylanadi. U qalandarlik tariqati orqali xalqni ezgulik, insof va diyonatga chaqirgan, islom aqidalarini rad etmagan xolda ba'zi aqidalarning muqaddasligiga shubxa bildirgan, ro'za, jannat, do'zax, namoz, makka, ka'ba xususida erkin fikrlar bildirgan.

Jamiyatga qarashlarida Mashrab insoniylik, pok muxabbat, do'stlik, vafodorlikni ulug'laydi, takabburlikka, yolg'onga, nasl-nasabga ishonmaslikni, e'tiqodni sotmaslikni uqtiradi, ota-onani xurmatlashga chaqiradi, xukmron tabaqalarni insof-adolat bilan ish ko'rishga da'vat etadi. Shu bilan birga Mashrab ijodida adolatga erishib bo'lmashligidan tushkunlik, umidsizlik kayfiyati ham namoyon bo'ladi.

Mirzo Abdulqodir Bedil (1644 - 1721) Xindistonda yashab, ijod etgan buyuk turkiy shoir. Uning «Chor unsur», «Irfon» nomli asarlari chuqur falsafiy mazmunga ega. Bedil xudoni olamning o'zida deb talqin etuvchi «Vaxdati - mavjud» oqimiga mansub. U tabiatning abadiyligini, materiya bilan ruxning birligini tan olgan xolda hamma narsaning asosida xudo yotadi, deb hisoblagan. Bedil fikricha, moddiy olamning asosi xavodir. U abadiy, o'zgaruvchan, rangsiz va engildir. U yuqori va quyi tomonlarga harakatlanadi. Rux moddiy dunyodan tashqarida emas, u tabiatdan kelib chiqadi, xavoning o'zidan tabiiy rux, o'simliklar ruxi, inson ruxi va xayvoniy rux xosil bo'ladi. Bilish, Bedil fikricha, xis – tuyg'ulardan boshlanadi. Olamni to'g'ri aks ettirishda tafakkurning roli nixoyatda katta. Jamiyatga qarashlarda Bedil inson, davlatning kelib chiqishi, davlatni boshqarish, dexqonchilik va uning jamiyat xayotidagi ahamiyati xususida fikr yuritadi. Insonlar irqi, dini, millatidan qa'tiy nazar xurmat-extiromga munosibdirlar deydi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonni rus chorizmi istilo etdi. Mustamlakachilar bilan birga o'lkaga Evropa va rus madaniyati kiritib kela boshladi. Yangi ta'lim-tarbiya muassasalari, jadidchilik harakati yo'zaga keldi. **Ahmad Donish** (1827 - 1897), **Berdah** (1827 - 1900), **Furqat** (1859 - 1909), **Muqimiy** (1850 - 1903), **Zavqiy** (1853 - 1921), **Anbar Otin** (1870 - 1914), **Hamza** (1889 - 1929) kabi ma'rifatparvarlar etishib chiqdilar. Ular mamlakatni odilona boshqarish uchun isloxot zarurligi, xalq manfaati, boshqaruvchilarning bilimdon, aqlli bo'lishi, o'z atrofidaqilar bilan kelishib davlatni idora qilishi, illatlarga nisbatan murosasiz bo'lish g'oyalari bilan chiqdilar. Ular maktab va maorif ishlarida faol qatnashib, ma'rifat, bilim egallash, baxtli va farovon xayotga intilish g'oyalarini ijtimoiy-falsafiy jixatdan asoslashga urindilar.

Ma'rifatchilik harakati jadidchilikning vujudga kelishida muxim o'rin tutadi. Jadidlar Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot, xalq manfaatlari uchun kurashdilar. Milliy – ozodlik harakati va milliy burjuaziyaning vujudga kelishi bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketdi. Munavvar Qori, Avloniy, Bexbudiy, Fitrat, Chulpon singari jadidlarning faoliyati g'oyat samarali bo'ldi. Ularning ko'plab adabiy-badiiy asarlarida millat va Vatan taqdiri, Turkiston xalqlarini asriy

qoloqlikdan qutqarish, xalqning o'zligini tanishi, yaxshi axloq va odob qoidalarini singdirish, mamlakatni xom ashyo qaramligidan xalos etish, ma'rifat va ma'naviyatni yuksaltirish masalalari ijtimoiy – falsafiy nuqtai – nazardan taxlil etilgan va muxim umumlashmalar chiqarilgan.

O'zbekistonning mustaqillikni qo'lga kiritishi, sharq, jumladan o'zbek xalqi falsafiy merosini xolisona va xaqqoniy ilmiy tadqiq etish uchun imkoniyat yaratdi. Ushbu meros qudratli ma'naviy nazariy vosita sifatida mustaqillik qadriyatini mustaxkamlashga xizmat qilmog'i kerak.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Veda, astika, nastika, dao, tsi, zardushtiylik, buddaviylik, mazdak, moniylik, islom falsafasi, islomiy maxzablar, tasavvuf, tasavvuf tarikatlari, Navoiy, komil inson, Bobur, ma'rifatparvarlik, jadidchilik, jadidlar falsafasi.

TAKRORLAR UCHUN SAVOLLAR:

1. Qadimgi Xindistondagi veda falsafiy maktablari qanday ta'limotlarni ilgari surgan?
2. Konfutsiy qanday g'oyalarni targ'ib qilgan?
3. «Avesto» qaysi diniy falsafaning muqaddas kitobi hisoblangan?
4. Moniylik va mazdakizm zardushtiylik bilan qanday bog'langan?
5. O'rta asrlar arab falsafasi haqida so'zlab bering.
6. Markaziy Osiyo «Uyg'onish davri» qaysi mutafakkirlar nomi bilan bog'liq?
7. Temuriylar davri mutafakkirlari ko'proq falsafaning qay sohalari bilan shugullanishgan?
8. Movarounnahrda XVII-XVIII asrlarda yashab, ijod etgan faylasuflar xaqida qisqacha so'zlab bering.
9. XIX asrda Turkiston ma'rifatparvarligining yirik vakillari kimlar?
10. Jadidlar va jadid falsafasi xaqida nimalar bilasiz?

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. – T, Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.- T., 1998.
3. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. – «Fidokor» gazetasi, 2000, 8 iyun.
4. Mo'minov I.M. O'zbekistonda tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavxalar. – T., Fan 1998.
5. Falsafa. O'quv qo'llanma. E.Yu.Yusupov taxriri ostida. - T., 1999.

6. Filosafiya . Pod red. M.Abdullayeva. – Fergana, 2000.
7. Qahhorov M.A. Falsafa asoslari. – Qo'qon, 1998.
8. Yo'ldoshev S. Antik falsafa. – T., 1999.

3-MAVZU

G'ARB FALSAFASI

1. Qadimgi Yunoniston jaxon falsafiy tafakkurining ilk markazlaridan biridir.

Qadimgi yunon falsafasi er. av. VI asrda, quldorlik jamiyati gullab-yashnagan dastlabki shaxar-davlatlarda paydo bo'ldi. Falsafa bu o'lkada savdo va sanoat rivoj topib, tabiat to'g'risidagi bilimlarga

extiyoj tug'ilgan vaqtda borliqni idrok etishdagi yangi dunyoqarash sifatida vujudga keldi.

Dastlabki yunon falsafiy maktablari kichik Osiyodagi Ioniya orolida joylashgan **Milet** shaxrida shakllandi. **Milet falsafiy maktabi** vakillari Fales, uning shogirdlari Anaksimandr va Anaksimenes substantsiya, ya'ni borliqning asosini tashkil etuvchi mohiyat haqidagi ilk sodda ta'limotlarni ishlab chiqqanlar. Fales ta'limotida suv, Anaksimandr ta'limotida muayyan mavxum modda bo'lmish «apeyron», Anaksimenes ta'limotida xavf ana shunday moddiy substantsiya deb talqin qilinadi. Demak, Milet maktabi falsafasi materializmdan iborat bo'lib, moddiy borliq – materiya mavjudligini va abadiyligini e'tirof etadi.

Kichik Osiyoning Efes shaxrida yashagan **Geraklit** (er.av.530-470) ham materialist faylasuf edi. Uning fikricha, barcha narsa va xodisalarning mavjudligi, cheksiz-chegarasizligi, turli-tumanligi va abadiyligining sababi moddiy xodisa bo'lmish olovdir. Olov xamma narsa va jarayonlarning, mangu xarakat va o'zgarishlarning moddiy negizi, boshlangichi xisoblanadi. Dunyo mangu alangalanib turadigan olovdan iborat. Geraklit olov misolida dastlabki sodda dialektik g'oyalarni ilgari surgan. Uning fikricha, olamda o'zgarmas narsaning o'zi yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Narsalar xamma vaqt xarakatlanib, o'sib, o'zgarib, bir turdan ikkinchi turga «oqib» o'tib turadi. Bu jarayonni Geraklit **«dialektika»** termini bilan nomlagan. Dialektik jarayonning mohiyatini u daryo oqimi misolida tushuntirib shunday degan: «Oqib to'rgan daryoga ikki bor tushib bo'lmaydi». Nega? Chunki oqim biror daqiqa to'xtamasligi sababli suvga ikkinchi bor tushilganda oldingi suvlar allaqachon oqib ketgan, o'zandagi suv yangilangan bo'ladi. Demak, borliq ham xuddi daryo singari mangu xarakat va o'zgarishdadir, deb xulosalaydi mutafakkir. Geraklitning fikricha, narsa-xodisa xarakati, o'zgarishining manbai tashqarida emas, narsaning o'zida, uning ichki qarama – qarshiliklari kurashidadir. Shuning uchun ham mangu xarakatdagi narsa – xodisalarning birortasini takrorlanmaydi. «kurash xamma narsaning otasi, xamma narsaning podshosidir», deydi Geraklit.

Borliq doimiy o'zgarishda ekan, binobarin, mutloq narsaning o'zi yo'q demak, hamma narsa nisbiydir. Narsaning xossa va sifatleri ham nisbiy, chunki ular bir-birlarini taqqoslaganda yuzaga chiqadi. Geraklit zukkolik bilan qayd etgan olamiy xarakat va nisbiylik, qarama qarshiliklar birligi va kurashi haqidagi sodda dialektik fikrlar falsafiy tafakkurning keyingi rivojiga kuchli turtki berdi.

Qadimgi yunon faylasuflari **Demokrit** va **Levkip** borliqning tuzilishi va substantsiya xaqidagi **atomistik ta'limotga** asos soldilar. Atom bundan keyin bo'linmas eng mayda zarrachadir. Olam, mazkur mutafakkirlar fikricha, atomlar va bo'shliqdan tashkil topgan. Jismlar atomlarning turlicha nisbati birikishidan vujudga keladi, ular parchalanganda jism xalokatga uchraydi. Atomlar miqdor jihatidan bexisob, sifat jihatidan bir xildir. Xarakat atomlardan iborat moddaning abadiy tabiiy xolatidir. U zaruriy qonuniyat buyicha amalga oshadi, tasodifiyatning bo'lishi aslo mumkin emas. «Na tabiatda, na jamiyatda xech bir narsa tasodifan paydo bo'lmaydi» - deb yozadi Demokrit. Bu bilan mutafakkir sababiyat, yani butun borliq sabab – oqibat zanjiridan iboratdir, degan tamoyilga asos solgan. Falsafada bu **determinizm** tamoyili deb yuritiladi.

Demokrit atomistik va deterministik qarashlarni kosmoginik, ya'ni samoviy jismlarning kelib chiqishi va rivojlanishi xaqidagi nazariyaga tadbiq etgan. Atomlar fazodagi tartibsiz xarakat jarayonida, bir tomondan, o'zaro to'qnashib, birikadilar, yoki parchalanib, xalok bo'ladilar. Biri – ikkinchisi bilan birikishidan, tuproq, suv, xavo, olov yuzaga keladi, ularning qyun shaklida xarakatlanuvchi ko'plab boshqa osmon jismlari, samoviy olamlar paydo bo'ladi, deydi Demokrit.

Demokrit xatto inson ongi xam nafis atomlardan tuzilgan, deb xisoblagan. Ongda moddiy olam aks etadi, binobarin, faylasuf fikricha, sezgilar, tasavvurlar, bilimlar tashqi olamning inson ongidagi in'ikosidir.

Demokritning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy falsafasi xam diqqatga molik. Uning fikricha, yaxshi boshqarilayotgan davlat – buyuk qo'rg'ondir. Davlat manfaatlari qolgan barcha manfaatlardan ustun bo'lmog'i kerak.

Demokritning atomistik ta'limoti ko'plab izdoshlari tomonidan rivojlantirilgan. Masalan, **Epikur** (Er. av. 341 - 270)ning fikricha, moddiy olam cheksiz, borliq jismlar va bo'shliqdan iborat. Demokritga qo'shimcha qilib, Epikur jismlarni ikki guruxga bo'ladi: jismlarni tashkil etuvchi atomlar va atomlar birlashishidan tashkil topgan jismlar. Xarakat atomlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan yuzaga keladi. Epikur **gedonizm** ta'limoti tarafdori sifatida xayotdan lazzatlanish g'oyasini ilgari surgan, biroq an'aviy gedonistlardan farqli ularoq, shoxona maishat, kayfu – safoni emas, balki jismoniy uqubatlar xamda ruxiy tashvishlardan xalos bo'lishni, ozodlikni ulug'lagan. Uning fikricha, davlat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida tuzilishi maqbuldir. Epikurning ushbu ijtimoiy keliqhv g'oyasi keyinchalik ko'plab mutafakkirlar tomonidan qabul qilingan,

ayniqsa, XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlari xamda XX asr faylasuflari bu g'oyani ijodiy riv o'jlantirishga salmoqli xissa qo'shdilar.

Epikurning izdoshlaridan rimlik faylasuf **Lukretsiy Tit Kar** (er.av. 99 - 55) «Narsalarning tabiati» nomli asarida materiyaning muxim xossasi – bir xolatdan boshqa xolatga o'tish, materiya o'zgaruvchan va ayni vaqtda abadiydir, degan. Lukretsiyning fikricha, xarakatning uch shakli mavjud: I. To'g'ri chizikli xarakat. II. Ogish buylab xarakat. III. Turtki asosidagi xarakat.

Ijtimoiy falsafa borasida fikr yuritib, Lukretsiy yashashdan maqsad baxtli xayot kechirishdir, degan. Jamiyat, xuddi tabiat singari, o'z qonunlariga ega. U mazkur umumiy qonunlar bo'yicha, ayni vaqtda tabiat qonunlariga moslashib riv o'jlanadi.

Qadimgi Yunoniston va Rimda materializm bilan bir qatorda ma'naviy-ruxiy, g'oyaviy substantsiyani e'tirof etuvchi idealistik ta'limotlar xam shakllandi. **Pifagor** (er.av. 580 - 500) ta'limoti ana shunday ta'limotlardan biri bo'lib, uning fikricha, substantsiya – bu modda xam, tabiat xam emas, balki iloxiy raqamdir. Narsalar raqamlanadi va raqamdan kelib chiqadi. Xamma narsa «1» rakamidan boshlanadi, demak, «1»raqami iloxiy ibtidodir, deydi Pifagor. Mutafakkir miqdor kategoriyasini ishlab chiqishga salmoqli xissa qo'shgan. U o'ziga mansub bo'lgan zodagonlar toifasining manfaatlarini yoqlab, aristokratik tartiblarni, quldorlikni ximoya qilgan, demokratiya, ya'ni ko'pchilikning xokimiyati tartibni buzadi, deb xisoblagan.

Qadimgi yunon idealistik maktablari orasida **sofistlar** aloxida o'rin tutadi. Sofistlar er.av. V asrda Afinada paydo bo'lishib, quldorlik demokratiyasini qo'llab-quvvatlaganlar va aristokratiyaga qarshi kurashganlar. Bilish nazariyasi soxasida fikr yuritib, til va tafakkurning birligi masalasiga e'tibor qaratganlar. «Sofistes» yunonchadan tarjimada «dono», «donishmand», «ma'rifatparvan» degan ma'no beradi. Sofistlarning yirik vakili **Protagor** (er.av. 481 - 411) «Xudolar haqida» nomli kitobida moddiy dunyo xarakatdagi materiyaadir, inson uni sezgi a'zolari, xis-tuygular orqali biladi, degan. Biroq dunda hamma narsa nisbiydir. Asal soglom kishiga lazzatli, kasalga esa achchiq tuyuladi. Protagorning «Odam – xamma narsaning ulchovi», «borlari – bor, yo'qlari - yo'q» kabi fikrlari xam sub'ektiv – idealistik ma'no-mazmunga egadir.

Sokrat (sharqda uni Suqroti Xakim xam deyishadi) avvaliga Anaksagordan, sungra sofistlardan ta'lim olgan. Uning ta'limoti ogzaki nutqlarida mujassamlashgan, yozma asarlari bo'lmagan. Sokrat ko'proq axloq falsafasi bilan shugullangan. Uning fikricha, tabiatni o'rganishga asoslangan «Demokrit yo'li» befoydadir.

«Yaxshisi o'zingni bil, o'zingni o'rgan, - deydi Sokrat, Xudo bor, olamni xudo yaratgan, benixoya cheksiz va mukammal, tartibli dunyo olamiy aql bo'lmasa shu xolga kelarmidi ?!»). Sokrat suxbatdoshini savol berish bilan mantiqan engish usuli bo'lgan mayyov tikani ishlab chiqqan. Bu usul pirovardida raqibni « Men hech narsani bilmasligimni bildim» deb tan olishga majbur qilar edi.

Sokratning shogirdi **Platon** (er.av.427-347) «Sofist», «Fedon», «Parmenid», «Teetet», «Davlat» nomli asarlari bilan mashxur. Sharqda Aflotun nomi bilan shuxrat qozongan. Platon «G'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi» xaqidagi ta'limot bilan ob'ektiv idealizm falsafasini ilgari surgan. Uning fikricha, narsalar va g'oyalar dunyosi mavjuddir. Buyumlar – o'tkinchi, muvqqat, g'oyalar esa haqiqiy, o'zgarmas. Narsalar g'oyalarning ko'lankasi, soyasidan boshqa narsa emas. Platon bu fikrini quydagicha izoxlaydi: qorong'u g'orda kishanlangan maxkumlar yotishibdi. Ular xech qaysi tomonga burila olmaydilar. Shu alfozda g'orning yorug'lik tushib to'rgan kichik bir tuynugidan narsalar bilan o'tayotgan kishilarning ko'lankasinigina kuzatadilar. Ammo ko'rinayotganlar kim, ularning qo'lida nimalar bor? – buni bila olmaydilar. Shunga o'xshab narsalar abadiy go'zal moxiyatlarning bor-yug'i g'or devoridagi kabi ko'lankasidir. Xaqiqiy o'zgarish va xarakat g'oyalargagina xos bo'lib, narsalarning xarakati, o'zgarishlari g'oyalar xarakatidan xosiladir. Xaqqoniy moxiyat xisoblanmish g'oyalarni bilish xammaga xam nasib etavermaydi.

Mutafakkirning bilish nazariyasi ham o'ziga xoslikka ega. Platonning fikricha, jon tanadan mustaqil, iloxiy va o'lmas moxiyatdir. Jon g'oyalar dunyosiga yaqin turadi, shuning uchun jon ushbu pok dunyodan ta'sirlanib, xuzur qiladi, vaqti – vaqti bilan inson tanasiga kirib, g'oyalar dunyosida ko'rgan – kechirganlarini xotirlay boshlaydi. Shu asosda bilish yuzaga keladi. Demak, bilish, Platon fikricha, jonning eslashi, xotirlashidan iborat iloxiy jarayondir.

Platon o'z ta'limotida jamiyat va davlat masalalariga aloxida to'xtaladi. Uning fikricha, davlatda turt shakl mavjud: teokratiya, oligarxiya, demokratiya va tiraniya. Mutafakkir ideal davlat xaqida fikr yuritir ekan, bunda adolat g'oyasini ustun qo'yadi. Jamiyat uch tabaqa: xoqimlar (faylasuflar), xarbiylar va dehqon-hunarmandlardan tashkil topadi. Davlat xokimiiyati zodagon faylasuflar qo'lida bo'lishi, xarbiylar davlatni qo'riqlashi, dexqon va xunarmandlar esa davlat uchun zarur maxsulotlarni ishlab chiqarishlari lozim. Platon qullarga past nazar bilan qarab, ularni xatto inson qatoriga qo'shmaydi, ularni ma'naviy xayotdan maxrum, deb xisoblaydi. U quldorlar aristokratiyasi reapublikasini, xatto monarxiyani ideal davlat deb bilib, iloxiylashtirish darajasiga etadi.

Platon «Davlat» nomli asarida o'z tadqiqotlarida qo'llagan metodni «dialektika» deb atagan. Uning fikricha, «dialektika kishilarni savol – javob qilishga o'rgatadi». Demak, dialektika suxbatlashish, muloqot san'atidir. Uni nutqda maxorat bilan qo'llash ko'p foyda keltiradi. «Parmenid» nomli kitobida alloma tushuncha, umumiylik, konkretlik, ayniyat, qarama – qarshilik, ko'plik va yakkalik kabi falsafiy kategoriyalarni ta'riflab beradi. Axloqiy qarashlarida Platon adolatlilik tamoyillariga asosiy urg'u beradi. Adolatlilik, uning fikricha, uch xislatga – donolik, botirlik va oqilona ish tutishga asoslanadi.

Platonning shogirdi, stagiralik Aristotel (er.av.348- 322) bir necha yil Makedoniya podshosi Filipp II ning o'gli – bo'lg'usi jaxongir Aleksandr Makedonskiyga uztozlik qilgan. Uning «Fizika», «Metafizika», «Jon to'g'risida», «Kategoriya», «Analitika», «Topika», «Organon» singari asarlari shuxrat qozongan. Bu asarlarda mantiq, falsafa, psixologiya, axloq, notiqlik san'ati, tabiiy fanlar borasida teran fikrlar bildirilgan.

Aristotel Platonning abadiy g'oyalar, Pifagorning iloxiy raqamlar xaqidagi fikrlarini tanqid qilib chiqdi. Uning fikricha, narsa va ularning mohiyati boshqa-boshqa yashashi aslo aqlga to'g'ri kelmaydi. Narsaning mohiyati undan tashqari bo'la olmaydi, balki uning o'zidadir. Aristotel ta'riflab bergan sababiyat tamoyili 4 turdagi sababni e'tirof etadi: 1. Moddiy-sabab materiya. 2. Shakliy sabab-shakl. 3. Pirovard sabab 4. Yaratuvchi sabab. Yaratuvchi sabab – xarakat manbaidir. Masalan, ota – ona farzand ulg'ayishining sababi. Pirovard sabab (maqsad sabab) insonga xos, ammo Platon uni tabiat hodisalariga nisbatan ham tadbiq etish mumkin deb xisoblaydi. Xarakat olam singari abadiydir. Ayni paytda olam abadiy sabab, ya'ni xarakatlantiruvchi kuchga ega. Shakl – faol tomon, u xatto borliqning ma'no-mohiyatini tashkil etadi. Materiya – imkoniyat, xolos. U shakl tufayli ruyobga chiqadi. Xar bir tabiiy xodisada ichki azaliy maqsad – entelexiya mavjud. Bu g'oya teleologiya – hamma narsa azaldan muvofik qilib yaratilgan, degan nazariyaga olib keladi. Arxitektura, mutafakkir fikricha, yaratuvchilik san'ati, arxitektor, ya'ni yaratuvchiniing rejasi – shakl, xom ashyo – materiya, ko'rib bitkazilgan bino – maqsad sababdir. Shakl bilan materiya birlikni tashkil etadi, ular o'zaro bog'liq. Narsa – xodisalarning xarakati va rivojlanishi – bu materiyaning shakllanishi, shaklga ega bo'lib borish jarayonidir.

Aristotel fikricha, xamma seziladigan va sezgi uyg'otadigan narsalar insondan tashqarida, tashqi olamda joylashgan. Inson sezgisi – xali yozilmagan kitob. «Sezgi vositasida bizga materiyasiz shakl ayon

bo'ladiki» deydi u. Aqlimiz ayrim narsa – xodisalarni, ulardagi ayrimlikni bilishdan umumiylikni bilishga imkon beradi.

Aristotel davlat masalasiga to'xtalib, davlat jamiyatning erkin va farovon xayot kechirishini ta'minlashi lozim, deydi. Baxtli xayot – bu faqat mo'l – ko'pchilik emas, baxtli xayot moddiy va ma'naviy boyliklar uyg'unlashganda yuzaga chiqadi. Davlat asosan o'rta mulkdorlar mexnati bilan boyiydi. O'ta qashshoq va o'ta boy – badavlatlikdan o'rtaxollik afzaldir. Davlatni, mutafakkir fikricha, o'rta tabaqadan chiqqan quldor idora qilishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'no – mazmuni jixatidan nixoyatda teran va ayni vaqtda jozibador qadimgi yunon falsafasi jaxon falsafiy tafakkuri tarixi yorqin saxifalarini tashkil etadi. Uning xilma – xil maktab va ta'limotlari ko'pincha taxmin tarzida ilgari surgan ajabtovur va benazir g'oyalar keyingi davrlarda takomilga etkazilib, allomalarga o'lmas shon-shuxrat keltirdi.

II. O'rta asr va Uyg'onish davri Evropa falsafasi xristian dini xukmron dunyoqarashga xamda mafkuraga aylangan, din bilimning barcha soxalarini o'ziga bo'ysundirgan murakkab sharoitda rivojlanishiga to'g'ri keldi. Falsafa «iloxiyotning cho'risi» darajasiga tushirildi. Uning vazifasi xristianlik aqidalarini asoslashdan iborat qilib belgilab qo'yildi. Shu bois u «sxolastik falsafa» ko'rinishiga kirishga majbur bo'ldi. «Sxola» yunonchadan tarjimada «maktab» deganidir. Dinni ilm, falsafa asosida organuvchilar **sxolastlar** deb atalgan. Ular « E'tqod aqlga muvofikmi?» degan savolga javob izlaganlar.

Sxolastikani yaxlit iloxiy ta'limot darajasiga ko'targan mutafakkir ingliz ruxoniysi **Foma Akvinskiy** (1224-1292) dir. Bu xizmatlari uchun cherkov uni avliyolar qatoriga kiritgan. Uning fikricha. xudo-birinchi sabab, uning mavjudligidan narsalarning mavjudligi kelib chiqadi.

Akvinskiy Aristotel ta'limotiga tayanib, oliy shakl - xudo, xudo bo'lmasa, narsalar olami ham mavjud bo'la olmaydi, deb xisoblagan. Hamma narsa va xodisaning sababi bor, sabablarning sababi esa xudodir. G'oyalar narsalarga nisbatan birlamchidir. Akvinskiy dunyoni iyerarxik (ko'p pog'onali) narvonga qiyoslaydi. Uning eng quyi qismida er va 4 unsurdan tuzilgan narsalar joylashgan. Odam joni xudo va moddiy dunyo o'rtasida o'rin egallaydi. Dunyoviy jamiyat tepasida papa boshchiligidagi iloxiy davlat turishi kerak. Sayyoramizdan yuqorida farishtalar dunyosi mavjud. Butun koinotni uch qiyofaga ega yagona xudo boshqaradi. Akvinskiy ta'limoti keyinchalik «tomizm», XX asrda «neotomizm» nomi bilan mazmunan va shaklan zamonaviylashtirib yuborilgan.

O'rta asrlar sxolastik falsafasi «universaliylan», ya'ni umumiylikning yakkalikka munosabati masalasida ikki yo'nalish - **nominalizm** va

realizm o'rtasidagi qizg'in baxs – munozaradan tug'ilgan, desak aslo mubolaga bo'lmaydi. Realistlar «xudo», «rux» kabi umumiy tushunchalar buyumlarga bog'lik bo'lmagan xolda real mavjudligini e'tirof etadilar. Yakka narsalar iloxiy mohiyatning namoyon bo'lishidan, umumiylikning, «xudo» tushunchasining namoyon bo'lishidan iborat. Masalan, **Anselm Kenterberiyskiy** (1039-1109) «Monopoliya» va «Prologion» asarlarida yuqoridagi g'oyalarni mantiqiy muloxazalar yordamida asoslashga urinib, «hamma narsaning sababchisi bo'lishi kerak, binobarin, jamiyki iloxiy ne'matlarning sababchisi bor, u xudo», degan, ikkinchidan eng oliy, komil mohiyat bo'lmasa, narsalar olami bu qadar mukammal bo'lmas edi. Binobarin, oliy reallik bo'lmish xudo mavjud. Moddiy olamdagi barcha narsalar shu umumiy mohiyatdan kelib chiqqan. «Tabiatdagi turli-tumanlik xudoning ijodkorlik qudrati ifodasidir».

Realistlarga qarama-qarshi turgan nominalistlarning fikricha, umumiy – universalilik yakka narsalarsiz mavjud emas. Umumiy tushunchalar yakka buyumlarning nomlarigina, xolos. Lotinchadan tarjimada «nomina» - «nom» degan ma'noni beradi. Nominalizmning taniqli namoyondalaridan **Ioann Rostselin** (1050-1112) ning ta'kidlashicha, umumiy tushunchalar narsalarni belgilash u yoqda tursin, umuman mavjud emas. Umumiy tushunchalar yakka-yakka tarzda mavjud narsalarni umumlashtirib beruvchi nomdangina iborat. Dunyoda yakka narsalardan boshqa hech nima yo'q.

Mazkur falsafiy munozarada, shuningdek, **Vilyam Okkam** (1309-1349), **Rojer Bekon** (1214-1292) nominalizmni, **Per Abelyar** (1079-1142) realizmni yoqlab, diqqatga molik chuqur falsafiy fikrlar bildirganlar.

Garbiy Evropa tarixida XIV-XVI asrlarni o'z ichiga olgan uyg'onish davri dastlab Italiyada boshlangan, so'ngra uning gumanizmni - insonparvarlikni, inson jismoniy va ma'naviy go'zalligini, aql-tafakkurini ulug'lagan badiiy-estetik va falsafiy g'oyalar butun Evropa mamlakatlariga tarqalgan. Kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining ildam rivojlanishi dunyoni insoniylik nuqtai nazaridan idrok etishga turtki berib, tabiatshunoslik va falsafa fanlari rivojiga keng yo'l ochdi. Bular avvalo inson aql – tafakkurini o'rta asrchilik sxolastik falsafasidan ozod qilishni, odamlar dunyoqarashini tabiiy – ilmiy va dunyoviy bilimlar bilan boyitishni nazarda tutar edi. Bu davrda astronomiya, matematika, mexanika, fizika, geografiya, fiziologiya soxalarida ilmiy izlanishlar kuchaydi, fan yutuqlaridan ilmiy dunyoqarash va xurfikrlik ruxidagi xulosalar chiqarildi.

Nemis mutafakkiri va olimi **Nikolay Kuzanskiy** (1401-1461)ning tabiiy-ilmiy qarashlari xurfikrlikning yorqin namunasi bo'la oladi. Sxolastika «borliq» deganda xudoni nazarda tutsa, N.Kuzanskiy: «Borliq - bu

xamma narsa, u shuning uchun xam cheksiz, bepoyondin», degan edi. Bu fikr moxiyat-e'tibori bilan panteizm ruxida bo'lib, diniy sxolastik dunyoqarashga keskin zarba bo'lib tushdi. N. Kuzanskiy fikricha, xudo xamma narsada mujassamlashgan, xamma narsa esa xudoda mavjuddir. Oliy xaqiqatlar sxolastika usulida fikrlash bilan emas, tajriba asosida isbotlanadi. N. Kuzanskiyning tabiiy-ilmiy qarashlarga asoslangan falsafasi taniqli polyak olimi **Nikolay Kopernik** (1473-1543), Italiyalik olimlar **Jordano Bruno** (1548-1600) hamda **Galileo Galiley**ning kosmogonik va fizik qarashlariga, bepoyon, cheksiz dunyo xaqidagi tasavvurlariga, geliotsentrik nazariyaga asos bo'ldi.

Shunday qilib, Garbiy Evropa Uyg'onish davri falsafasi sxolastika qobig'idan qat'iy voz kechib, tabiiy xamda ijtimoiy fanlarning dalilari asosida inson tomon yuz burdi, adabiyot va san'atda barq urgan insonparvarlik g'oyalari falsafiy ta'limotlar markazidan o'rin oldi.

III. Garbiy Evropa tarixida XVII asr oxiri – XVIII asrlar «yangi davr» deb nomlanadi. Bu davr kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari ildam shakllanib va rivojlanib borganligi bilan ajralib turadi. Kapitalistik taraqqiyot ishlab chiqarish jarayonlaridan kelib chiqib, tabiatshunoslik fanlari va ular bilan bog'liq tajribaviy fanlar rivojiga keng yo'l ochdi. Bu esa atrof moddiy olamni chuqur qayta idrok etish, tabiat qonunlarini egallash zururatini kuchaytirdi. Shunday yangi tarixiy sharoitda falsafa insonning amaliy xayoti va faoliyati uchun zarur bo'lgan ob'ektiv xaqiqatni ochib beruvchi fan vazifasini bajardi. O'rta asr falsafasida ishlatilgan mavxum umumnazariy qoidalar va uslublar noto'g'ri, kishilarni chalg'ituvchi deb e'lon qilindi. Tabiatni o'rganishning, xaqiqatni, ko'proq tabiiy – ilmiy xaqiqatlarni bilishning yangi – yangi usul va yo'llarini topish kundalang turgan vazifaga aylandi.

Mana shu oliyjanob ishga qo'l urganlardan biri – ingliz faylasufi **Frensis Bekon** (1561-1626) shart-sharoit taqozosidan kelib chiqib, fanning bosh vazifasi va ilmiy bilishning maqsadi – insoniyatga naf keltirishdir, degan fikrga asoslandi. Uning «Yangi organon» nomli asarida mashxur «Bilim - kuchdin» degan yangi shior ilgari surilgan va xar tomonlama asoslab berilgan. Bilim insonga tabiat ustidan xukmronlik qilishga yordam beradi. Fanning xulosalari inkor etib bo'lmaydigan dalillarga tayanishi kerak. Ana shunday g'oyalardan kelib chiqib, F. Bekon kuzatish, taxlil qilish, taqqoslash va eksperiment usullariga, ya'ni dunyoni tajribaviy o'rganishga asoslangan **induktiv metod** (induktsiya)ni ishlab chiqdi va umumilmiy metod sifatida fanga kiritdi. F. Bekonning fikricha, ishonchli tajribaviy bilimlarni qo'lga kiritish uchun odam ongini «sharpalan» deb atalgan illat va xurofotlardan tozalash kerak. Olim «urug'», «g'on», «bozon», «teatr»

sharpalarini ajratib ko'rsatadi va ta'riflaydi. «Urug'» sharpasi inson zotiga xos sub'ektiv xususiyatlarni tabiiy xususiyat deb talqin qilish illatidir, «g'on» sharpasi – bu olam to'g'risidagi noto'g'ri tushunchalardir. «Bozon» sharpasi – bu keng tarqalgan so'zlarni buzib ishlatish natijasi. «Teatr» sharpasi – xurmatli kishilar aytgan so'zlarga ko'r-ko'rona rioya qilish illatidir.

Mutafakkirning bu tanqidiy fikr – muloxazalari avvalo sxolastika falsafasiga zarba berishga qaratilgan edi. F. Bekon bilish nazariyasida **tajribaviy bilimlar (empiriya)ga** asosiy urg'u bersa-da, bilishda aql, tafakkurning ahamiyatini alohida qayd etib o'tadi. Dunyoni bilish jarayonida odam chumolidek to'plovchilik bilan yoki o'rgimchakdek o'zidan to'qib chiqarish bilangina band bo'lib qolmasdan, bolari kabi gullardan nektar to'plab, uni keyin asal qilib «qayta ishlashi» kerak, ya'ni xissiy bilish va aqliy bilishni uyg'unlashtirish kerak, degan.

F. Bekonning frantsiyalik zamondoshi **Rene Dekart** (1596 - 1650) yangi zamon falsafasida **deduktiv metod** va u bilan yaqindan bog'liq **ratsionalizm** (aqliy bilish)ga diqqat-e'tibor qaratganligi bilan ma'lum va mashxurdir. Uning ratsionalizmi «Men fikrlayapman, demak, men mavjudman» degan jumalarda lo'nda ifodalangan. Dekart xuddi F. Bekon singari bilish uslubi masalasini asosiy falsafiy muammo deb bildi. Ammo F. Bekondan farqli o'laroq, induktsiyaga emas, balki o'zi «analitik» yoki «ratsionalistik metod» deb nomlagan deduktsiyaga yuqori baxo berdi. Ushbu metod quyidagi talablarga asoslanadi: 1. Faqat aql nuqtau nazaridan aniq, ravshan va shubxasiz xulosalargina xaqiqat deb qabul qilinadi. 2. Xar bir murakkab muammo tarkibiy qismlarga ajratib o'rganiladi. 3. Bilish jarayonida ma'lum va isbotlangan narsalardan noma'lum va isbotlanmagan narsalar tomon xarakatlaniladi. 4. Tadqiqot davomida mantiqiy bug'inlardan birortasi tushirib qoldirilmasligi kerak.

R. Dekart ta'limoti **dualistik falsafadir**, ya'ni mutafakkir bir vaqtning o'zida xam moddiy, xam ruxiy boshlangichlar – substantsiyalarning mavjudligi xamda teng kuchli ekanligini e'tirof etadi. Uning fikricha, borliq materiya va ruxdan iborat, ularning xar ikkisi xudoga bo'ysunadi. Dunyo cheksiz va abadiy, u inson tafakkuriga bog'liq bo'lmagan xolda mavjud va doimiy rivojlanishdadir. Aql, tafakkurga asoslanish – ratsionalizm kishilarga katta naf keltiradi. Ayni vaqtda «tug'ma g'oyalar» xam mavjud. Bu g'oyalar odam tugilishi bilan xudo tomonidan uning miyasiga joylab quyiladigan bilimlardir. Xulosa, shakl va boshqa umumiy tushunchalar shular jumlasidandir.

Gollandiyalik faylasuf **Benedikt Spinoza** (1623-1677) materiyani yagona substantsiya sifatida talqin etuvchi **materialistik monizm**

vakili bo'lib maydonga chiqdi. U o'zining «Etika» asarida falsafiy qarashlarni geometrik lug'at, terminlar, qoidalar, teoremlar, aksiomalar, ta'riflar vositasida tushuntirishga xarakat qilgan. «Xudo deb men mutloq, absolyut cheksiz mavjudotni, ya'ni substantsiyani tushunaman, - degan edi u, - Substantsiya esa sanoqsiz atributlardan tuzilgan bo'lib, xar biri abadiy va chegarasiz mohiyatni ifodalaydi». Spinozaning xudosi tabiat, tabiat esa yagona mavjudot, u o'z-o'zidan mavjud bo'lib, ayrim, konkret narsalarni yaratadi. Yaratuvchi tabiat cheksizdir, yaratilgani esa cheklidir. Cheksiz va abadiy tabiatda chekli xamda vaqtinchalik narsalar–**moduslar** yashaydi. Mutloq tabiatga kenglik, xarakat va tafakkur xos, - degan edi Spinoza.

Mutafakkirning fikricha, inson ushbu cheksiz abadiy tabiatning bir qismi. Inson tabiatni, substantsiyani tanlab, bilib olishi mumkin. U «Etika» asarining turtinchi qismi 26 teoremasida Shunday deydi: «Aql vositasida nimagaki intilar ekanmiz, bu-bilishdir, aqlni raxbar deb bilgan jon faqat bilishga eltuvchinigina o'zi uchun foydali xisoblaydi». Spinoza bilish aniq bo'lmog'i kerak, aks xolda u zararli narsaga aylanadi, deb xisoblagan. Bilish insonga, insoniyatga manfaat keltirishi lozim. Aql bilan qilingan ish to'g'ri va odilona bo'ladi.

Nemis tabiatshunos olimi **Golfrid Leybnits** (1646-1716) substantsiyalarning ko'pligi xaqidagi ta'limoti bilan tanilganlar. Leybnits ularni **monadalar** deb atagan. Monadalar xaqidagi g'oyalar uning «Monadologiya» nomli asarida bayon etilgan. Monada, Leybnits fikricha, moddiy emas, balki ruxiy xodisa bo'lib, monadalar ko'p turlidir. Bosh monada - xudoning ziyosi, nuridir. «Har bir monada o'zi uchun bir dunyo, har biri o'zi uchun mustaqil birlikdir, - deb yozgan edi mutafakkir, - Monadalardan har biri o'zining aloxida o'zgarishlariga intiladi va ular boshqa xamma narsalar bilan muxim bog'lanishlarga ega ekanligi sababli ayni vaqtda uning xam tarkibida bo'ladi». Sezuvchan monadalar «jon» deb, aqlga ega monadalar «rux» deb nomlanadi. Ong va aql monadalar taraqqiyot darajasi belgisidir.

Leybnits bilish nazariyasida ingliz faylasufi, materialist Jon Lokk qarashlariga, uning sensualizmiga zid ravishda ratsionalizm g'oyalarini ilgari surdi, sezgilar, umuman xissiy bilishning ahamiyatini rad etib, aqlning ahamiyatiga yuksak baxo berdi. Xaqiqat xaqida so'z yuritish ekan, olim xaqiqat barcha mantiqiy, matematik xaqiqatlarni o'z ichiga oladi, deb xisoblagan. Uning fikricha, faktik xaqiqatlarga tabiiy fanlarning xaqiqatlari kiradi. Atoqli mantiqshunos sifatida u to'g'ri fikrlashning to'rtinchi qonuni – etarli asos qonunini ishlab chiqdi, fanga kiritdi va uni «xodisalararo bog'lanish zanjirlarini topish vositasi» deb baxoladi. Leybnits tabiat va jamiyatdagi xamma

narsalarda xudoning amri, iloxiy muvofiklik mavjud, degan xulosa chiqardi.

Garbiy Evropa falsafasida XVIII asr fransuz mutafakkirlari **Pol Golbax** (1723-1789), **Deni Didro** (1713-1787), **Klod Gelvetsiy** (1715-1771), **Julen Lametri** (1709-1715) yaratgan falsafiy ta'limot alohida o'rin tutadi. Bu mutafakkirlar Frantsiyada birinchi bo'lib entsiklopediya yaratdilar, tabiatshunoslikning ko'plab soxalarida yangiliklar ochdilar, xayotbaxsh erkin fikrlari bilan sxolistika va xurofotlarga qarshi kurash olib bordilar. Ularining qarashlari asosan materialistik va xurfikrlik ruxidagi g'oyalardan iborat bo'ldi.

XVIII asr fransuz materialistlari fikricha, moddiy borliqdagi ja'mi narsalarning yigindisi «materiya» deb yuritiladi. Materiya molekula va atom zarralaridan tashkil topgan. Atomlar-materiyaning bir xildagi bo'linmas, mayda tarkibiy qismidir. Xarakat tufayli ular bir-birlari bilan birlashadilar. Xarakat materiyaga ichdan xos, ya'ni atributdir, ajralmas xossasidir. Xarakatning asosiy shakli bu narsa-xodisalarning fazoda oddiy o'rin almashinuvidan iborat.

XVIII asr fransuz materialistlari dunyoni bilish mumkin, degan gnostizm mavqeida qat'iy turib, inson bilishi tabiatni tekshirish, o'rganish, uning qonunlarini egallashga xizmat qilishini aytishgan. Ularning fikricha, sezgi, fikr, xulosalar, murakkab ilmiy qoidalar tabiat xossalari, real bog'lanishlarining in'ikosidir. Ular tug'ma g'oyalar haqidagi fikrlarni asossiz deb baxolaganlar. Jon Lokkning sensualizmiga asoslanib, bilish – bu dunyoni sezishdir, sezgi manbai inson ongidan tashqari va ob'ektiv ravishda ma'vjud moddiy dunyodir, deganlar. Shu bilan birga XVIII asr fransuz materialistlari bilishda aqlning rolini xam e'tirof etib, unga yuqori baxo berganlar. Aql, tafakkur, ular fikricha, sezgilar bergan ma'lumotlarni qo'shish, yig'ish, va taqqoslash vazifasini bajaradi. Jamiyat va davlatga bo'lgan qarashlarda bu mutafakkirlar o'sha davr uchun ilg'or sanalgan «ijtimoiy shartnoma» nazariyasini ijodiy rivojlantirganlar. Jamiyat va davlat, ularning ta'kidlashicha, tabiiy zaruratdan kelib chiqqandir. Shaxs – ijtimoiy muxitning maxsuli, ya'ni jamiyat o'ziga muvofiq shaxs tipini shakllantiradi. Inson, uning xaq-xuquqlari, manfaatlari, erki, baxti masalalari ularning diqqat markazida bo'lgan. «Baxtga intilish- inson xulq-atvoring tabiiy asosidir» degan bosh g'oya ularning shioriga aylangan. Jamiyatning asosiy vazifasi xammani adolatli ravishda baxt xuquqi bilan ta'minlashdan iborat bo'lmog'i lozim. Fransuz materialiat-entseklpedistlari tarixga, jamiyatga ma'rifatparvarlik mavqeidan turib baxo beradilar. Feodal zulmidan, o'rta asr qulligidan, zulmatidan, jaxolatidan aql-idrok, maorif nurini yoyish bilan qutilish mumkin, deb xisobladilar.

XVIII asrning oxiri-XIX asr boshlarida Germaniya boshqa Garbiy Evropa mamlakatlaridan iqtisodiy va siyosiy jihatdan orqada qoldi. Fransuz inqilobi, tabiiy-ilmiy yutuqlar mamlakatda rivojlanish uchun turtki beradigan yangi g'oyalarga kuchli extiyoj tugdirdi. Nemis klassik falsafasi ana shu extiyojga javob tariqasida yuzaga keldi. Bu falsafaning yirik vakillari Immanuil Kant, Georg-Vilgelm-Fridrix Gegel hamda Lyudvig Feyerbax edilar.

Immanuil Kant (1724-1804) o'z faoliyatini olim sifatida boshlab, Quyosh tizimining gaz tumanligidan kelib chiqqanligi to'g'risida gipotezani yaratdi, koinotning kelib chiqishi va rivojlanishiga doir «Osmonning umumiy tarixi va nazariyasi» nomli asar yozdi, borliqni metafizik tarzda tushunishga qarshi chiqib, uni taraqqiyotda deb asoslashga urindi. Keyinchalik, ijodiy faoliyatining ikkinchi bosqichida, asosan bilish nazariyasi masalalariga diqqat qaratib, sub'ektiv-idealistik falsafiy ta'limot yaratdi. Bu ta'limot uning «Sof aql tanqidi», «Prolegomen», «Logika» asarlarida bayon etilgan.

I. Kantning fikricha, falsafa borliq, axloq va din masalalari bilan shug'ullanishdan oldin inson bilishining imkoniyatlari hamda chegaralarini aniqlab olishi lozim. Kant narsa-xodisalarni ikki qismga bo'ladi: biri-o'z-o'zicha mavjud bo'lgan narsalar va xodisalar; ikkinchisi sezgilarimiz aks ettirayotgan narsa-xodisalar. Shunisi borki, biz dunyo qanday bo'lsa, shundayligicha bila olmaymiz, balki uning ifodalanishini bilamiz, xolos. Kant ob'ektiv mavjud narsa-xodisalarni bilib bo'lmaydigan «narsa o'zida» lar, deb e'lon qiladi va agnostitsizmni olg'a suradi. **«Narsa o'zida»**, ya'ni uning mohiyati bizdan yashiringandir. Odam faqat xodisani, mohiyatning tashqi ifodasinigina biladi. Xodisalar dunyosi tartibsiz, u hech qanday tartib va zaruratga buysunmaydi. Inson aqli bilan ushbu xodisalar dunyosini tartibga soladi, ularni ma'lum vaqt va fazo bilan bog'lab o'rganadi. Kant dialektik g'oyalar masalsini kundalang qo'ydi, oqilona fikrga dialektika xos ekanligini asoslab berdi. Uning fikricha, falsafaning asosiy maqsadi – aql imkoniyatlarini chegaralab, diniy e'tqod uchun yo'l ochib berishdir.

Nemis klassik falsafasining eng yirik vakili **Georg Vilgelm Fridrix Gegel** (1770-1831) ta'limotining ibtidosi – barcha mavjud narsalarning yaratuvchisi bo'lmish **Mutloq g'oyadir**. Bu ta'limot mutafakkirning «Logika fani», «Falsafiy fanlar entseklpediyasi», «Tarix falsafasi», «Falsafa tarixi», «Xuquq falsafasi» kabi asarlarida mujassamlashgan. Gegel mutloq ideyani birlamchi, moddiy olamni ikkilamchi deb ko'rsatib, shunday yozadi: «G'oya tabiatni yaratuvchidir. Dunyo g'oyaning boshqa ko'rinishi, borlig'idin». Mutloq g'oya dastlab «sof borliq» sifatida mavjud bo'ladi, keyin rivojlana

borib, mazmunan bir-biridan boy tushunchalar vujudga keldiradi. Bu jarayon toki g'oya o'zining ichki boy mazmunini to'la-to'kis ifoda etmaguncha, ro'yobga chiqarmaguncha davom etadi. Rivojlanish mobaynida mutloq g'oya o'zini-o'zi inkor etib borib, tabiat qiyofasiga kiradi, moddiy dunyo tarzida gavdalanadi, biroq u tabiatda o'zini topa olmaydi, o'zi-o'ziga qarama-qarshilik kurashi davom etadi, u tirik tabiat, sungra inson va jamiyat qiyofasini oladi. Shundan sung mutloq g'oya o'zi uchun begona bo'lgan moddiy qobiqdan xalos bo'lib, yana avvalgi ruxiy shaklga kiradi, yani kishilarning ongi, tafakkuri va shaklida yashay boshlaydi. Inson ongi rivojlangani sari g'oya tobora moddiylikdan qutulib, xalos bo'lib boradi. Pirovard natijada u o'zining oldingi xolatida emas, balki butun mazmunini ifoda etgan va anglagan borliq safatida namoyon bo'ladi.

Gegel Mutloq g'oyaning tabiat va jamiyat shaklida ifodalanish jarayonini sinchiklab taxlil etar ekan, bundan avvalo dunyo uzluksiz taraqqiyotdadir, degan dialektik fikrni asoslash uchun foydalanadi. Ikkinchi tomondan, mutloq g'oyaning taraqqiyot jarayonini ochib berar ekan, Hegel bu jarayon qarama-qarshiliklar kurashi orqali sodir bo'lishini, bunda bir tushuncha ikkinchisi tomonidan inkor etilishini, o'tilgan bosqich yanada yuqori darajaga etganda takrorlanishini ko'rsatib berdi. Bu bilan alloma dialektik tafakkur uslubini asoslab berdi va uning qonunlarini tadqiq etishga salmoqli xissa qo'shdi. Borliq, sifat, miqdor, me'yori, mohiyat, xodisa, voqelik, sub'ektivlik, ob'ektivlik, g'oya tushunchalarini ta'rifladi. Ayni paytda Hegel rivojlanish, dialektik xarakat faqat fikrga, g'oyaga xos, biroq tabiat rivojlanishdan maxrum degan mantiqan ziddiyatli fikr ham bildirgan, jamiyatga qarashlarida o'zi yashagan Prussiya monarxiyasini davlat va xuquq taraqqiyotining chuqqisi, g'ultoji, deb xisoblagan.

Nemis klassik falsafasining yana bir zabardast vakili **Lyudvig Feyerbax** (1804-1872), Kant va Geldan farqli o'laroq, materialistik falsafa namoyondasidir. U Hegelning Mutloq g'oyasiga keskin qarshi chiqdi. Mutloq g'oya inson miyasidan yulib olingan va tabiatdan tashqari kuchga aylantirilgan inson aqlidan o'zga narsa emas, deb baxoladi. Uning asosiy asari «Xristianlikning mohiyati» nomli kitobida qayd etilganidek, tafakkur insondan tashqari, unga bog'liq bo'lmagan xolda mavjud bo'lishi mumkin emas, chunki u moddiy narsa – inson miyasi faoliyati bilan bog'liq, miyaning maxsulidir. Shuning uchun tafakkur, ong ikkilamchi, materiyaning in'ikosidir. Feyerbax materializmi antropologik tabiatga ega, chunki uning markazida inson, insonning tabiat bilan aloqadorligi masalasi turadi. Feyerbaxning fikricha, «Yangi falsafa insonni, shu jumladan, tabiatni falsafaning birdan-bir universal va oliy predmetiga aylantiradi».

Mutafakkir inson tabiati, jamiyat, din, tarixiy taraqqiyotning maxsul ekanligini tushunib etmadi, shuningdek, u Gegel dialektikasining mantiqini ham etaricha baxolay olmadi. Shunga qaramay, Feyerbaxning falsafa markaziga mavxum g'oyalar, umuman inson xaqidagi masalalarni emas, balki jonli, konkret jamiyat kishisi muammosini quyganligi, uning antropologik materializmi falsafiy tafakkurning keyingi taraqqiyotiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, garb falsafasi boy tarixga va an'analar ega. Unda yuz yillar mobaynida shakllangan va rivojlanib kelgan g'oyalar va ta'limotlar insoniyat ma'naviy mulkining ajralmas qismiga aylangan va XXI asrda xam insoniyatga xizmat qilib kelmoqda.

IV. Xozirgi davr insoniyat tarixida misli ko'rilmagan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-texnikaviy o'zgarish va taraqqiyot davri xisoblanadi.

Tabiatni, jamiyatni, insonning o'zini o'rganish sohasida qo'lga kiritgan muxim yutuqlar kishilarning dunyoqarashi, tafakkur uslubida ham jiddiy sifat o'zgarishlariga olib kelmoqda. An'anaviy (klassik) tafakkur uslubi urnini noan'anaviy tafakkur uslubi, ilgari an'anaviy falsafiy muammolar urnini yangidan-yangi va turli-tuman falsafiy muammolar egallamoqda. An'anaviy falsafada aql-inson moxiyatini belgilovchi narsa, deb talqin qilingan bo'lsa, endi ratsionalizmga qarshi insonning mavjudligi muammolari, uning noratsional moxiyati masalalari ilgari surilmoqda. Ilgari ma'rifatchilik g'oyalari ustun qo'yilgan bo'lsa, endilikda inson xuquqlariga e'tibor kuchaydi. Ilgari falsafa ko'proq umumiy va mavxum narsalar ustida baxs yuritgan bo'lsa, xozirgi davrga kelib mavxumlikdan aniqlik tomon xarakat kuchaydi, umumiy emas, aniq-ravshan masalalarni xal qilishga e'tibor ortdi.

XXI asrga kelib, falsafadagi an'anaviy muammolarning ahamiyati va mavqei o'zgarganligi shunda xam ko'rinmoqdaki, ko'pgina falsafiy oqimlar va ta'limotlar o'zlarining an'anaviy falsafaga qay darajada a'loqador ekanliklarini ta'kidlab ko'rsatish maqsadida nomlarga «neo», ya'ni «yangi» qo'shimchasini qo'shib ishlatishni afzal bilmoqdalar, masalan, neokantchilik, neotomizm, neogegelchilik, neoplatonizm va xokazolar. Xozirgi zamon falsafiy ta'limotlarining fan bilan a'loqadorligi sohasida ham o'zgarishlar yuz berganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Zamonaviy fan mavjud barcha ijtimoiy muammolarni xal etishga qodirligini e'tirof etuvchi **stsiyentizm** (lotincha. tarjimada- «fan») hamda fan taraqqiyoti jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin deb hisoblovchi **antistsiyentizm** oqimlari shular jumlasidandir. Masalan, ekzistentsializm, Frankfurt ijtimoiy-falsafiy maktabi, Rim klubi, shuningdek, ba'zi diniy-falsafiy oqimlarning fanga munosabati ana shunday birmuncha sovuqqon

bo'lsa, antistsiyentizmning boshqa va ashaddiy tarafdorlari xatto fan-texnika taraqqiyotini umuman cheklab-chegaralab quyish g'oyasini o'rtaga tashlamoqdalar. Darhaqiqat, fan - texnika taraqqiyotining insoniyat uchun jiddiy xavf tugdirayotgan jixatlari ham yo'q emas. Shu ma'noda ilmiy-texnikaviy inqilob natijalarini nazorat ostiga olish, xavfsizlikni ta'minlash masalalari o'ta muxim va xaqqoniy talabdek tuyo'ladi, ammo bular fan taraqqiyotini tuxtatish uchun asos bo'lolmaydi.

Xuddi stsentizm va antistsiyentizm o'rtasida bo'lgani singari, hozirgi davr jaxon falsafasida ratsionalizm va irratsionalizm, antropologizm va naturalizm, materializm va idealizm o'rtasida baxs-munozaralar davom etib kelmoqda.

XX asr oxiri - XXI asr boshlari jaxon falsafasining asosiy ta'limotlarini ta'riflash va tasniflashga kelganda, shuni aytish mumkinki, ular nixoyatda xilma-xildir. G'oyaviy-mafkuraviy plyuralizm, fikrlar xilma-xilligi natijasida ularning xar biri, ikkinchisini takrorlamasdan, o'ziga xos mustaqil oqim sifatida amal qilib kelmoqda. Hozirgi davrning asosiy falsafiy ta'limotlariga **pragmatizm, ekzistentsializm, neopozitivizm, neotomizm** va boshqalarni kiritish mumkin. Shuningdek, ularga qaraganda birmuncha torroq miqyosda tarqalgan **fenomenologiya, tanqidiy ratsionalizm, falsafiy antropologizm** va boshqa oqimlarni ham tilga olib o'tish mumkin. Yangi davrga moslashish natijasi o'laroq dunyoga kelgan postpozitivizm, neokantchilik kabi falsafiy oqimlarning muxlislari ham anchagina.

Hozirgi davrning asosiy falsafiy ta'limotlari xaqida gap ketganda atoqli nemis olimi **Artur Shopengauer** (1788-1860) asos solgan **«xayot falsafasi»** va uning hozirgi ko'rinishlari tilga olinadi. Uning fikricha, olamdagi barcha mavjud narsalarning namoyon bo'lishi irodaga bog'liq. Iroda esa ongsiz va ko'r-ko'rona intilishdan iborat. Masalan, xayvonot olamidagi instinktiv xatti-xarakatlar irodaning namoyon bo'lish xolatlaridan biridir. Inson faoliyati ham ongsiz irodaning namoyon bo'lishiga misol bo'ladi. Shu boisdan inson moxiyati irratsional, ya'ni aqlga zid, aqldan yiroq asosga ega. Aql esa tasnifiy narsadir. Inson xayoti, taqdiri doim aylanib turgan iroda gildiragiga bog'liq narsadir. Shopengauerning ushbu noan'anaviy falsafiy qarashlari uning shogirdi Fridrix **Nitsshe** (1844-1900) tomonidan rivojlantirilgan. Nitsshening fikricha, iroda ham turli bo'ladi. «Borliqning eng chuqur moxiyati xokimiyatga erishish uchun bo'lgan irodadin». Nitsshening «Zardusht tavallosi» asarida aytilishicha, inson vujudida maxluqlik va xoliqlik birlashib ketgan. U o'z ortidan olomni etaklashga qodir bo'lgan irodasi kuchli shaxslarni tarbiyalash g'oyasini ilgari surgan. Nitsshening ayrim fikrlari tushkunlik ruxida

bo'lib, chunonchi, u tsivilizatsiya va madaniyat tobora inqirozga yuz tutib, barxam topib borayotganini asoslashga xarakat qilgan. Bu, albatta, bejiz bo'lmay, aslida XX asrda sodir bo'lgan tushkunlik, parokandalik ham, texnikaviy va texnologik yuksalish ham falsafiy ta'limotlarda muntazam aks etib borganligi natijasidir.

Pragmatizm – foydali faoliyat, foydaga erishish yo'llari va usullari xaqidagi falsafiy ta'limotdir. Pragmatizm falsafasining asoschilari AQSHlik nazariyotchilar **CH.Pirs, U.Jems, J.Dyui** hisoblanadilar. «Praksis» lotin tilidan tarjimada «ish», «xatti-xarakat» degan ma'nolarni beradi. Pragmatizm insonga xayotdan o'z o'rnini topishga yordam berishni maqsad qilib qo'yadi. Pragmatizm falsafasida qo'llaniladigan o'ziga xos termin va iboralarning ma'lum falsafiy jixatlari mavjud. Masalan, «foйда» tushunchasi ko'proq umumnazariy falsafadagi «tajriba», «xaqiqat» tushunchalariga muvofiq keladi. Dyui fikricha, tajriba «foydali» natija berishi kerak. Jems «xaqiqat – bu foydali narsa yoki xodisadin», deydi.

Pragmatizm falsafasiga ko'ra, olam o'zgaruvchan. Tajriba – turli tasodif va kutilmagan vaziyatlarni o'zida mujassamlashtirgan, ongimizdan tezkor qarorlar qabul qilishni talab etuvchi xodisalar majmuidir. Inson xatosiz faoliyat ko'rsatishi uchun uning xatti-xarakatlarini boshqarib turuvchi intellekt zarur. Intellekt odamni qurshab turgan dunyodan nusxa oladi, unga moslashishga yordam beradi. Pragmatizm falsafasi – hozirgi zamon tadbirkorlari, ishbiarmonlari o'rtasida, ayniqsa, g'arbda keng tarqalgan va ma'lum obro'-e'tibor qozongan.

Ekzistentsializm XX asrning 30-yillarida paydo bo'lgan g'arb falsafiy oqimlaridan biri. Uning asoschilari egzistentsializmni inson mavjudligi falsafasi deb ataganlar. «Ekzistentsiya» ingliz tilidan tarjimada «mavjudlik» degan ma'noni beradi. Ekzistentsializm falsafasining turli maktab va yo'nalishlari XX asr kishisining ma'naviyati, taqdiri, erkinligi mavzularida qizg'in baxs-munozaralar yuritgan. «Mavjudlik», «xayot», «o'lim», «orzu-umid» egzistentsializm falsafasining asosiy falsafiy tushunchalari xisoblanadi.

Ekzistentsializm falsafasida ikki yo'nalishni aniq ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Dunyoviy yo'nalish. Bunga **Xaydegger, Sartr, Kamyu** kabi mutafakkirlarni kiritish mumkin. 2. Diniy yo'nalish. Bu yo'nalish **Yaspers, Marsel** kabi vakillarga ega. Dunyoviy yo'nalishdagi egzistentsializmga ko'ra, inson – tugallanmagan loyixa. Uning oldida ulkan imkoniyatlar mavjud. Qay birini tanlashda inson erkindir. Demak, o'z mohiyatini belgilash erkinligiga ega, kim bo'lib yetishish uning faqat o'zigagina bog'liq. Shu ma'noda inson doimo

takomillashib boradigan, tugallanmagan loyixaga o'xshaydi. Erkinlik inson o'zi yaratadigan ichki ruxiy xolatdir. Unga beriladigan tanlash imkoniyati nixoyatda mas'uliyatlidir. Chunki bunda inson o'zini, boshqalarni hamda dunyoni qayta yaratadi.

Diniy ekzistentsializm fikricha, inson o'z faoliyatida xudoga qarab, kamolot sari xarakat qiladi. Xaqiqiy erkinlik taxlikali daqiqalarda, tashvish-qayg'uda, yolg'izlikda, dunyo tashvishlari bilan yakkamayakka qolganda bilinadi. Taxlika, mas'uliyat sof erkinlikning o'zidir, faqat shunday sharoitda odam o'zini to'la anglaydi. Xayot va o'lim, qo'rqinch, daxshat bu ta'limotning markaziy tushunchalaridir. Ekzistentsialistlar fikricha, olam ma'nosiz va uni xech qachon bilib bo'lmaydi. Odam umri o'tkinchi bo'lganligi uchun xam daxshatlidir.

Keyingi vaqtlarda ekzistentsialistlar «mavjudlik» tushunchasini ancha keng-jamiyat, insoniyat mavjudligi deb anglab, tinchlik uchun, urush xavfini yuqotish, xalqlar va davlatlar o'rtasida xamkorlik uchun kurashmoqdalar.

XX asrda keng tarqalgan, XXI asrda xam yashab kelayotgan eng yirik diniy-falsafiy oqim **neotomizmdir**. U o'rta asr iloxiyotchisi Foma Akvinskiy ta'limotining zamonamizga moslangan yangicha ko'rinishi xisoblanadi. Bu ta'limot fan bilan din o'zaro muvofiq, ular biri-ikkinchisini to'ldiradi, xar ikkisi ham xudo tomonidan berilgan «qo'sh xaqiqatdir» degan qarashga asoslanadi. Neotomistlar fikricha, ilm yetmagan joyda din qo'llanilishi kerak. Lekin bu ko'r-ko'rona, shunchaki ishonch-e'tqod bo'lmasdan, mantiqan teran anglangan va isbotlangan bo'lmog'i lozim. Falsafa turli mantiqiy yo'llar bilan xudoning mavjudligini isbotlashi, xullas, dinga xizmat qilishi kerak. Neotomizm jamiyatni xudo yaratgan, uning taraqqiyoti xudoning rejasi asosida boradi, deydi, iloxiy qadriyatlarni ustun qo'yadi. Neotomizm falsafasining yirik namoyondalari – **E.Jilsen, K.Fabro, D.Merse, Maritenning** fikricha, aqlning yagona maqsadi – xudoning marhamatini anglash, bilishdir. Moddiy reallik bilan bir qatorda ruxiy reallik ham bor. Fan va din bir-biriga muvofiq keladi, ammo gap bu yerda kato'lik e'tiqodi qadriyatlari va tamoyillari haqida boradi, xolos. Neotomistlarning qayd etishicha, ilmiy bilishning chegarasi bor – aql moddiy olamnigina bila oladi, u xudoni bilishga qodir emas. Moddiy olam xodisalari orqali u yaratuvchining qudrati va irodasini anglab yetadi.

Xozirgi zamon g'arb falsafasida **neopozitivizm** ham salmoqli o'rin tutadi. Uning atoqli namoyondalari qatoriga **R.Karnap, L.Vitgenshteyn, B.Rassel, J.Ayer** va boshqalar kiradi. Ingliz tilidan tarjimada «pozitiv» - «ijobiy» deganidir. Pozitivizmning asoschisi – XIX asr fransuz mutafakkiri Ogyust Kont fikricha, falsafa aniq fanlarsiz

mavjud bo'la olmaydi, u o'zicha xech nima emas, faqat aniq fanlar bergan ijobiy ma'lumotlarni tartibga solish va xulosalash bilan shug'ullanish falsafaning vazifasi doirasiga kiradi. Falsafa mustaqil ravishda ob'yektiv dunyo to'g'risida aniq (pozitiv) bilim bera olmaydi, binobarin, falsafani rux, materiya xaqidagi ortiqcha tushunchalardan tozalash kerak. Neopozitivistlar ishlab chiqqan **verifikatsiya** tamoyiliga ko'ra, faqat tajribada o'z tasdigini topgan, isbotlangan bilimgina xaqiqatdir. Boshqa bir pozitivist – **K.Popper** ishlab chiqqan **falsifikatsiya** metodiga ko'ra esa, ba'zi nazariy bilimlarning xaqiqatligini emas, xatoligini isbotlagan maqbuldir. Pirovardida pozitivistlar falsafa bilimlarning xaqiqiyiligini mantiqiy-lingvistik usulda isbotlashi va tizim xoliga keltirishi kerak, deb xisoblaganlar.

XX asr ijtimoiy falsafasida O.Shpenglarning «**Lokal madaniyatlar**» ta'limoti hamda A.Toynbining «**sivilizatsiyalarning xilma - xilligi**» nazariyasi yetakchi o'rin egallaydi. Nemis faylasufi **O.Shpengler** «Yevropaning tanazzuli» nomli asarida tarixni biri – ikkinchisidan uzilib qolgan 8 xildagi lokal, ya'ni maxalliy madaniyatlarning yig'indisidan iborat, deb ko'rsatadi. Bular qatoriga olim arab, xind, vavilon, xitoy, yunon-rim, vizantiya-arab, maya va rus-sibir madaniyatlarini kiritadi. Bu madaniyatlardan har biri boshqa jihatlaridan qat'iy nazar o'ziga xos diniy asosga egaligi hamda har birining o'zigagina taluqli biologik ritm (marom)ga egaligi bilan ajralib turadi. Lokal madaniyatlarning har biri uchun dunyoga kelish va bolalik, yoshlik va kamolga etish, qarilik va so'nish bosqichlari xosdir. Demak, har bir maxalliy madaniyat rifojida ravnaqqa erishish (sof madaniyat) hamda tanazzul davrlari mavjud. O.Shpengler lokal madaniyatlarni tadqiq eta borib, ularni evropalashtirish g'oyasiga, ya'niy **evropatsentrizm** g'oyasiga keskin qarshi chiqadi. Uning fikricha, har bir lokal madaniyat o'zicha betakror, binobarin, ular bir-biridan mustasno xolda rivojlanishi lozim. Demak, O.Shpengler madaniyatlarning o'zaro ta'siri va aloqadorligining realligi va bu jarayonning axamiyatiga yetarlicha baxo bermagan.

Ingliz jamiyatshunosi **A.Toynbi** «Tarixni o'rganish» nomli asarida madaniyatlarning lokal rivojlanishi g'oyasiga murojaat qilib, O.Shpenglarning ayrim muloxazalariga qo'shilmasligini bildiradi. Toynbining kontseptsiyasi Shpengler ta'limotidan ikki jixati bilan farqlanadi: birinchidan, insonda o'z xayotini erkin belgilash imkoniyati mavjud. Ikkinchidan, tarixiy taraqqiyotning davriy modeli dunyoviy dinlar (buddizm, xristianlik, islom)ning barcha xalqlarni yaqinlashtiruvchi va jipslashtiruvchi bosh omil ekanligi g'oyasi bilan boyitilgandir. A. Toynbi g'arb xristian sivilizatsiyasi tanazzulga yuz tutayotganini turli dalillar asosida isbotlashga xarakat qiladi. Buning

oldini olish maqsadida jaxon xalqlari yagona dinni qabul qilishlari lozim, deb xisoblaydi.

Biz yuqorida hozirgi zamonning asosiy falsafiy ta'limotlari xususida qisqacha to'xtaldik. Vaxolanki jaxon falsafiy tafakkurining bugungi xolatini belgilovchi oqim va yo'nalishlar faqat shular bilan chegaralanmaydi. Yuqorida qayd etilganlardan tashqari jamiyat taraqqiyotining mohiyati va yo'nalishlari xaqida baxs yurituvchi boshqa ko'plab ta'limotlar ham mavjud. Shunday qilib, hozirgi zamon jaxon falsafasi an'anaviy va noan'anaviy ta'limotlar asosiga qurilgan falsafiy oqim, yo'nalish va maktablardan iborat. Ularni o'rganish fikrlar xilma-xilligini real ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Yunon falsafiy maktablari, substantsiya, materializm, idealizm, dualizm, atomlar, sofistika, sxolastika, realizm, nominalizm, metod, dialektika, sensualizm, ratsionalizm, plyuralizm, an'anaviy falsafa, noan'anaviy falsafa.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Qadimgi yunon falsafasidagi materialistik va idealistik ta'limotlarni ajratib ko'rsating.
2. Markaziy Osiyolik mutafakkirlarga eng ko'p darajada ta'sir ko'rsatgan qadimgi yunon faylasuflarini sanab bering.
3. G'arbiy Evropada Uyg'onish davri falsafasi qay zaminda yuzaga kelgan?
4. XVIII asr fransuz faylasuflarini birlashtirib turgan umumiy jihat nimalardan iborat?
5. Nemis klassik falsafasi ilgari surgan asosiy g'oya nima?
6. XX asr falsafasining asosiy xususiyatlarini sanab bering.
7. «Xayot falsafasi»ning mohiyati nimada?
8. Ekzistentsializm falsafasining ziyolilar orasida keng tarqalishi sababi nimada deb o'ylaysiz?
9. Neopozitivizm falsafasining namoyondalari kimlar?
10. Jamiyat xaqidagi XX asr falsafiy ta'limotlari xaqida gapirib bering.
11. Irratsionalizm nima va uning qanday ko'rinishlari bor?

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T, Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T., 1998.

3. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustaxkam irodasiga ishonaman.- «Fidokor» gazetasi. 2000 yil, 8 iyun.
4. Mo'minov I. M. O'zbekistonda tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan.-T., Fan, 1998.
5. Yo'ldoshev S.Antik falsafa. – T. , 1999.
6. Falsafa tarixi. - T, Sharq, 2002.
7. Falsafa. Ma'ruzalar matni. – T., 2000.
8. Falsafa. O'quv qo'llanma. E. Yusupov taxriri ostida – T. , Sharq, 2000 .

4-MAVZU

BORLIQ FALSAFASI

I **Borliq tushunchasi** falsafa fanidagi eng umumiy tushunchalardan, ya'ni kategoriyalardan biridir. «Borliq» tushunchasiga muqobil, ya'ni teskari ma'nodagi tushuncha «yo'qlik» dir. «Borliq» avvalo dunyoda mavjud, bor narsalarga nisbatan qo'llaniladi. Shu sababdan ham «borliq» kategoriyasi «mavjudlik», «reallik» va shu kabi boshqa eng umumiy tushunchalar bilan uzviy aloqadorlikda, ularga mazmunan yaqindir. Shuningdek, «borliq» tushunchasi «olam», «dunyo» singari tushunchalar bilan aynan bir ma'noli, ya'ni sinonim xisoblanadi. Borliqni falsafiy idrok etish muammolari bilan falsafa fanining «ontologiya» deb nomlangan qismi shug'ullanadi. «Ontos» yunonchadan tarjimada «moxiyat» degan ma'noni beradi. Demak, ontologiya – borliqning mohiyati haqidagi falsafiy ta'limotdir.

«Borliq» kategoriyasi o'z mazmun-mohiyati bilan avvalo mavjudlikni bildiradi, ammo uning mazmuni «mavjudlik» tushunchasining mazmuni bilan bir ma'noda emas. Borliq falsafiy kategoriya sifatida faqat mavjudlikni ifodalab qolmasdan, mavjudlikka nisbatan umumiyroq va kengroq mazmunga ega bo'lgan reallikni anglatadi. Borliq kategoriyasi tabiat, jamiyat, inson, uning tafakkuri ko'rinishlarining shunchaki mavjudligi emas, balki ulardagi eng umumiy aloqadorlikni ifodalaydi. Binobarin, dunyo, undagi narsa va xodisalar o'zlarining barcha xususiyatlari bilan birgalikda mavjud bo'lib, ular o'z realliklari bilan umumiy birlikka egalar. Ular o'rtasidagi umumiylik ularning real ekanliklaridir.

«Borliq» kategoriyasi falsafiy tushunchalar ichida fundamental ahamiyatga ega. Utmishdagi va hozirgi davrdagi ko'plab faylasuflar

o'z qarashlarini bu kategoriya orqali ifodalashadi. Shu tufayli ushbu masala atrofida qizg'in munozaralar davom etib kelmoqda. Borliq, mavjudlik va yo'qlik, uni qurshab turgan tabiat va jamiyat, o'zlari xaqida odamlar qadim - qadim zamonlardan buyon o'ylay boshlaganlar. Ular atrof olamda sodir bo'lib turgan turli o'zgarishlarni kuzatganlar, bu narsalar ularning ko'z o'ngida ob'ektiv reallik sifatida gavdalangan: ya'ni ular bor, mavjud, lekin vaqt o'tishi bilan yo'q bo'ladi, aksincha, ba'zi yo'q narsalar esa paydo bo'ladi.

Kishilar o'zlarining kundalik tajribalari asosida fikr yuritib, o'zlari yashayotgan dunyoning aynan xozir mavjudligiga, o'zlaridan keyin ham mavjud bo'lishiga, o'zlarining esa vaqtincha yashab, so'ng dunyodan o'tib ketishlariga ishonch xosil qila boshlaganlar. Shular asosida keyinchalik «bu dunyo» va «u dunyo», yani kishilarning real hayotlarida kechadigan dunyo va vafot etishi bilan ularning ruxlari ravona bo'ladigan dunyo to'g'risidagi tasavvurlar paydo bo'la boshlagan. Bu ishonchlari ularning «borliq» va «yo'qlik» xaqidagi qarashlarini mustaxkamlagan.

Faylasuflarga kelsak, ularning borliq, mavjudlik haqidagi qarashlari aslo bir xil bo'lmagan: ba'zi faylasuflar «dunyo avval ham bo'lgan, hozirda mavjud, bundan keyin ham mavjud bo'ladi» deyishsa, boshqalar «dunyo avval mavjud bo'lmagan, u xudo yoki rux tomonidan yaratilgan, shundan buyon mavjud» deyishgan. Uchinchi xil faylasuflar esa «borliqning yaralishiga faqat xudo sababchi bo'lgan xolos, shundan buyon u o'z-o'zicha mavjud, o'zicha rivojlanadi» degan fikrni ilgari surishgan. Fan va amaliyot taraqqiyoti natijasida borliqning yaratilganligi, uning xususiyatlari xaqidagi oldingi qarashlar asta - sekin uning yaratilmaganligi, bir butunligi, doimiyliigi, abadiyligi to'g'risidagi g'oyalar bilan almashinib borgan.

Dunyoning abadiyligi yoki o'tkinchiligi, uning makon va zamonda cheklangan yoki cheksizligi to'g'risida fikrlar dastlab afsona va diniy qarashlarda, keyinchalik falsafa va boshqa fanlarda ifodalanib, muxokama qilib kelingan. Bu muxokama, munozara va tortishuvlarning hammasi pirovard oqibatda borliq muammosiga borib taqalgan. Ularning barchasining mantiqiy xulosasi shundan iboratki, dunyo doimiy, abadiydir. Ammo shu abadiy dunyodagi barcha narsalar, turli-tuman jonsiz va jonli organizmlar, insonlar va ularning faoliyati vaqtinchalik, o'tkinchidir. Demak, borliq abadiy, ammo undagi barcha narsalar o'zgarishda va rivojlanishda: bir xolatdan ikkinchi xolatga, bir turdan ikkinchi turga o'tishda, chunki bordan yo'q, yo'qdan bor bo'lmaydi.

Shu bilan birga, kishilar o'z kundalik amaliy, ijtimoiy faoliyatlarida dunyodagi mavjud narsa - xodisalarning ba'zilar ular ongidan,

xoxish-irodasidan tashqari, ularga bog'liq bo'lmagan xolda mavjud ekanligiga, boshqa narsa-xodisalar esa ular ongiga, xoxish va irodalariga bog'liq xolda mavjudligiga ishonch xosil qilib borganlar. Ular bu jarayonda tabiat va jamiyat, o'zlari bilan o'zgalar, inson va tabiat, inson bildan jamiyat, inson bilan uning ongi, inson bilan inson, moddiy narsalar bilan ma'naviy narsalar, tan bilan jon (rux) o'rtasida umumiylik, a'loqadorlik bilan birga farqlar ham borligini bilib borganlar. Bora-bora ular insonning o'zida ham tan bilan jon (rux), tabiiylik bilan ijtimoiylik bir-biridan ajralmagan xolda mavjudligini, birligini ham bila borganlar. Demak, borliq kategoriyasi moddiylikdan tashqari ma'naviylikni ham o'z ichiga oladi. Bu jihatdan inson ongi ham, barcha ongli va ongsiz faoliyatlar xam borliq tushunchasi tarkibigi kiradi, chunki ong xech qachon anglangan borliqdan boshqa narsa bo'lishi mumkin emas, kishilarning turmushi esa ular xayotining real jarayonlaridir.

Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, borliq falsafiy jihatdan juda keng ma'noda butun bir reallik sifatida tushuniladi. Uning tarkibiga, yuqorida aytilganlardan tashqari, inson xali o'zlashtirib, bilib ulgurmagan narsalar, tabiat xodisalari ham, tabiat boyliklaridan foydalangan xolda insoniyat yaratgan barcha narsa va hodisalar, jarayonlar ham, kishilarning ijtimoiy hayotlari ham, ularning o'zlari, fikrlari, g'oyalari, qarashlari, jamiyatlardagi barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ma'naviy munosabatlar ham kiradi. Binobarin, moddiy narsa va xodisalar bilan bir qatorda ma'naviy hodisalar ham «borliq» kategoriyasi bilan ifodalanadi. Demak, falsafa o'rganadigan qaysi bir masalani olmaylik, pirovardida u borliq muammosi bilan bog'liqdir.

Borliqning asosiy turlari muammosiga turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, materializm o'z e'tiborini moddiy borliqqa qaratib, uni birlamchi, belgilovchi deb xisoblaydi. Idealizm esa, odatda, borliqni ma'naviy shakllariga e'tibor beradi, u ma'naviy-ruxiy borliqning shakllarini birlamchi, belgilovchi deb e'tirof etadi. Darhaqiqat, borliq shakllarini dastlab bir-biridan farq qiluvchi va ayni vaqtda bir-biri bilan o'zaro a'loqadorlikda bo'lgan moddiy va ma'naviy borliqqa ajratish qulay. Ammo ular o'rtasidagi farq nisbiydir, chunki ular har biri o'z navbatida yana bir qancha shakl va ko'rinishlarga ega. Shunga ko'ra moddiy borliqni: tabiiy borliq, insoniy borliq va ijtimoiy borliqqa, ma'naviy-ruxiy borliqni esa individuallashtirilgan ma'naviy borliq va ob'ektivlashtirilgan ma'naviy borliqqa bo'lish mumkin. Umumiy lashtirilgan tarzda esa borliq shakllari quyidagilardan iborat:

1. Tabiiy borliq.

2. Inson borligi.
3. Ma'naviy borliq.
4. Ijtimoiy borliq.

Endi shular ustida kengroq to'xtalaylik. **Tabiiy borliq** ikki xil ko'rinishga ega: 1) insongacha, uning ongidan tashqari va unga bog'liq bo'lmagan xolda mavjud narsa, hodisa va jarayonlarni o'z ichiga olgan tabiat. Uni shartli ravishda «birlamchi tabiat» deb xam ataladi. 2) inson tomonidan tabiatdagi narsa va xodisalarga monand yaratilgan tabiiy borliq, boshqacha aytganda, «ikkilamchi tabiat». Ikkilamchi tabiat ijtimoiy xayotda inson extiyojini qondirish zaruriyati, ijtimoiy turmushda biror-bir funktsiyani bajarish zaruriyati tufayli yaratiladi. Masalan, madaniy o'simliklar, uy xayvonlari, binolar, yo'llar, kiyim-kechaklar, sun'iy xom-ashyo va xokazolar. «Ikkilamchi tabiat», bir tomondan, «birlamchi tabiat» kabi, ob'ektiv, real borliq bo'lib, inson ongidan tashqarida mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan, u insonga bog'liq hamdir, chunki unda kishilarning maqsadlari, g'oyalari, bilim va mehnatlari mujassamlashgan bo'ladi. Shu ma'noda «ikkilamchi tabiat» nisbiy mustaqil borliqdir.

Inson borlig'i aloxida olingan shaxs borlig'i va butun insoniyat borligi ko'rinishida mavjud bo'ladi. Inson borlig'ida tabiat va jamiyatdagi hamma narsalar uchun umumiy bo'lgan tomonlar, xususiyatlar ham mavjuddir. Bu jihatdan inson borlig'i tabiati va moxiyatiga kura eng murakkab borlig', shaklidir. U ham tabiat, ham jamiyat, ham ruxiyat qonunlariga buysunadi. Inson mavjudligining asosini inson tanasidagi xayot tashkil qiladi. Tanada birinchi navbatda hayot jarayoni, yani oqsil tanachalarining yashash usuli – moddalar almashish jarayoni kechadi. Lekin jonli tananing o'zi xali inson borlig'ini tashkil qilmaydi. Alohida kishining individual borlig'i dastavval tana va ruxning borligidan iborat bo'lib, shu alohida kishining hayoti va faoliyati, munosabatlarning ja'mini o'zida qamrab oladi.

Inson xis qiluvchi va fikrlovchi jonli tanaga ega bo'lgan alohida real tabiiy individ sifatida mavjuddir. Shu bilan birga inson ongga ega bo'lgan, evolyutsiya tufayli kelib chiqqan aloxida, o'ziga xos noyob bir mavjudot hamdir. Insonning bu noyobligini uning ruxiy dunyosi tashkil qiladi. Lekin inson ayni vaqtda ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning maxsuli bo'lgan ijtimoiy mavjudot hamdir. Bular inson borlig'ining eng muhim belgilaridir.

Ma'naviy borliq inson borlig'ining yana bir ko'rinishi bo'lib, u individual va ijtimoiy ong jarayonlarini o'z ichiga oluvchi ma'naviylik, ma'naviy qadriyatlar va ma'naviy boyliklardan iboratdir. Ma'naviylik – bu ko'p qirrali ong va ongsizlik jarayonlarini o'z ichiga oluvchi inson xayot tajribalari, u egallagan axloqiy, siyosiy, xuquqiy, diniy, falsafiy

qarashlari, shuningdek, fanlarni o'rganish asosida olgan bilimlari, badiiy, texnik va ilmiy ijodlarining yig'indisi xisoblanadi. Individuallashgan ma'naviy borliqning tashuvchisi - bu individ ongi va ruxiyatidir. Ular individ dunyoga kelishi bilan paydo bo'ladi va olamdan o'tishi bilan yo'qoladi.

Ob'ektivlashgan ma'naviy borliq individ ongidan tashqariga chiqib, ob'ektivlashgan, reallashgan, moddiylashgan g'oyalar, fikrlar, qarashlardir. Masalan, san'at asarlari, madaniyat obidalari va boshqalar. Uning bir ko'rinishi – bu til (nutq). Til – reallashgan ongdir. Ijtimoiy borliq shaxs va jamiyat xayotining moddiy tomonlarini o'z ichiga oladi: moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'zaro kirishadigan munosabatlar ana shunday munosabatlarga kiradi. Ijtimoiy borliq ijtimoiy ong bilan chambarchas bog'liq, ular bir butun jamiyat xayotining ikki – moddiy va ma'naviy tomonlarini tashkil etadi.

Shunday qilib, kurdikki, borliqni tashkil etuvchi narsalar, xodisalar ko'pligi va xilma – xilligidan borliqning turli – tuman mavjudlik shakllari yuzaga keladi.

II. **“Substantsiya”** (lotincha, tarjimada «moxiyat») narsalarning moxiyatini ifodalovchi tushuncha. Substantsiya deganda falsafada qadimda barsa narsa va xodisalarning asosini tashkil etuvchi moddiy yoki ruxiy birlamchi narsa tushunilgan. Mazkur kitobning 2-va 3-mavzularida ko'rib utilganidek, qadimga davr materialistlari suvni, xavoni, olovni, atomlarni, ya'ni moddalarning biror turini substantsiya deb tushunganlar. O'rta asr sharq falsafasi namoyondalari al-Kindiy, ar-Roziy, Forobiy, Ibn-Sino, Ibn-Rushd o'z falsafiy qarashlarida substantsiya hamma narsaning moddiy asosi, ularning moxiyati deb qaraganlar.

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, boshqa bir gurux faylasuflar substantsiya deganda butun mavjudlikning asosi bo'lgan mutloq g'oyani, ruxni, yoki sub'ekt ongi va shu kabilarni tushunishadi. Masalan, qadimgi yunon mutafakkirlaridan Pifagor raqamlarni, Platon g'oyani substantsiya deb biladi. Gegel esa mutloq g'oyani substantsiya deb qarab, uni narsalarning muhim, o'zgaruvchan, rivojlanuvchan tomonlari yaxlitligi deb ta'riflaydi. Faylasuflarning yagona asos to'g'risidagi qarashlari **monizm** deb ataladi. Monizm yo materialistik, yoki idealistik bo'lishi mumkin. Faylasuflar orasida dunyoning asosini bir narsa emas, balki ikki narsa – ham g'oya (rux), ham materiya tashkil etadi, deguvchilar ham bo'lgan. Masalan, yangi zamon falsafasida frantsiyalik mutafakkir Rene Dekart substantsiya muammosini ko'rib chiqar ekan, u borliqning asosida ham materiya, ham rux yotadi degan. Bunday qarash **dualizm**

(lotincha, tarjimada «dua»- ikki degani) deb ataladi. Dualizm ta'limoti tarafdorlari borliq asosida bir-biriga bog'liq bo'lmagan ham materiya, ham rux (g'oya) yotadi, ular o'rtasida xech bir umumiylik yo'q, deyishadi.

Substantsiya muammosini xal qilishda monistik va dualistik qarashlardan farqli o'laroq, plyuralistik qarashlar ham mavjud. **Plyuralizm** ta'limoti nuqtai-nazariga kura, borliqning asosini yakka bir narsa emas, balki ko'p narsalar tashkil etadi. Dunyodagi ja'mi mavjudotlar yagona bir ibtidoaga ega bo'lmagan ko'pdan-kur, har hil asoslardan tashkil topganlar.

Substantsiyani materiyani tashkil etuvchi moddiy elementlar bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Bir paytlar barcha jismlar materiyaning bo'linmas shakli – atomlardan tashkil topgan degan tasavvur xukmron bo'lgan va atomlar substantsiya deb e'lon qilingan edi. Xozirgi zamon fani har qanday jism molekulalardan, molekulalar atomlardan, atomlar esa yadro va elektron qobiqlardan tashkil topgan, deb tasdiqlamoqda.

Materiyaning ko'rinishi va uning tuzilishi ham o'zaro farqlanadi. Materiyaning ikki ko'rinishi mavjud – bular modda va nomodda ko'rinishlaridir. Ular bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, o'zaro to'qnashganda keskin sifatiiy o'zgarishlar ro'y beradi, ya'ni modda va antimodda to'qnashsa, materiyaning modda ko'rinishi nomodda ko'rinishiga aylanadi, muayyan maydondagi nurlanishlar esa zarracha va antizarrachalarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Materiyaning tuzilishiga kura o'lchovi, miqyosi bilan farqlanuvchi uchta darajaga bo'linadi: bular – makrodunyo, mikrodunyo va megadunyodir. **Mikrodunyoga** atom mikiyosidan kichik ulchovli tuzilmalar kiradi. **Makrodunyo** – ko'zga ko'rinadigan jismlar, **megadunyo** – samoviy jismlardir.

Tashkiliy struktura darajalariga kura materiyani anorganik, organik materiya va jamiyatga ajratamiz. Anorganik materiyada kimyoviy va fizikaviy aloqadorliklar xukmronlik qiladi, shu tufayli jonsiz tabiatdagi qonuniyatlar shu fanlar doirasida cheklangan bo'lib, bu materiya nisbatan sust va tashkiliy uyushganligi jixatdan quyi darajada, faolligi kuchsiz bo'ladi. Jonli tabiatda biologik aloqadorliklar ham qatnashganligi sababli uning uyushganlik darajasi yuqoriroq, faolroq va tuzilishi murakkabroq bo'ladi. Jamiyatda materiya o'ta uyushganligi, nisbiy mustaqilligi va oliy darajadagi faolligini namoyon qiladi. Materiyani tashkil etuvchi turli elementlar va turli jismlar o'rtasidagi aloqadorlik hamda ularda yuz beruvchi o'zgarishlar xarakatni keltirib chiqaradi.

III. Materiyaning yashash usuli xarakatdir. Xarakat tufayli har qanday narsaning yaxlitligi saqlanadi, chunki xarakat tufayli jismlarning tarkibiy qismlari o'zaro ta'sirga kirishib, bir butunlikni xosil qiladi. Xarakat tufayli atomlar va molekulalarda o'zgarishlar sodir bo'ladi, o'simliklarda moddalar almashadi, energiya va axborot uzatiladi, xarakat tufayli xayvonot olami va inson muxit bilan aloqada bo'ladi, jamiyat rivojlanadi. Xarakat tufayli xayot kelib chiqadi va uning davomiyligi ta'minlanadi. Xarakatning bir-biridan farq qiluvchi bir necha shakli mavjud. Ular oddiydan-murakkabga, quyidan yuqoriga qarab takomillishib boradi. Materiya xarakatining quyidagi asosiy shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Mexanikaviy xarakat – jismlarning fazoda urnini almashinuvi.
2. Fizikaviy xarakat – issiqlik, yorug'lik, elektr, magnetizm xodisalari.
3. Kimyoviy xarakat – kimyoviy birikish va parchalanish, agregat xolatlarining bir – biriga o'tishi.
4. Biologik xarakat – tirik tabiat jarayonlari.
5. Ijtimoiy xarakat – mehnat, ishlab chiqarish, ijtimoiy xayot, kishilar o'rtasidagi xilma – xil munosabatlar va jarayonlar.

Xarakat shakllari bir-biridan tashkiliy tuzilish darajalarining xilma-xilligi, kelib chiqishi ketma-ketligi hamda moddiy tashuvchilari bilan tafovutlanadi. Xarakat hamisha muayyan joyda – fazoda va ma'lum davomiylik mobaynida—vaqtda amalga oshiriladi. Xarakatlanuvchi materiya o'zining xususiyat va xossalarini fazo va vaqtda namoyon qiladi. **Fazo** materiyaning tuzilish tartibi, qo'lam, olamdagi narsalarning o'zaro joylashish vaziyatini ifodalaydi. **Vaqt** jarayonining davomiyligini, xodisa va jarayonlarning ketma-ketligi tartibini ifodalaydi. Fazo va vaqtning xarakatlanuvchi materiya bilan uzviy bog'liqligidan «fazo va vaqt – materiyaning mavjudlik shakli» degan xulosa chiqarish mumkin.

Fazo va vaqt masalalari faylasuflarni azaldan o'ylantirib kelgan. Materialistlarning fikricha, fazo va vaqtni materiyadan tashqarida tasavvur qilish mumkin emas. Qadimgi sodda materialistlar, masalan, naturfilosofiya («tabiat falsafasi») vakillari Demokrit va Epikur fazoni hamma joyini eganlagan xarakatsiz bo'shliq deb, vaqtni esa bir maromda o'tib boruvchi oqim deb talqin etganlar. Idealistlar esa fazo va vaqt inson ongi, idroki bilan bog'liq sub'ektiv narsalar deb tushuntirganlar. Masalan, ekzistentsializm oqimi asoschilaridan biri J.P. Sartrning fikricha, «ular borliqqa xech qanday aloqasi yo'q». Nemis faylasufi I.Kant fazo va vaqt tushunchalari inson ongiga aprior (tajribadan oldin) xudo tomonidan solingan, binobarin, ular tabiatning o'ziga emas, ongga xos tug'ma tuyg'ulardir, degan. Gegel fazo va vaqtni mutloq g'oya bilan bog'lagan. Diniy falsafa,

chunonchi, tasavvufga ko'ra, fazo va vaqtning xususiyatlari xudodandir. «Moddiy olamning chekli va cheksiz bo'lishi,— degan edi sufiy shoir Xujanazar Xuvaydo,- tangri taoloning amri qaroriga bog'liq. Chunki eru-osmon uning irodasida». Umar Xayyom bu to'g'rida shunday yozgan:

***Biz kelib ketguvchi to'garak jahon,
Na boshi ma'lumu na so'ngi ayon.
Xech kimsa rostini aytib berolmas:
Biz qaydan keldigu – keturmiz qayon?!***

Fan ham bu masalani chetlab o'tolmagan. Ingliz olimi I. Nyuton, so'ngra XVIII-XIX asr tabiatshunoslari fazo va vaqt bir-biridan va materiyadan mustaqil mavjud, degan xulosaga kelganlar. XX asr boshlarida «fizik idealizm» oqimi ham shunga o'xshash xulosalar bilan fazo va vaqtning ob'ektiv mavjudligini inkor etgan. XX asr boshlariga kelib fanning fazo va vaqt to'g'risidagi ma'lumotlari va bundan kelib chiquvchi falsafiy xulosalar o'zgardi. A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi fazo va vaqt birligini, vaqt oqimi va jismlar ko'lamini xarakat tezligiga, makon xossalari jismlarning fizikaviy tabiatiga, fizikaviy-kimyoviy xossalari atomlarning makonda joylashuviga bog'liqligini tabiiy-ilmiy asosda isbotladi.

Xozirgi zamon tabiiyot fanlari fazo va vaqtni topologik va metrik xususiyatlarga ega deb xisoblaydi. Metrik xususiyatlari – bu miqdoriy jihatdan o'lchanadigan, ko'zga tashlanadigan va nisbiy xususiyatlardir. Bu qatorga ko'lam, bir jinslilik, izotroplik (antiizotroplik) xususiyatlari kiradi. Topologik xususiyatlar esa borliqning tub sifatli jihatlarini bildiradi. Bular qatoriga kompaktlik, bog'langanlik, o'lchamlilik, tartiblashganlik kabilari kiradi. Vaqtning topologik xususiyatlari – orqaga qaytmaslik, bir o'lchamlilik kabilardir. Shunday qilib, borliq, soddaki materialistlar faraz qilganidek, bo'shliqda yoki qutiga o'xshash to'rt tomonli makonda emas, fazo va vaqtda mavjuddir. Fazo va vaqtning xossalari esa moddiy tizimlarning tabiatidan kelib chiqadi. Moddiy ob'ektlarning uch o'lchovi: bo'yi, eni va balandligi bor. Shunga ko'ra, har bir ob'ektning ko'lamini aniqlash mumkin. Biroq narsa-xodisalar, jarayonlarning jami bo'lmish borliqning na boshi, na oxiri yo'q. Sunggi vaqtda fanda «ko'p o'lchamli makon», «ko'p qutbli koinot» tushunchalari paydo bo'ldi.

Vaqt bir yo'nalishi – o'tmishdan kelajakka qarab «oqadi». «Vaqt orom nimaligini bilmaydigan nixoyasiz xarakatdir,- degan edi L.N.Tolstoy. - u hamma narsaga o'z ta'sirini o'tkazadi». «Yillarning

poyonsiz xalqasi nomni ham, qiyofani ham, fe'li-atvorni ham, xatto taqdirni ham o'zgartira oladi», degan edi Platon.

Vaqtning yana bir fundametnal xususiyati uning orqaga qaytmasligidir. Vaqtdan oqilona foydalanish uning qimmatini oshiradi. Vaqtini bilib qilingan ish – vaqtni avaylash demakdir, vaqtida qilinmagan ish esa behuda qilingan ishdur. «Inson boshiga tushishi mumkin bo'lgan eng og'ir yo'qotish, - degan edi qadimgi yunon faylasufi Teofrast, - vaqtni boy berishdir». Agar aql bilan tasarruf qilinsa, hamma narsaga vaqt topiladi. O'z ixtiyoridagi vaqtdan oqilona foydalana olmaydigan kishi vaqt etishmasligidan noliydi. Ayniqsa, ilm va hunar egallash pallası – yoshlikda boy berilgan vaqt keyin afsus va nadomatlarga sabab bo'ladi. Zero alloma shoir Firdavsiy ogoh etganidek:

***Bu kungi yumushni ertaga quymoq marg'ub emas,
Tong-la ne xol ruy berurin kajraftor aytib bermas.***

Shunday qilib, borliqni fazo va vaqtdan tashqarida tasavvur etish mumkin emas, borliq fazo va vaqtda mavjud, fazo va vaqt materiyaning mavjudlik shakllaridir.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Borliq, yo'qlık, mavjudlik, reallık, substantsiya, materiya, materiyaning tuzilishi, borliq shakllari, xarakat, fazo, vaqt.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Borliqning asosiy xususiyatlari nimada?
2. Borliq haqidagi falsafiy tasavvurlar qanday rivojlanib borgan?
3. Borliqning qanday shakllari bor? Ular o'rtasidagi tafovut nimada?
4. Substantsiya to'g'risidagi tasavvurlar rivoji haqida so'zlab bering.
5. Borliq va materiya tushunchalari o'rtasidagi farq va umumiylik nimadan iborat?
6. Xarakatning yalpi umumiyliği deganda nimani tushunamiz?
7. Materiya tuzilishi to'g'risidagi hozirgi zamon tabiiy – ilmiy tasavvurlari haqida gapirib bering.
8. Fazo va vaqtning birligi nimani anglatadi?

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T. Ma'naviyat, 2008.

2. Falsafa. Ma'ruzalar ma'tni. – T., 2000.
3. Falsafa. O'quv qo'llanma. E.Yusupov taxriri ostida. – T., 1999.
4. Qahhorov M.A. Falsafa. Ma'ruza matnlari.- Farg'ona, , 2000.
5. Falsafa. Ma'ruzalarning qisqacha bayoni. I.Rahimov taxriri ostida. – T. Universitet, 1998.
6. Falsafiy qomusiy lug'at. – T., Sharq, 2002.

5- MAVZU

FALSAFADA METOD MUAMMOSI, FALSAFIY QONUNLAR

1. Falsafiy metodologiya tushunchasi. «Metodologiya»(yunon. «metod»- «yo'l» degani) falsafiy metodlar, ya'ni dunyoni tushunish va tushuntirish yo'llari, usullari haqidagi ta'limot. Konkret fanlar uz predmetini maxsus metodlar yordamida o'rganadi. Borliqning birmuncha kengroq, turli sohalar tutashgan jixatlarini o'rganuvchi umumilmiy metodlar (induktsiya va deduktsiya, analiz va sintez, analogiya, modellashtirish, eksperiment, kuzatish va boshqa) metodlar ham bor. Bulardan farqli o'laroq, falsafa borliqni bilish va o'zgartirishning eng umumiy metodlari bilan ish ko'radi. Falsafiy metodologiya konkret va umumilmiy metodlar o'rnini bosmaydi, aksincha, ular uchun nazariy negiz bo'lib xizmat qiladi.

Falsafa va fan tarixida metod haqidagi maxsus nazariyalar yangi davrda, aniqrog'i, XVIII asrda yuzaga keldi. Chunonchi, ingliz faylasufi Frensis Bekon ishlab chiqqan induktiv metod, fransuz faylasufi Rene Dekart yaratgan mexanistik metod shular jumlasidandir. Ammo ko'pincha bunday urinishlar biror juz'iy fan (masalan, mexanika, matematika, biologiya va xokazolar) metodiga umumiy tus berishdan, uni falsafiylashtirishdan nariga o'tmagan. Buni zukkolik bilan payqagan buyuk nemis faylasufi G.-V.-F. Gegel falsafiy metodologiya, falsafiy metodning xarakteri, uning konkret fan metodlaridan tub farqi haqida maxsus to'htalgan. Gegel ob'ektiv idealistligiga borib, metodni borliqdan ajratib, uning rolini biryoqlama mutloqlashtirgan, bo'rttirib ko'rsatgan bo'lsa-da, bu unga falsafa

tarixida birinchi bo'lib dialektikani umumfalsafiy metod sifatida tavsiflashga, uning qonun va kategoriyalarini izchil bir tizimga birlashtirishga xalaqit bermadi.

Falsafiy nuqtai nazardan metod dunyoni bilishning vositasi, narsa-hodisalarning fikriy in'ikosi ekan, demak, u avvalo tafakkurning xususiyatlarini o'zida aks ettiradi, shunga kura, tafakkur yoki fikrlash uslublari ham turlicha bo'ladi:

1. **An'anaviy tafakkur uslublari** (dogmatizm, relyativizm, eklektika, sofistika, metafizika, dialektika).

2. **Zamonaviy tafakkur uslublari** (sinergetika, germeneytika, strukturaviy-funksional tahlil).

Endi an'anaviy metodlar xususida qisqacha fikr yuritaylik:

1. **Dogmatik tafakkur uslubi** yoki **dogmatizm** (lot. «aqida», «qoida» degani) qoida va xulosalarning tarixiyligi va nisbiyligini nazardan soqit qilish, ularni o'zgarmas deb qarashdir. Buning oqibatida aqidaparastlikning turli (siyosiy, falsafiy, diniy, ilmiy va xokazo) ko'rinishlari kelib chiqadi.

2. **Relyativizm** (lot. «nisbiy» degani) borliqda, shu jumladan, fikrimizda barqaror, muqim, doimiy xech narsa yuq, dunyo xaqidagi bilimlarimiz xuddi dunyoning o'zi singari nisbiy, shartli, beqaror deb qarashdan iborat.

3. **Eklektika** (yunon. «tanlamoq» degani) turli-tuman, gohida bir-biriga teskari, zid fikrlar, qarashlarni sun'iy tarzda bog'lashga, birlashtirishga urinuvchi, aslida fikriy, mantiqiy boshboshdoqlik.

4. **Sofistika** (yunon. «mohir», «usta» degani) oqni-qora, qorani-oq deb suhbatdoshni chalg'itishga, chalkashtirishga asoslangan soxta donishmandlik.

5. **Metafizika** (yunon. «fizikadan keyingi») borliqda va tafakkurda o'zaro aloqadorlik hamda ziddiyatlar mavjudligini inkor etuvchi, Gegel ta'biri bilan aytganda, antidiialeklik fikrlash uslubi.

Sanab o'tilgan uslublarda murakkab tafakkur jarayonining biror-bir tomoni, jixati, bosqichi yoki xususiyati boshqalaridan ajratib olinib, haddan ziyod bo'rttirib yuborilganligi sababli ular biryoqlamalilik kasb etgan, va xolanki, shular hisobga olinmasa, mazkur metodlarning har birida ozmi-ko'pmi ratsional, ya'ni aqlga muvofiq keluvchi xossalari mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Shu jihatdan ularni yagona bir mukammal metodga birlashtirishga intilishning natijasi sifatida yuzaga kelgan dialektik metod g'oyat qimmatlidir.

II. Falsafadagi an'anaviy metodlarga avvalo dialektika va metafizikani kiritamiz. **Dialektika** (yunon. «baxslashmoq», «suxbatlashmoq» degani) borliqdagi narsa-xodisalar yalpi aloqadorlikda, doimiy o'zgarishda, rivojlanishda, o'zaro ziddiyatli

birlikda, deb talqin etadi. Qadimgi yunon falsafasida dialektika dastlab bahs-munozara yuritish san'ati deb ta'riflangan, keyinchalik Geraklit, Milet falsafiy maktabi vakillari, pifagorchilar dunyo haqidagi eng umumiy va teran fikrlarni «dialektik fikr» deb baholay boshlaganlar. Chunonchi, Efeslik Geraklitning: «Hamma narsa o'zgarishda, oqib turadi», «Oqar suvga ikki bor tushib bo'lmaydi», «Kurash – borliqning otasi va mavjudotning xukmdori», Pifagorning «Haqiqat dengiz tubida», «Inson – hamma narsaning me'yori» kabi fikrlari dialektik, ya'ni chukur falsafiy fikrlar hisoblangan.

Dialektik tafakkur uslubining ijodkori deb Aristotel mashxur aporiyalari, ya'ni falsafiy-mantiqiy rivoyatlari bilan nom qozongan, aporiyalarda borliq va inson fikrining ziddiyatli ekanligini yorqin ifodalay olgan qadimgi yunon faylasufi Zenonni kursatgan. Aristotelning o'zi dialektikani ehtimoliy fikrlar to'g'risidagi mantiqiy ta'limot bo'lmish «analitika»ning muqobili deb tushungan. Boshqa bir buyuk yunon mutafakkiri Platon haqiqiy borliqni («g'oyalar olami»ni) o'zgarimas va aynan birday deb talqin etsa-da, dialektik tafakkur fikrlash san'atining chuqqisi sifatida hammaga emas, balki faqat tanlangan zotlargagina berilgan, deb hisoblagan. «Sofist» va «Parmenid» nomli dialoglarida u: «Mavjudotning oliy jinslari faqat shunday tarzda fikr qilishlari mumkinki, ulardan har biri mavjuddur va mavjud emasdir, o'ziga o'zi tengdir va teng emasdir, o'ziga aynan o'xshashdir va uzga holatga o'tib turuvchidir. Borliq ziddiyatli: u bitta va ko'p, abadiy va o'tkinchi» deb yozgan va bu bilan dialektik fikrlash uslubini ulug'lagan edi.

Dialektika sharq, jumladan, IX-XII asrlar Markaziy Osiyo falsafasida ham muhim o'rin tutgan. Professor O.F.Fayzullayevning yozishicha, «dialektika» terminini sharq falsafasida ilk marta «jadl», «jadliy», «jadal» tarzida vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy qo'llagan. U borliq xodisalari o'zaro ta'sir natijasida yuz beradi, o'zgarishsiz narsa yo'q, borliq va fikr ziddiyatlidir, degan. «Oniy va boqiy», «botiniy va zohiriy» kabi tasavvufga xos, «xalol va xarom», «jannat va do'zax» singari islomiy tushunchalarda ham dialektika o'ziga xos namoyon bo'ladi.

Evropa uyg'onish davrida Nikolay Kuzanskiy va Jordano Bruno «qarama – qarshiliklarning mos kelishi», yangi davrda Rene Dekart va Borux Spinoza «o'zini-o'zi shartlab yuz beruvchi xarakat», XVIII asrda Immaniul Kant fizik va kosmogonik tabiatdagi rivojlanishning yuz berishi xaqida dialektik g'oyalarni ilgari surdilar. Buyuk nemis mutafakkiri G.-V.-F. Gegel birinchi bo'lib «tabiiy, tarixiy va ruhiy olam jarayondan iborat, ya'ni borliq bu – uzluksiz xarakat, o'zgarish, bir holatdan boshqasiga o'tish va rivojlanishdir, bu xarakat va o'zgarish ich-ichidan o'zaro aloqadordir» degan fikrni falsafiy-mantiqiy

jixatdan asoslab bergan edi. Gegelning «hamma narsa o'z inkoriga keladigan zaruriyat» degan g'oyasi ham chuqur dialektik fikrdan iborat.

Dialektik metod tabiat va jamiyatni tushunishga ham, bilish nazariyasi va amaliyotga ham, materializm va idealizm ta'limotlariga ham birday tatbiq etilishi mumkin. Ana shunday keng qamrovli dialektik tafakkur uslubi nuqtai nazaridan, ziddiyatlar turli-tuman, ko'p qirrali va ko'p qutbli (polipolyar) deb tushunilishi lozim. Ilgari ziddiyatlarni xalq etish uchun kuch ishlatish, tazyiq o'tkazish asosiy vosita deb qaralgan bo'lsa, endilikda, yangicha tafakkur nuqtai nazaridan ziddiyatlar tinch yo'l bilan, murosai-madara usuli bilan ularning tutash nuqtalari topilib, o'zaro kelishtirilib bartaraf etiladi. Shunga muvofiq, «tarixni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o'rtasidagi hamkorlik va ishonch olg'a xarakatlantiradi» (Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent, 1997, 323-bet) degan fikr g'oyatda chuqur dialektik mazmun kasb etadi. Muhimi – mavjud ixtiloflar murosasiz sotsial ziddiyatlarga – antagonizmlarga aylanib ketmasidan ularni hal qilishdan iborat. Shu bilan birga kishilar, guruhlar, sinflar, turli davlatlar o'rtasida adovatga olib bormaydigan «muayyan, noantagonistik ziddiyatlarning mavjudligi yangi mustaqil davlatlarning qaror topishi davri uchun real hodisadin» (O'sha joyda, 75-bet). Shunday qilib, shuro tuzumi hammaning tafakkur uslubi bir qolipda bo'lishini talab qilgan bo'lsa, endilikda – mustaqillik davrida fikrlar xilma-xilligi va erkinligi sharoitida bu mutlaqo o'rinsiz va asossiz talabdir.

Yangi sharoitda olamdagi yalpi universal aloqadorlik va taraqqiyot tamoyillarini o'z ichiga olgan, ularning murakkab tabiatini o'zaro bog'liqlikda teran tushuntirib berishga qodir dialektik metodga ehtiyoj yanada oshib bormoqda. Mustaqillik davrida dialektik fikrlash uslubi anglab olingan zaruriyat tarzida «qayta tug'ilmoqda». Dialektika mustaqil O'zbekistonni bir butun, yaxlit ijtimoiy tizim sifatida idrok etish, atroflicha islox qilish, mustaqillikni mustahkamlash, yangi taraqqiyot modelini asoslash hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga yo'l ochishda o'zining xayotiyligi va ta'sirchanligini isbotlamoqda.

III. Dialektikaning qonun va kategoriyalari. Dialektika borliq muttasil o'zgarish va rivojlanishda deb qarash bilan birga bu jarayonning eng umumiy, ya'ni universal qonunlari ham mavjud deb hisoblaydi. Rivojlanish qarama-qarshiliklarga asoslanadi. Qarama-qarshiliklarning o'zaro kurashi, ya'ni ziddiyat ana shu jarayonga ichki turtki beruvchi manba hisoblanadi. O'zgarishlar turlicha bo'lishi mumkin: miqdoriy va sifatiy, tarkibiy va tuzilmaviy, shakliy va

mazmuniy, ichki va tashqi, holat o'zgarishlari va boshqalar. Ammo har qanday o'zgarish ham rivojlanishga olib kelavermaydi, agar o'zgarishlar natijasida yangilik (yangi narsa, hodisa, xossa, sifat yoki bog'lanish) yuzaga kelsagina buni rivojlanish deyish mumkin bo'ladi. Masalan, mustaqillik hamda bozor isloxlari tufayli O'zbekistonda jamiyatning tamomila yangi sifat holatiga o'tilmoqdaki, bu jarayonni, shubhasiz, rivojlanish deb baholash mumkin.

Demak, **rivojlanish** bu tasodifiy, uzuq-yuluq, yuzaki o'zgarish emas, balki zaruriy, qonuniy, izchil, tizimli o'zgarishdir. Xo'sh, rivojlanishning butun borliqqa xos eng umumiy qonuniyatlari bormi va ular nimalardan iborat?

Ushbu savolga javob berishdan oldin «qonun» tushunchasining mazmunini aniqlab olaylik. **Qonun** – predmet va hodisalar o'rtasidagi ichki, muhim, zaruriy va takrorlanib turuvchi bog'lanishlardir. Aynan takrorlanib turganligi uchun ham bu bog'lanishlar qonuniy tus oladi va tegishli qayd etiladi. Masalan, yil fasllarining almashinuvi minglab marotaba takrorlanganidan qonun tusiga kirgan va «tabiat qonuni» deb e'tirof etiladi.

Qonunlar uch turga bo'linadi:

1. Xususiy qonunlar (borliqning biror sohasiga oid, masalan, kimyo, biologiya, fizika va boshqa maxsus fanlar o'rganadigan qonunlar).
2. Umumiy qonunlar (borliqning kengroq biror sohasiga oid, masalan, tirik tabiat qonunlari).
3. Eng umumiy qonunlar (butun borliqqa xos bo'lgan universal qonunlar)

Tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotida bir xilda amal qiladigan eng umumiy qonunlarga quyidagilar kiradi:

1. Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'zaro o'tishi qonuni.
2. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni.
3. Inkorni-inkor qonuni.

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'zaro o'tishi qonuni rivojlanish qay tarzda yuz berishini, yangilikning kelib chiqish «mexanizmi»ni ko'rsatadi. Bunda miqdoriy o'zgarishlar ta'sirida, avvalo, predmetning ayrim xossalari o'zgaradi, so'ngra, miqdor o'zgarishlari ma'lum darajaga etgach, eski me'yor buzilib, predmetni aynan shu predmet qilib turgan muhim xossalari yig'indisi, ya'ni sifat ham o'zgaradi. Masalan, harorat asta-sekin oshirib borilib, yuz darajaga etganda suv qaynay boshlaydi, bunda u o'z sifat holatini o'zgartirib, yangi sifat holatiga – bug' holatiga o'tadi, nol darajada esa suv molekulalarining xolati shunday qayta tuziladiki, suv yana boshqa sifat holatiga, ya'ni, muzga aylanadi. Demak, suv, bug',

muz – bular bir narsaning turlicha miqdoriy o'zgarishlar ta'sirida yuzaga keladigan uch xilma-xil sifat holatlaridir.

Agar miqdoriy o'zgarish sezilarli bo'lmasa, miqdor bilan sifatning birligi bo'lmish **me'yor** buzilmaydi. Qachonki miqdoriy o'zgarishlar sezilarli bo'lganda miqdor ham, sifat ham o'zgarishga uchrab, yangi miqdor va sifat, demakki, yangi me'yor yuzaga keladi. Yangi me'yor esa, yangi narsa paydo bo'lganini bildiradi. Masalan, suv molekulasiga yana bir atom qo'shilsa, u boshqa moddaga aylanadi.

Me'yorni bilish va unga rioya qilish hamma joyda kerak. «Me'yorni bilmasang, eng yoqimli narsa ham behad yoqimsizga aylanadi», degan edi buyuk yunon mutafakkiri Demokrit. Narsa – hodisalarning miqdoriy jixatlari matematik usulda hisoblanadi, ularning sifati esa xossalar orqali o'rganiladi. Xalqimizning ajoyib naqliga ko'ra, hamma yerda o'ziga yarasha toshu-tarozi bor. Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'zaro o'tishi qonuni «Toma-toma ko'l bo'lun», «Qimirlagan qir oshan», «Oz-oz o'rganib dono bo'lun» singari amaliy ahamiyatga molik xulosalar chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni riv o'zlanishning manbai nimada ekanligini ko'rsatib berishi bilan qimmatli. Mazkur qonunga ko'ra, bunday manba narsa-xodisalarning o'z ichki tabiatida, ularning qarama-qarshi tomonlari, xossalari, jixatlari o'rtasidagi kurashdan, ya'ni ziddiyatdan kelib chiqadi. Masalan, jonli tabiatda xukmronlik qiluvchi ikki tomon – irsiyat va o'zgaruvchanlikning o'zaro kurashidan yangi-yangi turlar paydo bo'ladi. Shunga o'xshash jamiyatda turli-tuman g'oyalar, mafkuralar kurashi natijasida haqiqat ayon bo'ladi. Yangilik hamma joyda va hamma vaqtlarda ikkinchi tomon bo'lmish eskilik bilan doimiy kurash olib borish natijasida ming mashaqqat bilan yashash xuquqini qo'lga kiritadi. Bu esa keyingi rivojlanish uchun zamin yaratadi.

Yuqoridagi misollardan kelib chiqadigan falsafiy xulosa shundan iboratki, qarama-qarshiliklar bo'lmasa, ular o'rtasida kurash amalga oshmasa, xech qanday o'sish, o'zgarish yuz bermaydi. Demak, qarama-qarshiliklar, bir tomondan, biri - ikkinchisini inkor etadi, ikkinchi tomondan, biri - ikkinchisiz yashay olmaydi ham, ya'ni bir-birini taqozo etadi. Ziddiyatning qarama-qarshi tomonlari o'zaro mosligi, birligi kurash yangi bosqichda, yangi shaklda boshlangunicha vaqtinchalik, o'tkinchi xarakterda bo'ladi, ularning o'zaro kurashi esa doimiydir. Shu sababli ushbu qonun «qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi qonuni» deb yuritiladi.

Ijtimoiy xayotni oladigan bo'lsak, kishilarning turli guruhlari, sinflari, siyosiy partiyalar o'rtasida ixtiloflar bo'lishi tabiiy xol, ammo bu

ixtiloflar muqarrar ravishda jamiyatning xalokatli larzalarni boshdan kechirishi bilan hal etilishi shart emas. Ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etishning madaniylashgan, oqilona siyosiy yo'llari mavjud. Masalan, murosai-madora, kelishuv va o'zaro yon berish.

Xo'sh, qarama-qarshiliklar qayerdan paydo bo'ladi? Tafovutlardan. Narsa-hodisalarning boshqa narsalar bilan taqqoslanganda ko'zga tashlanadigan shunday tafovutlari bo'ladiki, bu bir qarashda nomuhimdek tuyulgan tafovutlardan keyinchalik muhim xayotiy tafovutlar, ulardan esa qarama-qarshiliklar o'sib chiqishi mumkin. Qarama-qarshiliklarning o'zaro murakkab munosabati esa **ziddiyat** deyiladi. Qarama-qarshiliklar ziddiyat bosqichiga o'tib, inson va jamiyatga zarar etkazmasidan ularni payqash va hal qilish o'ta muhim amaliy ahamiyatga molik. Bu davlat va jamiyat boshqaruvi, rahbarning donoligiga, voqealarni oldindan ko'ra bilishiga ko'p jixatdan bog'liq.

Dialektikaning uchinchi qonuni – **inkorni inkor qonuni** rivojlanishning davomiyligini, umumiy yo'nalishini ko'rsatadi. Bu qonunga ko'ra, dunyoda hamma narsa o'zgarib turar ekan, bugun yangilik bo'lgan narsa vaqti kelib o'zining qarama-qarshisiga aylanadi, ya'ni eskiradi, o'z-o'ziga zid bo'lib qoladi, yanada yangiroq biror boshqa narsa bilan ziddiyatga kirishadi. Eskining yangi tomonidan bartaraf etilishi jarayoni **inkor** deyiladi. Inkorning ikki turi mavjud: dialektik va metafizik inkor.

Dialektik inkor – bu eskini tamomila yo'q qilish, rad etish emas, balki undagi ijobiy xossa va tomonlarni saqlab qolgan holda yangi uchun asosga aylantirish demakdir. Masalan, halqimizning «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzma» degan maqolida dialektik inkorning ana shu davomiyligni ta'minlaydigan hayotiy muhim xususiyati aks etgan. Shu jixati bilan dialektik inkor rivojlanish jarayonining muhim sharti va momentiga aylanadi.

Rivojlanishning cheki yo'q, demak, inkor jaryonlari ham cheksiz davom etishi mumkin. Masalan, urug' yerga tushib, qulay sharoitda o'simlikka aylanadi, bu – inkor. Agar o'simlik nixolga aylansa, bu – inkorning inkori. Nixol usib, daraxtga aylansa, bu ham inkor, bu daraxt meva tugsa, bu navbatdagi inkordir. Demak, «**inkorni inkor**» ramziy ma'noda aytilgan bo'lib, aslida rivojlanishda inkorlar juda ko'p uchraydi va ular taraqqiyotning uzluksizligi hamda davomiyligini anglatadi.

Inkorni inkor qonuni rivojlanishning umumiy yunalishini ham ko'rsatib beradi. Ayrim mutafakkirlar rivojlanishni to'g'ri chiziq bo'yicha amalga oshadi deyishsa, boshqa bir faylasuflar doira ichida, yana boshqalari uchburchak ko'rinishida deb hisoblaydilar. Dialektikaga

ko'ra murakkab rivojlanish jarayonini biror-bir shaklga majburlab kiritish aslo mumkin emas. Biroq uni shartli ravishda g'oyatda murakkab, yuqorida sanab o'tilgan chiziqli, doirasimon va ilgarilanma xarakatlarning mujassami sifatida spiral ko'rinishida tasvirlash mumkin. Gap shundaki, tarixda hamma narsa takrorlanadi, ammo bu takrorlash nisbatan yuqoriroq bosqichda, yangi zamonu-makonda amalga oshadi. Spiral ana shu qonuniyatni, ya'ni inkorni inkor natijasida yuqoriroq bosqichda boshlang'ich holatga qaytishni yorqin ifodalaydi. Shu ma'noda **rivojlanish spiralsimon** xarakatdir, deyish mumkin.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, rivojlanish bir chiziqli va muqarrar jarayon emas. Ilgarilanma xarakat o'zgarishning bir yo'nalishi, xolos. O'zgarishning boshqa yo'nalishlari qatoriga regress (orqaga ketish), depressiya(turg'unlik) ham kiradi, shu ma'noda, rivojlanish, yuqoridagi o'zgarishlardan farqli o'laroq, ilgarilab borish va cheksizlikka intilishdir. Atoqli rus mutafakkiri V.G.Belinskiy ta'biri bilan aytganda, intilishsiz o'sish ham, taraqqiyot ham bo'lmaydi. «Taraqqiyot,- degan edi buyuk nemis tabiatshunosi E.Gekkel, -tabiiy qonun, u uzoq vaqt davomida inson kuchi, zolimlar quroli va ruxoniylar qarg'ishi bilan buyuk tuyilishi mumkin emas».Darhaqiqat, rivojlanish izchil ilgarilanma xarakat tufayli mavjud.

Taraqqiyotning to'xtab qolishi jamiyatning sekin-asta nurashi degani. Buyuk olim N.G.Chernishevskiy «taraqqiyotni rad etmoqlik, xuddi tabiat qonunlarini rad etish kabi bema'nilikdir» deganida, shubhasiz, haq. Dialektika qonunlari rivojlanishga peshvoz chiqishi, uni idrok etish va tushunishga yordam berishi bilan yanada qimmatlidir.

Borliqdagi umumiy aloqadorlik va rivojlanishni dialektika qonunlaridan tashqari uning kategoriyalari ham ifodalaydi. **Kategoriya** (yunon. «ko'rsatma», «guv oxlik») mantiqiy-gnoseologik va prakseologik qimmatga ega umumiy tushunchadir.Aksariyat falsafiy kategoriyalar juftlikda bo'lib, narsa-xodisalarning ichki tabiati va mohiyatini aks ettiradi. Ana shunday umumiy tushunchalar qatoriga ayrimlik va umumiylik, mohiyat va hodisa, mazmun va shakl, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik, zaruriyat va tasodifiyat kabi kategoriyalarni kiritish mumkin. Endi ushbu kategoriyalar xususida qisqacha to'htalaylik.

Ayrimlik va umumiylik, boshqa barcha dialektika kategoriyalari singari, narsa-xodisalarning bir-birini taqozo etuvchi ikki tomonini ifodalaydi, binobarin, biri-ikkinchisiz mavjud bo'lolmaydi. Ayrim narsa-hodisa, albatta, biror-bir umumiy sinf yoki turkumga mansub bo'ladi. Masalan, «archa» - ayrimlik, u umumiylik bo'lmish «daraxt»

tushunchasiga kiradi. Demak, umumiylik o'z xolicha uchramaydi, u ayrimliklardan tuziladi, ayrim-ayrim narsalardagi umumiy, mushtarak jixatlar, xossalarni umumlashtirishdan xosil bo'ladi. Rivojlanish jarayoni ayrimlikdan umumiylikka tomon yo'nalgan bo'ladi: chunki har qanday yangilik avvalo ayrim xolda paydo bo'lib, so'ngra ommalashib, umumiy tus olib boradi. Bu qoida hamma narsalar qatori axloq-odob me'yorlarida ham namoyon bo'ladi, chunki har bir ayrim inson bu umumiy qoidalarni bilib, o'zlashtirib, o'ziga tog'ri yo'l topadi. Ayrimliklar birlashib, qudratli umumiy kuchni xosil qiladi. Shu ma'noda «Kuch - birlikda» deyiladi.

Narsa-hodisaning tashqi, zoxiriy tomoni – **hodisa**, ichki, botiniy jixatlari **mohiyat** deyiladi. Hodisa – yuzada, uni kuzatib, sezib, bilish mumkin, mohiyatga aql-idrok, tafakkur bilan yetishiladi. Masalan, yorug'likni ko'z bilan sezamiz, ammo uning elektromagnit to'lqinlari oqimi ekanini aql bilan anglaymiz. Mohiyatni bilish hodisasini o'rganishdan boshlanadi, biroq dastlabki taassurot ko'pincha aldamchi bo'ladi. Masalan, sarob. Shu bois birinchi darajali, yuzakiroq mohiyatdan ikkinchi darajali, chuqurroq mohiyatga, undan yanada teranroq'' ichki mohiyatli bog'lanishlarga o'tiladi.

Mazmun – narsaning barcha tomon, xossa va elementlari majmui, **shakl** – uning ifodalanish uslubi. Mazmun shaklda ifodalanadi, shaklni taqozo qiladi va belgilaydi. Chunonchi, kiyim odamga qarab bichiladi. Mazmun o'zgarsa, shakl ham shunga monand o'zgarib boradi. Ko'pincha bir mazmunni bir necha shaklda ifodalash mumkin va lozim bo'ladi. Chunonchi, bir syujetni xikoyada yoki romanda yoki she'r yoki kinofilm janrlarida ifodalash mumkin. Shu bilan birga mazmun nechog'lik to'laqonli ifodalanishi shaklga, tug'ri shakl tanlashga ham bog'lik. Biroq shaklga urg'u berish, shaklni mutloqlashtirish shaklbozlikka (formalizmga) olib kelishi mumkin (Masalan, rasmiyatchilik, qog'ozbozlik, byurokratizm va boshqalar).

Zaruriyat – ro'y berishi muqarrar hodisa, jarayon, **tasodif** esa ro'y berishi ham, ro'y bermasligi ham mumkin. Masalan, o'lim har bir jonotning boshida bor narsa, ammo u qachon va qayerda, qay ko'rinishda yuz berishi tasodiflarga bog'liq. Demak, «sof» tasodif yo'q, u zaruriyat bilan bog'langan, zaruriyatning ifodasi va qo'shimchasi tarzida yuzaga chiqadi. Tasodifiy xodisalar takrorlanaversa, bilingki, u qonuniyatga aylanadi, demak, zaruriyat yuzaga keladi. Masalan, bir necha yil davomida ob-havo surunkali seryog'in kelaversa, demak, iqlim o'zgarayotgani (zaruriyat) haqida xulosa chiqarish mumkin.

Demak, olamda hamma narsa qat'iy zaruriyat deyish qanchalik biryozlamalik bo'lsa, tasodifiyatni yakka xukmron deyish ham

shunchalik biryoqlamalikdir. Birinchi mayl **fideizmga, providentsializm** (taqdir g'oyasi)ga olib borsa, ikkinchisi tartibsizlik, **xaosga** yetaklaydi. Xayotda tasodifga umid bog'lab bo'lmaydi, hamma vaqt qonuniyatni nazarda tutib, puxta rejali ish yuritish kerak, ammo tasodifni ham hisobga olgan, nojoiz tasodiflardan saqlangan ma'qul. Masalan, biznesda, tadbirkorlikda bilingki, bozor tasodiflarga to'la, ammo marketing ilmidan boxabar kishi uchun bu xavf emas.

Narsa-hodisaning ayni xolati – **voqelik**, kelajagi esa **imkoniyat**. Imkoniyat qulay shart-sharoitda yuzaga chiqadi, ya'ni voqelashadi. Masalan, mustaqilligimiz – voqelik, ayni chog'da bu buyuk davlatga aylanish imkoniyati hamdir. Agar narsa-hodisaning istiqboli bo'lmasa, bu **imkoniyatsizlik** deb nomlanadi. Imkoniyatlar yana real, ya'ni voqelikka aylanishi aniq hamda formal, ya'ni voqelikka aylanishi hozircha mavxum, ammo vaqti kelib oydinlashadigan imkoniyatlarga ajraladi. Masalan, maktab bitiruvchisi puxta tayyorgarlik ko'rsa, bu formal imkoniyat bo'ladi. Demak, imkoniyatni xushyor baholay bilish, real imkoniyatni qo'ldan bermaslik, qo'ldan kelmagan ishga behuda urinmaslik lozim. «Vaqting ketdi – naqding ketdi», «Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal» maqollarining ma'nosi shuni aks ettiradi.

Sabab – narsa-hodisaning omili, **oqibat** – sababning natijasi. Hamma narsa, hodisaning sababiyligini e'tirof etish **determinizm** (lotin. «belgilamoq») tamoyili deyiladi. Sababni bilish voqea, hodisalarni **oldindan ko'ra bilish** va **bashorat qilish** imkonini beradi, negaki sabab qanday bo'lsa, oqibat aynan shundaydir. Sabab va oqibat o'rtasida o'tib bo'lmas «xitoy devori» yo'q: ular o'zaro o'rin almashtirib turadi – bir tizimda sabab bo'lgan narsa ikkinchisida oqibatga, oqibat esa vaqti kelib navbatdagi narsa-hodisa uchun sababga aydanadi. Sababiyat zanjiri yuzaga kelishi uchun, sabab kutilgan natijani berishi uchun qulay **shart-sharoit** kerak. Masalan, urug' unib chiqishi uchun tuproqda namlik, harorat, o'g'it bo'lishi, yangi jamiyat qurish uchun moddiy va mehnat resurslari, milliy g'oya va dono rahnamo kerak.

Shunday qilib, dialektika qonun va kategoriyalari borliq va uning rivojlanishi, fikr ziddiyatli ekanini, mutloqlik va nisbiylik, barqarorlik va o'zgaruvchanlik, ichki va tashqi, botiniy va zoxiriy narsa-hodisa hamda jarayonlar o'zaro aloqadorlikda, o'zaro ta'sirda ekanini ko'rsatib, tafakkurimiz ham shunga monand xarakatchan, har tomonni hisobga oladigan va teran bo'lishini taqozo etadi.

IV. **Sinergetika, germenevtika va strukturaviy-funksional taxlil metodlari**. XX asr oxiri – XXI asr boshida falsafa va fan, dialektikani rad etmagan xolda, tafakkurning yangi umumiy metodlarini ilgari

surmoqda. Shulardan biri 70-yillarda belgiyalik fizik, Nobel mukofoti laureati Ilya Prigojin «Beqarorlik falsafasi» asarida bayon etgan sinergetikadir. Uning asosi sakrashsiz – eskini buzmasdan, uzluksiz amalga oshadigan tadriijiy o'zgarish qonuni – **evolyutsiya** g'oyasidir.

Sinergetikaga ko'ra, borliq – beqaror, shu bois o'zgarishlar muqarrar quyidan – yuqoriga, oddiydan – murakkabga va hamisha muayyan umumiy qonunlar bo'yicha bir chiziq bo'ylab amalga oshavermaydi, balki har safar yangicha va betakror, chiziqsiz yuz beradi. Beqarorlik, barqarorlik bilan bir qatorda, borliqning muhim jixatidir. «Barqarorlik va beqarorlik, - deb yozadi I.Prigojin, -ayni bir vaqtda paydo bo'ladi va yashaydi». Dialektika asosan barqaror bog'lanishlar, qonun tusini olgan takrorlanib turuvchi hodisa, jarayonlarni tadqiq etar ekan, demak, u borliq mohiyatini faqat bir yo'nalishda, ma'lum nuqtai nazardangina ochib beradi, va xolanki, borliq haqida to'liq tasavvur xosil qilmoq uchun beqarorlik qonunlarini ham o'rganish zarur.

Qanday qilib beqarorlikdan barqarorlikka o'tiladi – bu nihoyatda katta nazariy va amaliy-siyosiy ahamiyatga molik masala. Sinergetika bu masala taxliilini «bifurkatsiya» - barqarorsizlik tushunchasidan boshlaydi. Bifurkatsiya xaos(tartibsizlik), bo'linish, ajralib chiqish, sekin-asta me'yordan chiqish jarayonlaridan bosqichma-bosqich o'sish, yangi xolatga o'tish, ichki tuzilishning o'zaro birgalikdagi shakllanishi jarayonlarigacha tadriijiy o'zgarishlarni aks ettiradi. Beqarorlikdan o'zini-o'zi qayta tashkil etish, uyushtirish, boshqarish orqali barqarorlikka o'tiladi. Modomiki, bu o'zgarishlar qat'iy bir chiziqqa bo'ysunmas ekan, demak, jamiyat va g'oyalar rivojlanishining modellari, variantlari ko'pdan-ko'p va xilma-xil bo'lishi tabiiydir. Sinergetika tabiat bilan jamiyatning birgalikdagi rivojlanishini «koevolyutsiya» deb ataydi. Nafaqat jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi, balki davlat bilan fuqarolar, insonlararo munosabatlardagi beqarorlik, tartibsizliklar uyushtirish, qayta tashkil etish, boshqarish yo'li bilan barqarorlashtirilishi mumkin degan o'ta muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik xulosalar chiqaradi. Ayniqsa, turli siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, etnik, ekologik tangliklar, inqirozlar, mojaro va ixtiloflarning oldini olish va **xaosdan – tartibga, xalokatdan–evolyutsiyaga, buxronlardan– taraqqiyotga o'tish**ning, barqarorlashtirishning umumiy tamoyillari va qonuniyatlarini kashf etishga urinishi bilan qimmatlidir. Sinergetika borliqning dialektika idrok eta olmagan bu qirra va jixatlarini ochib berishi bilan uni inkor etmaydi, balki olamning yaxlit falsafiy manzarasini yaratish metodlaridan biri tarzida uni to'ldiradi.

Germenevtika (yunon. «tushuntiraman») falsafiy metod sifatida G'arbiy Evropada bundan yuz yilcha muqaddam paydo bo'lgan.

Uni asosan inson voqelikni qanday **talqin** etishi, talqinlar xilma-xilligi keltirib chiqargan omillar qiziqtiradi, zero fikr taxlili – voqelik taxliliga yo'ldir.

Voqelik – bitta, lekin uning talqinlari nega xilma-xil va biri-ikkinchisiga o'xshamagan? Bu voqelikning serqirraligi bilan izoxlanadimi yoki fikr xilma-xilligi, ziddiyatligi bilanmi? Talqinlar rang-barangligi ijtimoiy-siyosiy tartiblar, demokratiya rivoji bilan nechog'lik bog'langan? Shu masalalarni taxlil eta borib, germevntika jamiyatning demokratiyalashuvi, erkinlashuviga ham ko'maklashadi.

Xamma narsani o'rganish zarur, ammo imkon qadar xolis (ob'yektiv) o'rganish kerak – germevntikaning asosiy talabi va shiori shunday. Misol tariqasida A.Navoiyning «Lison ut-tayr» dostonida Xindistonga safar qilgan bir gurux ko'zi ojizlar xaqidagi xikoyatni olaylik. Ulardan «Fil qanday xayvon ekan?» deb so'ralganida filning tishini ushlagan kishi «Katta suyak ekan» deb, qulog'ini ushlagan kishi «Baxaybat yelpig'ich ekan» deb, oyoqlarini ushlagani esa «Katta xoda ekan» deb javob qilgan ekan. Bu ko'zi ojiz bandalarning har biri o'zicha haq, ammo xech biri fil haqida tug'ri tasavvur berolmaydi. Talqin, hozirgi misoldan ko'rinib turganidek, odamning jamiyatdagi mavqei, didi, bilimi, ruhiyati, u yashagan muxit va munosabatlarni, voqelikni aks ettiradi. Binobarin, dunyoni turlicha talqin etish mumkin bo'lganidek, talqinga, fikrga qarab odamga, jamiyatga, voqelikka baho berish ham mumkin.

Shuro davrida kommunistik partiya yakkaxokimligi uning markscha-lenincha mafkurasi yakkaxokimligini tug'dirgan, o'zga fikr va talqinlar ta'qib etilgan, erkin fikr bo'g'ilgan, binobarin, «qizil» mafkura timsolida tuzum qandayligini yaxshi tasavvur qilish mumkin bo'lgan. Qayerdagi fikrlar xilma-xil va erkin bo'lsa, bilingki, u erkin, demokratik jamiyatdir. Talqinlarning yagona emas, ko'pligi va rang-barangligi shu jamiyatning ma'naviy rivoji alomatidir. Shunisi ham borki, talqin boshqa, tushunish boshqa. Har qanday talqin ham anglash, tushunish mahsuli bo'lavermaydi. Haqiqat bitta, ammo talqin ko'pligi – tabiiy xol. Talqinlarni tahlil etib, zamirini ochib, inson va jamiyat taraqqiyotiga oid ko'plab chuqur xulosalarga kelish mumkin.

So'nggi yillarda falsafa va fanda, tizimli obyektlar tahlilida **strukturaviy-funksional tahlil metodi** yaxshi samara bermoqda va ommalashmoqda. Bu metod AQSHlik taniqli sotsiologlar R.Parsons va R.Merton nomi bilan bog'liq. Uning zamirida tizimning funksional xususiyatlarini uning mavjudlik va tuzilmaviy xususiyatlaridan farqlash lozim, degan g'oya yotadi. Mazkur metod asoschilari ushbu g'oyani ijtimoiy tizimlar misolida yaqqol isbotlab berganlar. Undagi turli elementlarning bir-biriga funksional ta'siri strukturaviy darajalar

xususiyatlariga bog'liqligi aniq namoyon bo'ladi. Masalan, R.Mertonning fikricha, ijtimoiy-tuzilmaviy elementlar bilan ijtimoiy funksiyalar o'rtasida qat'iy, bir ma'noli bog'lanish yo'q. Funksiyalar tizimga nisbatan qulay va noqulay (disfunktsiya), oshkora yoki latent (yashirin) bo'lishi ham mumkin. Barcha funksiyalar sotsial tizimning strukturaviy-funksional tahlili modelida, ya'ni paradigmasida mujassamlashtiriladi.

Jamiyat – bir butun ijtimoiy tizim, uning strukturaviy elementlari – iqtisodiyot, siyosiy hayot, sotsial turmush, mafkura, ma'naviyat va boshqalar – bir-biri bilan ham strukturaviy, ham funksional bog'langan. Chunonchi, iqtisodiyot boshqa hayot sohalari (elementlar)ga nisbatan belgilovchilik, ustuvorlik ahamiyatiga ega, ayni chog'da tizim rivojiga siyosiy jarayonlar va ma'naviyatning ta'siri tobora kuchaymoqda. Prezidentimiz I.A.Karimovning «ma'naviyatni iqtisodiy-moddiy hayotdan ustun deb bilaman» degan jumllarida asli xosila strukturaviy elementning funksional jihatdan ustunlik kasb eta olishi xaqidagi xulosaning tasdig'ini ko'rish mumkin.

Strukturaviy jihatdan «siyosat – iqtisodiyotning mujassamlashgan ko'rinishi», «avval iqtisod, keyin siyosat» degan qoida to'g'ri. Ammo bozor isloxlari, yangi davlatchilikka o'tish davrida siyosat funksional jihatdan iqtisoddan birmuncha ilgarilab ketayotganini, ko'plab iqtisodiy muammolar kaliti siyosiy yechimlarda ekanini ham ko'rmasdan ilojimiz yo'q, binobarin, iqtisodiy rivojlanishning siyosiy negizlarini yaratish dolzarblashyapti. Iqtisodiy muammolarning yechimi – iqtisodiyotning o'zidagina emas, u bilan funksional bog'lanishdagi boshqa sohalarda, birinchi navbatda, siyosatda, xuquqiy isloxlarda, ma'naviyat o'zgarishlarida ekani ayonlashmoqda. Ikkinchi tomondan, siyosatning tom ma'nodagi siyosat bo'lishi uchun unga mustahkam tagzamin – iqtisodiy asos kerak, demak, funksional jihatdan ham ular biri-ikkichisiga bog'langan.

Xullas, **strukturaviy-funksional taxlil narsa-hodisani ham tuzilishi, ham qismlarining bajaradigan ishi nuqtai nazaridan nimaligini bilish, anglash metodidir.** Narsa-hodisa, obekt haqida bulardan na birinchisi, na ikkinchisi bergan ma'lumotlar xali to'liq bo'lmaydi, narsaning o'zi haqidagi ma'lumot bo'lmaydi, shunga qaramay, uning yashash tarzi va qonunlari tug'risida ozmi-ko'pmi qimmatga ega ma'lumot hisoblanadi. Masalan, dastgoxning tuzilishi haqidagi ma'lumot-bir tomondan, ishlash prinsiplari haqidagi ma'lumot-ikkinchi tomondan muayyan qimmatga molik, ammo bu ma'lumotlar xali ushbu dastgoxning mohiyatini bildirmaydi. Shunga

qaramay, ushbu obyektning mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil O'zbekistonda keng ko'lamli isloxotlar jarayonida yangi jamiyat qurishga doir yangi-yangi fikr va g'oyalar ro'yobga chiqarilmoqdaki, bular strukturaviy-funksional taxlildan xosil bo'lyapti va mazkur metodni yanada chuqurroq qo'llash, nazariy ishlab chiqish vazifasini qo'yimoqda.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Metod, metodika, metodologiya, dialektika, qonun, kategoriya, metafizika, eklektika, sofistika, dogmatizm, sinergetika, germenetika, strukturaviy-funksional tahlil.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T, Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov. I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. — "Fidokor" gazetasi, 2000 yil, 8 iyun.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr busagasida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., O'zbekiston, 1997.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., O'zbekiston, 1997.
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q – T., 1998.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T., 1999.
7. Qahhorov M.A. Falsafa. Ma'ruza matnlari. - Farg'ona, 2000.

6-MAVZU

JAMIYAT FALSAFASI

I. «Jamiyat» tushunchasi qadim-qadimdan falsafiy munozaralar mavzusi bo'lib kelgan. Jamiyat hayotining falsafiy muammolari bilan

«ijtimoiy falsafa» yoki «sotsiologiya» shug'ullanadi. Lotin tilidan tarjimada «sotsitas» termini «jamiyat» degan ma'noni beradi.

«Sotsiologiya» terminini fanga fransuz faylasufi, pozitivizm oqimining asoschisi Ogyust Kont (1798-1857) kiritgan. **Sotsiologiya bir butun yaxlit ijtimoiy tizim tarzida olingan jamiyatning falsafiy tahlili bilan shug'ullanadi.** Sotsiologiyani jamiyatning konkret sohasi rivojlanish xususiyatlarini o'rganadigan **amaliy sotsiologiya** fanidan farqlash lozim bo'ladi. Amaliy sotsiologiyaning jamoat fikri sotsiologiyasi, jinoyatchilik sotsiologiyasi kabi 300 dan ortiq tarmog'i bor. Ular muayyan ijtimoiy hodisani tajribaviy usulda tadqiq etish bilan mashg'uldirlar.

Ijtimoiy falsafa fani XVIII asrda mustaqil ijtimoiy fan sifatida paydo bo'lgan **tarix falsafasidan** ham tafovutlanadi. Tarix falsafasini ma'rifatparvar mutafakkirlar, fransuz faylasuflari F.Volter, J.Kondorse, SH.Monteske, nemis faylasufi I.Gerder jamiyat taraqqiyotining qonunlari va harakatlantiruvchi kuchlari haqidagi ta'limot sifatida asoslab berganlar. Tarix falsafasi o'z davrida tarixiy sababaiyat, progress, tarixiy jarayonning birligi, tabiiy (geografik) muhitning jamiyatga ta'siri haqidagi g'oyalari bilan jamiyatni falsafiy tushunishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Tarixiy hodisa va jarayonlar mantig'ini tushunishda G.V.F.Gegelning «Voqe narsalarning hammasi aqlga muvofiqdir, aqlga muvofiq narsalarning hammasi voqedir» degan fikri, ayniqsa, muhim o'rin tutadi. Gegel jamiyatga Mutloq g'oyaning o'z-o'zidan rivojlanish bosqichi, deb ob'yektiv idealistik qaragan bo'lsa-da, tarix tasodiflar majmui emas, muayyan harakatlantiruvchi kuchlar ostida, ziddiyatlarning xal etilishi natijasida yuz beruvchi qonuniyatli jarayon ekanligini dohiyona bashorat etgan edi.

Ijtimoiy falsafa amaliy sotsiologiya va tarix falsafasini inkor etmaydi. Ularning o'rnini bosa olmaydi ham, aksincha, u ijtimoiy hayot va tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini, tarixiy faktlarni, umumlashtirgan holda tadqiq etadi. Bu amaliy ahamiyatga ham molik. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin" maqolasida yozganidek, «Er yuzida insoniyat va davlatchilik paydo bo'lganidan buyon shakllangan jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini teran o'rganish, kishilik tarixining yuksalish va tanazzul davrlarini, taraqqiyotini ana shu inqirozlardan omon saqlab qoluvchi ijtimoiy, ma'naviy omillarni tadqiq etish» o'ta dolzarb masaladir.

«Jamiyat» tushunchasi zamirida arab tilidagi «ja'm» (tarjimasi «to'plam», «jamlanma») so'zi yotadi, ya'ni jamiyat insonlar jamlanmasidir. Uning muqobili – tabiat hisoblanadi. Kishilar

jamlanmasi, odamlarning ko'p qirrali faoliyatining natijalari birgalikda «**jamiyat**» deyiladi. Bu falsafiy-sotsiologik tushunchani «jamoat» va «jamoat» tushunchalaridan farqlash lozim. «Jamoat» - kishilar guruhi yoki uyushmasi (masalan, mehnat jamoasi, qishloq jamoasi), «jamoat» esa aholining ko'pchiligi (masalan, jamoatchilik, jamoat fikri) demakdir.

II. **Jamiyat ichdan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, g'oyaviy, ma'daniy va boshqa bir-biri bilan bog'liq va biri ikkinchisini taqozo etuvchi qatlamlardan tuzilgan murakkab ijtimoiy tizimdir.** Bu qatlamlar o'zaro ta'sirda bo'lganligidan, masalan, iqtisodiyotdagi o'zgarishlar madaniy va siyosiy hayot o'zgarishiga, madaniy va siyosiy hayot o'zgarishlari esa g'oyaviy va ma'naviy sohalaridagi o'zgarishlarga olib keladi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot sohaları teng kuchli emas, ularning zaminini iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

Jamiyatning qaysi sohasini olmag, uning ne'matlari inson mehnati, aqli, qalbi bilan ishlov berib yaratilgan. Jamiyatning tabiatdan tub farqi uning aynan madaniyat olamiga mansubligidir. **Madaniyat** (arab. «shaharga oid») inson tomonidan ijod etilgan jamiyki moddiy va ma'naviy ne'matlarni, ularni yaratish usul va jarayonlari mazmunini ifodalaydi. Madaniyatning ob'yekti ham, sub'yekti ham inson. Jamiyatning barcha sohaları inson madaniy faoliyatining turli qirralarini aks ettiradi. O'z navbatida, ijtimoiy hayotning qay bir sohasini olmag, u inson faoliyatisiz amalga oshmaydi, inson uning moddiy substrati, negizidir.

«Madaniyat»ga yaqin tushuncha «**sivilizatsiya**»dir. U madaniyatdan yiroq narsa emas, aynan madaniy – o'zgartiruvchilik faoliyati natijalari (fan, texnika, xulq-atv or me'yorlari, mafkura, din, san'at)ga nisbatan qo'llaniladigan tushunchadir. Inson madaniy-o'zgartiruvchilik faoliyati chuqurlashib va kengayib borgani sayin tarixda bir-biriga o'xshamagan qadimgi dunyo, uyg'onish davri, g'arbiy Evropa, sharq, XX asr sivilizatsiyalari yuzaga kelgan va vorisiylilik asosida rivojlangan.

Shunday qilib, jamiyat inson, uning serqirra faoliyati natijalarini o'z ichiga olgan murakkab tizimdir. Uning falsafiy tahlili «ijtimoiy borliq» va «ijtimoiy ong» tushunchalaridan boshlanadi. Bu tushunchalarda ijtimoiy hayotning o'ta muhim ikki tomoni aks etadi va moddiylikning ma'naviylikka munosabati masalasi yanada oydinlashadi. **Ijtimoiy borliq** - bu jamiyatning moddiy iqtisodiy hayoti. Bu moddiy ishlab chiqarish va kishilarning buyumlashgan amaliy faoliyatidan iborat.

Ijtimoiy ong - jamiyatning ma'naviy-ruxiy hayoti. U kishilar fikr-o'yi, his-tuyg'u va kechinmalari, urf-odat va an'analari, g'oyalari, qarashlari va nazariyalarini o'z ichiga oladi. Shu ma'noda ijtimoiy

ong yakka odam-individ ongidan farqlanadi. Individual ong odam tug'ilganida paydo bo'lib, uning o'limi bilan o'z nihoyasiga etadi. Yakka odamning o'y-fikrlari, qarashlari, jamiyatnikidan tafovutlanishi unga muvofiq yoki nomuvofiq, xatto zid bo'lishi mumkin. Ayrim buyuk zotlarning dohiyona g'oyalari ijtimoiy ongga kuchli, ba'zan inqilobiy ta'sir ko'rsatish qudratiga ega bo'ladi. Shunga qaramay individ ongi u yoki bu darajada ustivor, hukmron g'oya va nazariyalar ta'sirida bo'ladi. Jamiyat individlar jamlanmasi bo'lgani kabi ijtimoiy ong jamiyat a'zolariga xos eng umumiy va mushtarak ong xususiyatlarini mujassamlashtirib ifoda etadi. Shu bilan birga ijtimoiy ong kishilar uyushmasiga xos jamoaviy (korporativ) va sinfiy ongdan ham farqlanadi, chunki u mohiyat – e'tibori bilan yakkalik ham, umumiylik ham emas, balki jamiyat a'zolari ongini ifoda etuvchi eng umumiylikdir.

Urf-odat, marosimlar ichida umrboqiylari ham (masalan, Navro'z, hosil bayrami, xotirlash kuni), mazmunan eskirganlari ham (dabdabali to'y- hashamlar yoki dafn marosimlari, xurofot va bidatlar) bo'ladi. Mustaqillik tufayli zamonga hamoxang, asl o'zbekona urf-odatlar qayta tiklanyapti, mazmunan boyitilyapti. Biroq asrlar mobaynida turmushga singgan odatlar, shu jumladan, yomon odatlar ham yashovchan bo'ladi. Aytaylik, poraxo'rlik, yulg'ichlik, terro'rchilik, giyoxvandlik kabi istiqbol ma'naviyatiga yot illat, odatlarni kishilar ongidan birdagina siqib chiqarish qiyin. Buning uchun, bir tomondan, ularni takror hosil qilayotgan ijtimoiy ildizlarni qirqish, ikkinchi tomondan, ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish, ijtimoiy munosabatlarni sog'lomlashtirish kerak.

Ijtimoiy ongning yuqori darajasi bo'lmish nazariy ong ilmiy bilimlar va mafkuradan iborat. Kundalik ong elementlari tashqi turtkisiz o'z xolicha tarkib topsa, ilmiy bilimlar va mafkura aniq metodologik tamoyillar asosida va maqsadga muvofiq ilm ahli, arboblari, mutaxassislar tomonidan yaratiladi.

Ilmiy bilimlar manbai fandır. U borliqning in'ikosidan boshqa narsa emas. Ingliz faylasufi G.Sitenning tabiricha, fan bu tartibga solingan bilimdir. Fanning tarixiy ildizlari eramizdan oldingi IV asrga, aqliy nazariy faoliyat jismoniy mehnatdan ajralib chiqqan davrlarga borib taqaladi. Fanning ijtimoiy mohiyatini ta'kidlab, atoqli olim A.Eynshteyn «Fan tafakkurning dunyoda biz bilgan hodisalarini ma'lum uslub vositasida bir erga jamlash yo'lida ko'p asrlik xormay-tolmay qilgan mehnatidir», - degan edi. Tabiiy, ijtimoiy, gumanitar, texnikaviy bilimlar vositasida inson borliqni to'laqonli ask ettiradi, qonunlarni ifodalaydi, nazariy o'zlashtiradi va takror hosil qiladi.

Yangi O'zbekistonga yangi mafkura zarur. U tayyor holda qo'lga kiritilmaydi. Balki millatning o'tmishi, buguni, kelajagini chuqur idrok etib, ilg'or dunyoqarash va tafakkurga asoslanib shakllantiriladi va hayotga singdirib boriladi. Respublikamiz konstitutsiyasida g'oyalar xilma-xilligi qonunlashtirilgan va huquqiy kafolatlangan. Shunga ko'ra hech bir mafkura davlat mafkurasini maqomiga ko'tarilishi mumkin emas. Mustaqillik davri milliy istiqlol mafkurasini yaratish vazifasini qo'ydi.

Uning o'zagini, xalqni, millatni jipslashtirishga qodir maqsad, muddao bo'lmish «milliy g'oya» tashkil qiladi. Prezidentimiz ilgari surgan «O'zbekiston kelajagi – buyuk davlat» shiori xalqqa yaratuvchilik ilhomi, kuch bag'ishlovchi ana shunday milliy g'oyadir. Milliy istiqlol mafkurasini, **birinchidan**, xalqimizning o'zligini, muqaddas an'analari, orzu-umidlarini ifoda etadi; **ikkinchidan**, jamiyat a'zolarini umummilliy manfaatlar doirasida jipslashtiradi; **uchinchidan**, milliy, irqiy, diniy va boshqa kamsitishlardan tamomila holi bo'ladi; **to'rtinchidan**, vatanparvarlik, milliy g'urur, odamiylikka qurilgan bo'ladi; **beshtinchidan**, o'tmish meros bilan birga umumbashariy yutuqlarni egallashga da'vat etadi; **oltinchidan**, mamlakatimiz va xalqimizni jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashga eltadi.

Ijtimoiy ong borliqni aks ettirish usuliga ko'ra ahloqiy, diniy, falsafiy, estetik, ilmiy, siyosiy va huquqiy shakllarga bo'linadi. Falsafiy va ilmiy ong haqida yuqorida fikr yuritdik. Diniy ong ham ahloq singari qadimiy. U mavjudotning yaratuvchisi xudo, farishtalar, shayton borligiga, ohiratga ishonishga qurilgan ijtimoiy borliqning g'aroyibona hayoliy, fantastik inkosi ekanligi bilan ajralib turadi. Diniy ongning tartibga solingan nazariy qismi bo'lmish teologiya (ilohiyot) xudo borligi va birligini mantiqan isbotlashga urinadi. Islomda bu ilmiy kalom, ilohiyotchilar esa mutakallimlar deyiladi.

Avvaliga borliqni anglash va bilish, talqin etishning o'ziga xos shakli vazifasini bajargan din keyinchalik, ijtimoiy funksiyalari kengayib, asosan dindorlar ruhiy, ma'naviy extiyojini qondirishga moslashgan. Dunyoviy ahloq me'yorlarini mujassamlashtirib, diniy ahloqqa asos solgan. Diniy ahloq odamlarni iymon-e'tiqodli bo'lishga da'vat qiladi. Demak, dinda dunyoviy, umminsoniy mazmun ham bor. Masalan, islomiy shariat hukmlari-hadislari yaxshilik, sahovat, mehr-oqibat, pokizalikka undaydi. Islomgacha Turon zamini zardo'shtiylik, moniylik, mazdakiylik, buddaviy dinlarga beshik bo'lgan. VIII asrda arab istilochilari bilan birga yurtimizga kirib kelgan islom ijtimoiy ongining barcha shakllarini, shu jumladan, falsafani ham o'z izmiga bo'ysindirdi. Qur'ondagi yakka xudolik-tavhid tamoyiliga mos

kelmaydigan mahalliy dinlar siqib chiqarildi, olam islomiy me'zonlar bilan idrok etila, baholana va talqin qilina boshlandi.

Estetik ong ijtimoiy borliqni badiiy obrazlar asosida aks ettirib, kishilar fikri, his-tuyg'ulari, ideallarini go'zallik, nafosat va ulug'vorlik tushunchalari bilan barkamollashtiradi. Bunda dunyoni badiiy-estetik o'zlashtirish vositasi bo'lmish san'at beqiyos o'rin tutadi. Masalan, o'zbek xalq amaliy san'ati, musiqa va raqs, «Alpomish» va «Go'ro'g'li» kabi epik dostonlar, ertaklar, rivoyatlar, badiiy adabiyot hayotni estetik bilish va baholashga, uning ziddiyatlarini anglashga, turmushni go'zallik qonunlari yordamida yanada jozibali, mazmunli qilishga ko'maklashadi.

Siyosiy ongda kishilarning davlat, partiya, sinflar, millatlar, boshqa siyosiy hodisa, jarayon va munosabatlarga doir his-tuyg'u, kechinmalari, tasavvur va qarashlari aks etadi. U jamiyat sinflarga bo'linib, sinfiy tengsizlik, murosasizlik va ziddiyatning ifodasi sifatida davlat, siyosat va huquq paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Kishilarning siyosiy ongi bir xilda bo'lmaydi. Siyosiy tasavvur va qarashlar mavjud siyosiy tartibotni yo mustahkamlashga yoki aksincha, yemirishga, yangilashga qaratilgan bo'ladi. Siyosiy ongning ikki darajasi bor siyosiy ruhiyat va siyosiy mafkura. Bular turlicha aniqlikda ifodalangan bo'ladi. Siyosiy ruhiyat kishilarning davlat, siyosat, sinflar, adolat va adolatsizlik, demokratiya to'g'risidagi fikr-o'ylari, kechinma va tasavvurlaridan iborat bo'lsa, siyosiy mafkura maxsus ishlab chiqilgan siyosiy g'oya va nazariyalarning izchil tizimini tashkil qiladi. Siyosiy mafkura urush va tinchlik, adolat, erkinlik, tashqi va ichki siyosat kabilarni aks ettirib, siyosiy faoliyat uchun dasturilamal vazifasini o'taydi.

III. **Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi.** Jamiyat urug', qabila, elat, millat, qatlam, guruh, sinf kabi ijtimoiy birliklardan tuzilgan. Ularni ijtimoiy munosabatlar bog'lab turadi. **Urug'** kishilar birligining dastlabki shakli bo'lib, qon-qarindoshlikka asoslanadi. Ibtidoiy jamiyatning so'nggi bosqichlarida urug'lar **qabilalarga** birlashgan. Urug' va qabilada poligam, keyinroq monogam oila asosiy ijtimoiy-tuzilmaviy birlik edi. «Avesto»da bronza davri (er. av. XIII-X asrlar)da Markaziy Osiyoda jamiyat matriarxatga asoslangani aytiladi.

Sinfiy jamiyatda urug' va qabilalar yagona din, hudud, madaniy turmush asosida birlashib, elat bo'lib yashashga o'tdilar. **Elat**— feodal jamiyatga xos kishilar birligi. Kapitalizm bosqichiga o'tilgach, umummilliy bozorlar vujudga kelishi natijasida elatlar bir-biri bilan mehnat taqsimoti tufayli yanada jipsroq bog'lanib, iqtisodiy hayot birligi, mushtarakligi ularni yagona **millatga** birlashtirdi. Milliy hayot va milliy harakatlar ishlab chiqaruvchikuchlar rivojiga, siyosiy borliqqa

kuchli omil bo'ldi. Shunday qilib, jamiyatning ijtimoiy-sinfiy tuzilmasi bilan bir qatorda urug', qabila, elat va millatlarni o'z ichiga olgan etnik (lotin. «etnos» - «millat») tarkibi ham paydo bo'ldi.

Eramizdan oldingi birinchi mingyillikning ikkinchi choragida barpo bo'lgan va qadimgi yunon, xitoy manbalarida «Skif imperiyasi» deb nomlangan Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi shu hududda yashagan ko'plab qabila va elatlar bilan bog'liq **polietnik** hodisadir. I.A.Karimov juda o'rinli qayd etganidek, «tariximiz kabi qadim madaniyatimizning yaratilishida ham o'nlab etnik guruhlar, el-elatlar o'z ulushini qo'shgan. Har qanday sivilizatsiya kupdan-kup xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining samarali ta'sirining mahsulidir».

Mutaxassislarning hisoblaricha, hozir yer yuzida 3 mingga yaqin millat bor. Har bir millatning soni bir necha o'n mingdan bir necha yuz milliongacha boradi, 4 foiz jahon aholisi elat va qabilalarga birlashgan. Ibtidoiy jamiyatda sotsial munosabatlar, ahloqiy me'yorlar, urf-odat va udumlar, urug' va qabila oqsoqollarining obro'yi bilan tartibga solinib boshqarib turilgan. Jamiyatda ijtimoiy-sinfiy tabaqqalashish yuz berib, ijtimoiy munosabatlar murakkablashgach, bu vositalar samara bermay qo'ydi va siyosiy boshqaruvga, uning maxsus organi bo'lmish **davlat**ga extiyoj tug'ildi. Siyosiy tartibot va munosabatlarni, siyosiy ong va faoliyatni o'z ichiga olgan siyosiy hayot vujudga keldiki, unda markaziy o'rin tutuvchi davlat hal qiluvchi mavqega ega bo'ldi.

IV. **Jamiyat va shaxs.** Jamiyatning shaxsga, shaxsning o'zi yashab turgan jamiyatga munosabati muhim ijtimoiy-falsafiy masalalardan. Odamning xuquqi va majburiyatlari bir-biridan ajralmagan ibtidoiy jamiyatda bu masala umuman bo'lmagan. Ijtimoiy-sinfiy jihatdan tabaqqalangan jamiyatga o'tilgach, odam muayyan ijtimoiy qatlam, guruh, sinf vakiliga, ijtimoiy sub'yektga aylanadi va o'z maqomidan kelib chiqib jamiyat oldiga ma'lum talablar qo'yadi, jamiyat ham, o'z navbatida, uning zimmasiga muayyan majburiyatlar yuklaydi. Shundan «jamiyat -shaxs» munosabati kelib chiqadi.

Shaxs—ijtimoiy- tarixiy hodisa. Odam shaxs bo'lib tug'ilmaydi. Balki konkret ijtimoiy, ma'naviy muhitda mehnat, ijtimoiy faoliyat, muloqot jarayonida o'zligini anglab, o'z ijtimoiy mavqeini aniqlab, ko'nikma va malakalar orttirib, gardaniga ijtimoiy ma'suliyat olib, shaxsga aylanadi. Jamiyatdan ayro tushgan inson farzandlari shaxs bo'lib yetisha olmaydi. Bunga misollar ko'p. Aristotelning tabiricha, odam tabiatan ijtimoiy mavjudotdir. Shunday ekan, u o'zining chinakam shaxsiy fazilatlarini faqat jamiyatda kamol toptira oladi.

Biroq odamlarning salohiyati, tafakkur madaniyati bir xilda emas. Shaxs jamiyat manfaatlarini hamisha to'g'ri idrok ettiravermasligi

mumkin. Ayrim shaxslar o'z davridan bir qadar o'zib ketishi, ayrimlari undan ortda qolishi, begonalashuvi, o'z zamonasida qadr topmasligi ham tabiiy. «Jamiyat- shaxs» munosabatlari, **birinchidan**, jamiyat shaxs erkinligini ham qonunlarda, ham amalda to'la ta'minlaganda; **ikkinchidan**, ijtimoiy va shaxsiy manfaatlar muvofiqlashganda; **uchinchidan**, shaxs sha'ni eng buyuk qadriyat deb e'tirof etilganda; **to'rtinchidan**, odamlar ijtimoiy -siyosiy faoliyatga, o'zini-o'zi va davlatni idora etishga keng jalb etilganda uyg'un holga keladi.

Bashariyat oldida buyuk xizmatlari e'tirof etilgan kishilar «**tarixiy shaxs**» deyiladi. Jamiyat bilan buyuk shaxs o'rtasidagi munosabatlar ham shaxs-jamiyat munosabatlarining ajralmas qismi. Tarixiy shaxs-davr farzandi. Biroq u o'z qavmlaridan farqli o'laroq, har kuni dunyoga kelavermaydi, balki jamiyat taraqqiyotining tub burilish pallalarida maydonga chiqib, o'tkir aqli, bashorat qilish qobiliyati bilan tarixiy zaruriyatni hammadan ko'ra teranroq his qiladi, anglaydi, unga peshvoz chiqadi, doxiyona g'oyalari va mislsiz g'ayrat, shijoati bilan voqelikni o'zgartiradi. U shaxsiy namunasi bilan ommani o'z ortidan ergashtiradi. Uning g'oyalari butun jamiyat mafkurasiga aylanadi, nazariy yoki amaliy faoliyati yo taraqqiyotni jadallashtiradi, yoki aksincha, bir necha yillarga, xatto, o'n yilliklarga orqaga uloqtiradi. Zero o'zidan yaxshi nom qoldirgan tarixiy shaxslar bilan bir qatorda mudxish iz qoldirganlar ham bo'ladi.

Shunday qilib, yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadi qo'yilgan ekan, bu maqsadga erishish atroflicha barkamol inson shaxsini shakllantirishni taqozo etadi. Ikkinchi tomondan, ma'naviy yetuk, jismoniy sog'lom, aqliy komil inson, sog'lom avlod jamiyat taraqqiyotini tezlatishga hissa qo'shadi. Sog'lom avlodni yetishtirib, kamolga yetkazishda jamiyat to'g'risidagi falsafiy talimotni o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash g'oyat katta ahamiyatga molik.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Jamiyat, ijtimoiy tuzum, ijtimoiy munosabatlar, madaniyat, sivilizatsiya, ijtimoiy ong, ijtimoiy borliq, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, urug', qabila, oila, elat, millat, davlat, shaxs.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Ijtimoiy falsafa nimalar bilan shug'ullanadi?
2. Sotsiologiya bilan ijtimoiy falsafa o'rtasida qanday farq bor?
3. Tarix falsafasi va ijtimoiy falsafa o'rtasidagi farq nimada?
4. Ijtimoiy borliq bilan ijtimoiy ong o'rtasidagi dialektik o'zaro ta'sir nimalarda ko'rinadi?
5. Umumsotsiologik qonun nima?

6. Ijtimoiy ongning tuzilishi haqida so'zlab bering.
7. Mustaqil O'zbekistonning sinfiy va milliy tuzilishi haqida nima deya olasiz?
8. Jamiyat va shaxs munosabatlarning ijtimoiy – falsafiy mohiyati haqida gapirib bering.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.— T., 1992.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.—T., Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. O'zbekiston: o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.- T., 2002.
4. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman.-«Fidokor», 2002 yil, 8 iyun.
5. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. -T., O'zbekiston, 2000.
6. Qahhorov M.A. Falsafa. Ma'ruza matnlari.— Farg'ona, 2000.
7. Qahhorov M.A. Sotsiologiya nima?- T., Fan va texnologiya, 2007.

7-MAVZU

INSON FALSAFASI

I. Inson falsafiy bahs – munozaralarining bosh mavzusi bo'lib kelgan va hozirda ham markaziy masalasi bo'lib kelmoqda. Falsafa fanida biror mavzu yo'qki, unda odam masalsi u yoki bu jihatdan yoritilmagan bo'lsin. Shunga qaramasdan, falsafa inson, uning kelib chiqishi, mohiyati, inson hayotining ma'nosi haqidagi masalalarga alohida o'rin ajratadi. Falsafa fanining odam haqida

fikr yurituvchi qismi "**Falsafiy antropologiya**" deb nomlanadi. "Antropos" yunonchadan tarjimada "odam" deganidir. Odamning jismu- tani, ongi, faoliyatining turli jihatlarini hususida konkret tabiiy, ijtimoiy hamda gumanitar fanlar ma'lumot beradi, ammo inson mohiyatini umumnazariy jihatdan idrok etib, tegishli hulosalar chiqarish falsafa fanining vazifasidir.

Falsafa tarixida oqimlar, ta'limotlar juda ko'p bo'lgan, ammo biror mutafakkir yoki yo'nalish inson, uning hayoti va o'limi masalasi hususida falsafiy mushohadalar yuritmay o'tmagan. Qadim-qadimdan inson muammosini qizg'in baxs – munozaralarga mavzu bo'lgan asosiy falsafiy masala deyish mumkin. Masalan, diniy – falsafiy ta'limotlarga ko'ra, inson – ilohiy ijodning oliy timsolidir. Insonning butun borlig'ida, ayniqsa, uning aqlu - zakovatida yaratuvchi hudoning kuch – qudrati, mehr-shafqati, sahovati, mislsiz ne'mati namoyondir. Sharq diniy falsafasida inson masalasi hal qiluvchi o'rin tutadi. Umuman sharq falsafasi an'anaviy tarzda insoniylik, insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgandir. Masalan, buyuk faylasuf shoir, tasavvufchi M.A.Bedil fikricha, inson olloh yaratgan, haloyiq etganlar orasida betakror mo'jizadir: "Sening ko'zlaringda, - deb xitob qiladi shoir,— ikki olamninhg – sag'ir va kabir olamlarning mazmuni mujassamlashgan. Quyosh shami kabi sen yetti qavat yeru to'qqiz qavat ko'k iqbolining mahzari-ko'zgusisan"

Ayniqsa, tasavvuf falsafasining "**komil inson**" g'oyasi Markaziy Osiyo hududida IX-XV asrlarda keng yoyilgan, uning turli tariqat va suluklari mintaqaning hayot tarzi va ahloqiy–falsafiy qadriyatlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Tasavvufning markaziy muammosi ham inson erkinligi, mavjudligini anglashga intilishdan iborat. "O'tkinchi" dunyo qa'ridan halos bo'lish va samoviy yuksaklikka erishish, olloh bilan birlikni anglash uning mohiyatini tashkil etadi.

Inson muammosiga fan ham o'z nuqtai nazaridan yondoshib kelgan. Olimlar o'z hulosalarida inson zotini goh tabiiy-biologik, goh ijtimoiy, goh siyosiy deb ta'riflab, bir o'rinda tafakkurni, aqlni, boshqa o'rinda ruhiyatni, uchinchi bir o'rinda ma'naviyatni, boshqa bir nuqtai nazardan mehnat qobiliyatini, yana boshqa bir nuqtai nazarga ko'ra esa, hattoki, shahvoniyatni uni ta'riflovchi asosiy hususiyat sifatida ko'rsatib kelganlar. Inson ko'pdan - ko'p ichki va tashqi omillar, hususan, tabiat, kosmos, jamiyat, hudo bilan aloqadorlikdagi, ichki tomondan esa ruh (jon), aql, hissiyot, ma'naviyat bilan bog'langan mavjudot sifatida tahlil qilingan.

Falsafiy oqim va yo'nalishlarga kelsak, materializm falsafasi an'anaviy ravishda insonni materiyaning bir bo'lagi, aniqrog'i, his qiluvchi, jonli materiya deb qarab keladi. O'lim natijasida insonning moddiy vujud

boshqa moddalarga parchalanadi. Idealizm falsafasida, hususan, ob'yektiv idealizmda inson olami Mutloq ruh yoki g'oyaning mahsuli. Sub'yektiv idealizmda inson, uning "Men"i—butun olamning markaziy nuqtasi, jami narsa- hodisalarning yaratuvchisi deb talqin etiladi. Qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor "Inson-hamma narsaning o'lchovi" deganda shu g'oyani lo'nda ifoda etgan. Sokratning "Avval o'zingni angla, shunda dunyoni anglaysan" degan iborasi ham "Inson – butun borliqning mujassamidir" degan sub'yektiv-idealistik talqin uchun yo'l ochadi.

Insonning mohiyati haqidagi baxs-munozaralar falsafa fanida uzoq vaqt davom etgan. XIX ars o'rtalariga kelib odam haqidagi mavhum umumiy mulohazalar o'rnini real inson haqidagi konkret mushohadalar egalladi. O'tmishning, shu jumladan, diniy falsafa targ'ib etgan o'rta asrchilikning mo'min-qobil inson haqidagi aqidalari yangi, kapitalistik tuzum talab qilayotgan faol, tashabbuskor, ishchan inson haqidagi tasavvurlar bilan o'zaro zid kelib qoladi. Bu falsafiy ta'limotlarda ham o'z aksini topdi. Dastlab daniyalik faylasuf S.K'erk'egorning "ilohiy dunyo boshqa, insoniy dunyo boshqa," degan ekzistensializm ruhidagi g'oyasida, so'ngra nemis faylasufi L. Feerbaxning insonni ijtimoiy mavjudot sifatida qarashga chaqiruvchi "Din – insonning o'zini-o'zi anglashidir" degan tamoyilida ifodalanadi. Shu singari yangicha falsafiy qarashlar insonni baholashda shu vaqtgacha hukmron bo'lib kelgan "Inson hudo yoki mutloq ruhning mahsuli, faoliyatsiz, passiv narsa" deya baholashlariga chek qo'ydi, insonni ijtimoiy vujud deb qarashga, jamiyatda mavjud ijtimoiy munosabatlarning ifodasi, mahsuli, majmui deb ta'riflashga imkon yaratdi.

Darhaqiqat, "inson" so'zining etimologiyasiga nazar tashlaganimizda ham buni sezish mumkin. Ma'lumki, qadim-qadimdan jami mavjudotlarni "ins" va "jins" ga ajratish urf bo'lgan. Ertak va rivoyatlarda naql qilinishicha, "ins" odam zotini bildirsa, "jins" unga zid bo'lgan jin- ajinalarni anglatadi. "Ins" so'zi ko'plikda "inson"deganidir, bu so'z ostida g'ayritabiiy, ruhiy jin-ajinalardan farqli real, hissiy odam tushuniladi. Demak, **inson** real borliqning uzviy qismi, qism bo'lganda ham oddiy emas, balki murakkab qismidir. Unga ijtimoiy his-tuyg'ular, munosabatlar ijtimoiy qiyofa va faoliyat hosdir. Bu hususiyatlar insonga "yuqori"dan baxsh etilmagan, ular tug'ma ham emas, balki aniq ijtimoiy – tarixiy mohiyatga egadir.

Odam o'z yaratuvchilik faoliyatida moddiy va madaniy boyliklarni yaratish bilan kifoyalanmaydi, shu asnoda u oz'-o'zini ham "yaratib", mukammallashtirib boradi. Insonni boshqa mavjudotlardan ajratib

turuvchi eng muhim hususiyat ham huddi shunda, tarixni, madaniyatni, o'zini – o'zi yaratuvchilik, sub'ektlilik hususiyatidir.

II. **Antroposotsiogenez – inson va jamiyatning kelib chiqish jarayonidir.** Inson va jamiyatning kelib chiqishini mifologik, diniy va ilmiy – falsafiy asosda talqin qilish mumkin. Miflarda inson qavmining kelib chiqishi ko'pincha tabiiy narsa – hodisalar bilan bog'lab tushuntirilgan, bu narsa-hodisalar esa muqaddaslashtirilgan. Masalan, atoqli qirg'iz adibi Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasida aytilishicha, qirg'izlar shohdor bu'gi avlodidandir, turkiy xalqlarning ko'pchiligida bo'ri muqaddaslashtiriladi, turkiy xalqlar kulrang bo'ridan tarqalgan deb rivoyat qilinadi.

Diniy tushunchalarga qaraganda, odamni hudo yaratgan, insoniyat Odam Ato va Momo havodan tarqalgan. Shuningdek, inson zoti erga boshqa sayyoralardan tushgan, deb naql qiluvchi kosmologik – fantastik talqinlar ham mavjud.

Falsafa tabiiyyot ilmi, hususan, atoqli biologlar Ch.Darvin, E. Gekkellarning kashfiyotlariga tayangan holda antroposotsiogenez uzoq vaqt davom etgan murakkab jarayon bo'lganligini isbotlashga harakat qiladi. Antroposotsiogenez jarayoni quyidagi uch bosqichni o'z ichiga olgan:

a) **birinchi bosqich** – odamsimon antropoidlarning hayvoinot olamidani ajralib chiqishi. Ular o'z ehtiyojlarini qondirish uchun dastlab tabiiy ashyolardan foydalanganlar, so'ngra mehnat qurollari yasashga o'tganlar. Bularga misol qilib Janubiy Afrikada paydo bo'lgan avstralopiteknlarni ko'rsatish mumkin. shu tariqa sodda mehnat ko'nikmalariga o'rgangan dastlabki odamlar dunyoga kelgan.

b) **ikkinchi bosqich** – mehnatning takomillasha borishi va ilk ibtidoiy to'daning vujudga kelishi bosqichi. Jamoaviy hayot rivojlana borib, odamlar birgalikda tosh qurollari yasashga, olovdan foydalanishga, ov qilishga o'rganganlar. Jamoaviy turmush va mehnat tufayli odam ongi rivojlangan, avval nutq, so'ngra burro-burro qilib so'zlovchi til paydo bo'lgan. Janubiy Old Osiyoda hamda Afrika qit'asida pitekanthrop va sinantrop odamlar paydo bo'lgan, ulardan paleantrop va neandertallar tarqalgan. Neandertal odamlar manzilgohi Surhondaryoning Teshiktosh g'oridan ham topilgan.

c) **uchinchi bosqich** - neandertal odam psihofiziologik va biologik jihatlardan shakllangan, ibtidoiy to'da jamoaga aylangan bosqich. Antroposotsiogenez jarayoni tahmiman million yilni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, odamlar ijtimoiy hususiyatlar sohibiga aylandilar va tabiatdan ajralib chiqdilar. Ularning birgalikdagi hayotidan jamiyat yuzaga keldi. Insonning tabiatdan kelib chiqqanligini fan e'tirof

etadi. Bu tabiat evolyutsion rivojlanish zanjiridagi qonuniy bo'gindir. Taraqqiyot esa, ingliz faylasufi G. Shpreer ta'biri bilan aytganda, tasodif emas, balki zaruriyatdir. Ushbu jarayonning mohiyati shundan iboratki, evolyutsiyaning nisbatan yuqoriroq bosqichida turgan odamsimon mavjudot ong, til, ayniqsa, faol o'zgartiruvchi mehnat tufayli insoniy sifatlarga ega bo'ldi.

Insonni tom ma'noda mehnat yaratgan. Mehnat hamisha insoniy hayot va madaniyatning asosi bo'lib kelgan va hamisha shunday bo'lib qoladi. Allomalardan biri aytganidek, biz yashayotgan dunyo so'z bilan emas, balki faoliyat, mehnat bilan yaralgan. Inson mehnatda kamol topadi. Mehnat uni yuksaklikka ko'taradi. Odam mehnatsiz o'z insoniy qadr-qimmatini saqlay olmaydi. Uning yashashdan maqsadi, baxt va istiqboli ham mehnatda mujassamlashgan. "Inson mehnat qilayotgan vaqtidagina tom ma'noda insonga aylanadi"-degan edi fransuz adibi J.Gyuyo. Donishmandlar ta'biricha, hayot kemasi mehnat langariga suyanmasa, shamollaru dovullarga dosh bera olmaydi.

Shunday qilib, antroposotsiogenez tabiiy-tarihiy jarayon. U insonning o'z borlig'ini bilishi, anglashi va o'zgartirishi bilan davom etadigan mehnat tufayli yuzaga kelgandir.

III. Ong, onglik va ongsizlik masalalari falsafiy antropologiyada alohida o'rin tutadi. Bu to'g'rida faylasuflarning nuqtai nazarlari ham turlicha bo'lib kelgan. Masalan, materializm falsafasining vul'gar materializm deb atalgan oqimi vakillarining fikricha, jigar qanday qilib safro ajratib chiqarsa, miya ham huddi shunday o'zidan ongni "ishlab chiqaradi", ya'ni ong fiziologik, moddiy narsadir. Idealizm falsafiy maslagidagi mutafakkirlar, masalan, sub'ektiv idealistlar esa "ong o'z ichki manbalalaridan tarkib topadi, uning sababi tashqarida emas, ongning o'zida" degan qarashga asoslanadilar. Ob'ektiv idealizm vakillari "inson ongi olamiy ongning kichik bir zarrasi" degan aqidaga asoslanadilar. Jumladan, tasavvuf falsafasida odam ongi – «aqli ju'z», ilohiy mutloq ong—"Aqli kull"-ning zarrasi deb qaraladi. Zamonaviy falsafa fani yuqoridagi nuqtai nazarlar hamda yondoshuvlardan farqli o'laroq, inson ham, uning ongi ham ijtimoiy-tabiiy hodisadir degan muhim umumnazariy qoidaga tayanadi.

Ong haqidagi hozirgi zamon ilmiy-falsafiy tasavvurlariga binoan ong borliqni aks ettiruvchi g'oyalar, qarashlar, his-tuyg'u va kechinmalar, tushuncha va tasavvurlar majmuidir. Uning asosini odam va olam haqidagi bilimlar tashkil qiladi. Shu ma'noda ong bu anglangan borliq, bilimlar, his-tuyg'u va kechinmalar shakliga kirgan borliqdir. Inson bilimlari nisbatan to'g'ri aks ettirish qobiliyatiga ega. Shuning

uchun ham uning hatti-harakatlarida borliqqa mutanosiblik bor, faolyati esa maqsadga muvofiqdir.

Odam o'z ongi borliq haqida berayotgan to'g'ri, ishonchli bilim va tasavvurlarga asoslanib, o'z oldiga aniq maqsad va mo'ljallar qo'yadi, ularga erishishning yo'l va usullarini belgilaydi, borliqni va o'zligini to'laqonli idrok etadi, xullas, anglangan faoliyat ko'rsatadi.

Insonning **ongli faolyati** ajdodlar moddiy va ma'naviy merosini asrash va rivojlantirishda, tajribaviy va nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va boyitishda, tabiat va jamiyat qonunlarini bilish va ulardan foydalanib, ijtimoiy taraqqiyotda va kamolot sur'atlarini jadallashtirishga rejali munosabatda namoyon bo'ladi.

Demak, ong avvalo ongli faolyatda ko'rinadi. Inson o'zligini, ongli mavjudod ekanini faolyatda angelaydi. "Eng qiyini ham o'zingni anglay bilishingdir" – degan edi qadimgi yunon mutafakkiri Fales. Bunga hayolparastlik, mushohada bilan emas, balki harakatda, faoliyatda erishiladi. L.Feerbax fikricha, "Insonning haqiqiy fazilati kerak bo'lganda uni ish bilan ko'rsatib, ishda isbotlagan taqdirdagina namoyon bo'ladi". Bilimi, tajribasi, o'quvidan hayotiy vaziyatlarda oqilona, ishning ko'zini bilib, samarali va o'rinni foydalangan kishi onglilikning oliy maqomiga erishadi, bundaylarni "dono", "aqlli", "tadbirkor" deyishadi. Onglilikning ham o'ziga yarasha darajalari bor, masalan, qadimgi rimlik faylasuf Sitseron juda yahshi ko'rsatib o'tganidek, "dono kishining hulq-atvori aqldan, o'rtamiyona odamlarniki tajribadan, o'ta nodonlarniki noilojlikdan, jonivorlarniki esa tabiatdan yuzaga keladi."

Ong- ma'naviy-ruhiy hodisa. U fiziologik organ-miyaning funksiyasi. Miya qariyb 14 mlrd. asab hujayralaridan, shuningdek, sezgilar orqali tashqaridan keluvchi axborotni "qayta ishlash"ga ixtisoslashgan markazlardan tuzilgan. Sezgi organlari etkazgan ma'lumotlar tegishli ishlovdan o'tib, sezgi, idrok va tasavvurlarga aylanadi. Ularda narsa-hodisalar in'ikos etadi. "In'ikos" arabcha so'z bo'lib, "aks ettirish" degan ma'noni beradi. Falsafadagi **in'ikos** nazariyasiga ko'ra, aks ettirishning ikki muvofiqlik (adekvatlik) darajasi mavjud: to'liq muvofiqlikda (izomorf) aks ettirish hamda qisman muvofiqlikda (gomomorf) aks ettirish.

Inson ongining mo'jizaviy hususiyati ham shundaki, u atrof-borliqni nisbatan to'liq, to'g'ri va teran aks ettirish, ya'ni yuqori darajada muvofiqlik bilan in'ikos etish qobiliyatiga ega. Shuning uchun ham **ong aks ettirishning –in'ikosning oliy shakli**, deyish mumkin.

Tabiatda in'ikosning turli quyi shakllari mavjud. Masalan, hayvonot olamida-psixika, sodda jonivordagi ta'sirlanuvchanlik, o'simliklarda - qo'zg'olish, notirik jismlarda mehanik in'ikos. Qanday shaklda yuz

berishi va adekvatlik darajasidan qat'iy nazar, in'ikos-bu ob'ektning ikkinchi ob'ekt ta'sirini o'zida aks ettirishi, unga tegishli reaksiya bildirishidir. In'ikos shakllari, tabiatdagi evolyutsiya zanjirini ifoda etib, quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon takomillashib boradi.

Psixika, yani idrok, tasavvur darajalarini o'z ichiga olgan in'ikos shakli insonga ham, hayvonga ham hosdir. Psikika voqelikning tashqi ta'siriga nisbatan to'g'ri reaksiya qaytarish, unga moslashish hamda maqsadga muvofiq hatti-harakat qilish imkonini beradi. Bu hatti – harakatlar aslo ongli harakatlar bo'lmasdan, balki millionlab marotaba qaytarilaverganidan bir qolipga tushgan instinktlardan iboratdir. Ayrim jonivorlarning onglidek tuyuladigan hatti – harakatlari ortida ular bilan muttasil shug'ullanib kelgan odamning mashaqqatli mehnati yotadi. Hulas, fan dalillari shohidlik berishicha, bugungikunda atrof olamda "ong" deb atalgan nodir tuhfa ega yagona oliy zot bu Hazrati Insondir.

Darhaqiqat, "Inson-ongli zot" deymiz va bu e'tiroz uyg'otmaydigan aksiomadek tuyuladi. Biroq odamning hamma hatti-harakatlari ham ongli emas, hamma odamlar ham «ongli» degan nomga loyiq emas. Har narsada ikki tomon-o'ng va ters bo'lgani kabi onglikka teskari bo'lgan tomonni ifoda etuvchi ongsizlik ham bor narsadir. **Ongsizlik, bu odatda, anglanmagan, beihitoy amalga oshadigan xatti-xarakatlardir.** Bunday xatti-xarakatlarning sababi onggacha etib kelib ulgurmaydi yoki biror tabiiy yoki sun'iy omil bilan onggacha etib kelmaydigan darajada to'silgan bo'ladi. Masalan, odam uyquda, gipnoz, qattiq mastlik yoki g'yohvand modda ta'sirida bo'lgan holatlarda voqelikka nisbatan ongli munosabatda bo'la olmaydi, binobarin, bunday holatlarda u o'z hatti-harakatlarini anglab etmagan bo'ladi.

Ongsizlik hodisasini dastlab psixoanaliz, ya'ni **ruhiy tahlil** deb nomlangan nazariya asoschisi, avstriyalik psixiatr Zigmund Freyd maxsus tadqiq qilgan. U ong ishtirok etmasdan avtomatik tarzda birovga ko'r-ko'rona taqlid qilish bilan yoki ixtiyorsiz, ong qatnashuvisiz yuz beradigan barcha holat va jarayonlarni "ongsizlik" tushunchasiga kiritgan. Keyinchalik bu g'oyalar E.Fromm asos solgan "madaniy-ruhiy tahlil", "sotsiopsixologizm", "neofreydizm" oqimlari tomonidan ijodiy rivojlantirilgan. Freydning izdoshlari ongsizlik hodisasi alohida olingan odamning hulq – atvorida namoyon bo'lib qolmasdan, badiiy ijodda, san'atda, butun boshli ijtimoiy guruhlar va hatto jamiyatlar faoliyatida ham ko'rinadi deganlar. Ongsizlik ongdan tashqaridagi anglab bo'lmaydigan abadiy psixik kuchlar boshqaruvidagi sohadir. Freyd fikricha, barcga ruhiy holatlarning,

hatti-harakatlar, hattoki, tarixiy va ijtimoiy harakatlarning zamirida ham "libido" deb nomlanuvchi shaxvoniy (seksual) intilish yotadi, u olamda tanxo hukmrondir. Freydizm vakillari shunga o'hshash ko'plab boshqa fikrlar va dalillar asosida ongsizlik o'zining miqyoslari hamda mavqeyi jihatidan onglilikdan ustundir, degan hulosani chiqaradilar.

Hozirgi zamon falsafasi, tabiiyki, bu hildagi biryozlama hulosalarga qo'shila olmaydi. Haqiqatan ham inson faoliyati serqirra va rang-barang. Unda ongli hatti-harakatlar bilan bir qatorda ongsiz yoki hali to'liq anglanmagan hulq-atvor uchun ham o'rin bor. Onglilik va ongsizlik holatlarini bir-biriga mutloq qarama-qarshi qo'yish esa to'g'ri bo'lmaydi. Anglanmagan ruhiy holatlar va hatti-harakatlar, hozirgi zamon fani dalillariga binoan, ongda emas, balki **ong ostida** yuz beradi. Psixika bilan ong bir narsa emas, odamning ruhiy hayoti esa tamomila ong nazorati ostida bo'la olmaydi.

Ongsizlik ko'rinishlarini onglilikdan ustun qo'yish, ongsizlik butun insoniy faoliyatning asosiy ko'rinishi deb e'lon qilish pirovard natijada mistika va irratsionalizmga olib keladi. "Mistika" yunonchadan tarjimada "sir - asror" degani, "irrational" terminining ma'nosi esa "g'ayri-aqliy" demakdir. **Mistika** ham, **irrationalizm** ham, inson aqli, tafakkurining ahamiyati va rolini kamsitish yoki umuman inkor etishga asoslanadi. XX asr G'arbiy Evropa falsafasi va sotsiologiyasida mistik va irrational g'oyalar bir qadar kuchayganligi kuzatilgan. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida mafkuraviy bo'shliqdan foydalanib, ular mamlakatimizga ham g'oyaviy huruj qilishga urinib ko'rdilar.

Shunday qilib, aytish mumkinki, odamning hatti-harakatlaridan ayrimlari anglanmagan yoki to'liq anglab ulgurilmagan bo'ladi. Ular ongdan tashqarida, ong nazoratidan tashqarida yuz berganligi sababli ongsizlik holati yuzaga keladi. Konkret ongsizlik holatlarining konkret sabablarini hususiy fanlar bo'lmish psixologiya, psixoterapiya, psixiatriya, psixoanaliz, psixonevrologiya o'rganadi hamda nazariy va amaliy ahamiyatga molik tashxis qo'yadi.

Ammo shuni borki, konkret inson haqida emas, balki butun inson zoti haqida so'z yuritganda shuni qat'iy ishonch bilan ta'kidlash mumkin va lozimki, inson faoliyatida onglilik, anglangan faoliyat ustundir. Jamiki mavjudotlar orasida faqat insongina o'zini-oz'i anglashga qodir va qobildir. O'zini-o'zi anglash hususiyatini XVII asr fransuz ma'rifatparvar mutafakkiri J.J. Russo "barcha insoniy qobiliyat va layoqatlarning qaymog "i" deb atagan edi.

Darhaqiqat, ong insonni inson qilib turgan jamiki insoniy fazilatlarining eng muhimi va olijanobidir, u inson hayotining

shamchirog'idir. Inson miyasidan ortiqroq mo'jizakor narsa bo'lmaganidek, fikrlashdan, anglashdan ko'ra ham jozibali va qimmatli hislat yo'q. "Bizning butun qadr-qimmatimiz, nufuzimiz ongu tafakkurda jamlangan", -degan edi fransuz olimi Blez Paskal. Bu fikr hamma davrlar uchun ham dolzarb va zamonaviydir. Ong-inson faoliyatining negizi, uning tepib turgan qalbi, inson hulq-atvoriining sababchisi hamda himoyachisidir. U butun inson hayotining ibtidosi va muqaddas mohiyati vazifasini o'taydi.

Ong ham o'sish, rivojlanish xususiyatiga ega. Modomiki, ongning asosini bilimlar tashkil etar ekan, demak, inson qancha ko'proq bila borgani sari uning ongi, aqli ham shu qadar o'sib, kengayib, teranlashib boradi. "Bilim-kuch, kuch esa bilimdadir"-degan edi F. Bekon. Faqat bilimgina insonni chin ma'noda erkin va ulug'vor qila oladi. Ma'naviy hayotda ham, amaliy faoliyatda ham kimki bilimga tayansa, kamol topadi.

Hazrat A. Navoiy uqtirganidek,

***Yigitlikda yig' ilmning mahzanin,
Qarilik chog'i harj qilgil ani.***

Sharqning yana bir alloma shoiri A.Jomiy bunday deydi:

***Eng zarur bilimni qunt bilan o'rgan,
Zarur bo'lmaganin ahtarib yurma.
Zarurini hosil qilgandan keyin
Unga amal qilmay umr o'tkarma.***

Shunday qilib, "ongli odam" degan ibora o'z ongi, tafakkurini zamonaviy empirik va nazariy bilimlar, milliy va umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar bilan boyitgan, ta'lim va tarbiya ko'rgan kishiga nisbatan qo'llaniladi. Bugungi mustaqil O'zbekiston ahli "Kuch-bilim va tafakkurda" (I.A.Karimov) ekanligini anglab etgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi ma'naviy-ma'rifiy islohotlar natijasida ongli, irodali, mustaqil fikr va e'tiqodga ega yangi avlod etishib chiqmoqda.

IV. Insonning tabiati murakkab va ziddiyatlidir. Bu turli mutafakkirlar, falsafiy ta'limotlar tomonidan qadim-qadimdan qayd etib kelinadi. "Sotsial darvinizm", «antroposotsiologiya», «jamiyatning organik tuzilishi» singari konsepsiyalarga asosan odam instinktiv, sof biologik mavjudot, unda ijtimoiy jihatlar yoq yoki bo'lgan taqdirda ham juda kam miqdordadir.

Insonning tabiatini biologik tur sifatida bu xilda biryoqlama talqin etuvchi konsepsiyalarni "**biologizatorlik**", ya'ni biologiyalashtiruvchi konsepsiyalar deb nomlash qabul qilingan. Bu hilda fikrlovchi olimlar uchun inson tabiati xuddi instinktlar kabi o'zgarmasdir, ular yashash uchun kurash, tabiiy tanlanish, hujayraviy tuzilish kabi biologik qonun va tamoyillarni butunlay boshqa muhit bo'lmish jamiyat hayotiga to'g'ridan-to'g'ri tadbiriq etadilar. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi sifatiiy farq yo'qqa chiqariladi. Insonni biologik mavjudot deb bir tomonlama talqin etishda esa turli irqqa, millatga mansub kishilar o'zaro notengligi, insonning tabiatini o'zgartirib bo'lmashligi, binobarin, jinoyatchilik, ahloqiiy tubanlik singari instinktiiv xatti-harakatlar tabiiy holatlar sifatida oqlanishi lozimligi haqida hulosalar kelib chiqadi.

Shu bilan birga inson tabiatini biologizatorlik nuqtai- nazaridan bir yoqlama tabiiy-biologik tur sifatida baholash qanchalik noto'g'ri bo'lsa, uni faqat iijtimoiy hislatlar yig'indisi sifatida ta'rirlash ham shunchalik biryoqlamalik bo'lur edi. Chunki biologizatorlik yondoshuvda insondagi iijtimoiylik hususiyatlari asossiz nazardan soqit qilinib, hatoga yo'l qo'yilsha, "**sotsiologizatorlik**" konsepsiyalarida insondagi tabiiy-biologik hususiyatlar xuddi shunday nazardan chetda qoladi va bir yoqlamalikka yo'l qo'yiladi.

Inson tabiati ziddiyatli ekanligini din ham qayd etadi. Islom diniga ko'ra, hudo odamga ham hayvonlik, ham shaytonlik, ham farishtalik jihatlarini bag'ishlagan deyiladi. Masalan, hayotni faqat yeb-ichish deb bilgan nafs bandalarida hayvonlik hususiyatlari ustun, qing'ir hayotga o'rgangan kishilarda shaytoniiylik ko'proq, halol rizq topib yashayotgan odamlarda esa farishtalik hislatlari ustundir.

Inson tabiatining ziddiyatliiligi haqida mashhur tasavvufchi alloma Shayx Aziziddin Nasafiiyning quyidagi fikrlari ham diqqatga molik: "Inson hayvon turlaridan biri. Aynan hayvon ruhi tarbiya topib, talim va tahsil ko'rib, takrorlash, taqvo va zikr tufayli darajalar bo'ylab rivojlanadi va har bir daraja, martabada yangi nomga molik bo'ladi." Odam jisman hayvonga monand, - degan edi mutafakkir shoir Abdurahmon Jomiiy, -shu bilan birga u biror maxluqotda uchramaydigan nutq, til va tafakkur sohibidir. Jomiiy insonni "hayvoni notiqqa", ya'ni nutqqa ega mavjudot deb atagan.

"Inson-iijtimoiy mavjudot" degani inson tabiatidagi biologik jihatlarining ahamiyatini yo'qqa chiqarishni bildirmaydi. Dastlab biologik tur sifatida mavjud bo'lgan odam evolyutsiiyaning ma'lum bosqichida mehnat, jamoaviiylik, nutq va ong tufayli tabiatdan iijtimoiy vujud sifatida ajralib chiqdi, iijtimoiylashdi, ammo uning biologik jihatlarini yo'qolib ketmadi, shaklan va mazmunan o'zgardi,

holos. Muhimi-unga nisbatan tabiiy tanlanish qonuni o'z belgilovchilik ahamiyatini yo'qotdi. Odam o'zida biologik va ijtimoiy jihatlarni birlashtirgan murakkab **sotsiobiologik vujud**ga aylandi. Inson irodasi, hayvolarnikidan farqli o'laroq, ong nazorati ostidadir. Odam o'z ehtiyojini qondirish bilan cheklanmasdan, boshqalar uchun ham hayotiy muhim ne'matlar yaratadi. U barcha jonzotlardan ma'naviy ustunligi bilan ajralib turadi.

V.Inson hayotining ma'nosi. Hayot va o'lim. Hayot-abadiy, ammo alohida olingan individning umri o'lchovli, chekli. Umr insonga faqat bir marta beriladi, uning yakunida o'lim muqarrardir. Ushbu jumalarda abadiyat va o'tkinchilik, hayot va o'lim o'rtasidagi ziddiyat mujassamlashgandir.

Umrning vaqtinchaligi, o'limning muqarrarliligi har bir odamda ertami-kechmi bir qator tom ma'nodagi falsafiy savollarni tug'dirishi tabiiy: Ho'sh, umrning ma'nosi bormi? Bor bo'lsa, u nimada? Yashashdan maqsad nima? O'lim nima? Bu savollarga har kim o'zicha javob izlaydi. Shunga qaramay, azal-azaldan faylasuflar hayotning asl ma'nosini belgilovchi umumiy mezonlarni topishga va asoslashga urinib kelganlar. Misol uchun din bu dunyoda, ya'ni, foniyl, o'tkinchi dunyoda yashashdan ma'no bor, u ham bo'lsa o'zingni narigi-boqiy dunyoga hozirlashdir deydi.

Tasvufdagi yassaviya, suhravardiya, kubraviya, naqshbandiya kabi tariqatlar ham o'z vazifalarini insonga hayotning chin ma'nosini anglatish deb bilganlar. So'fiy mutafakkirlarning o'zlari bu borada shaxsiy namuna ko'rsatganlar. "So'fiy" iborasi «sof» so'zidan olinganligi ham bejiz emas. Ular umrning ma'nosi-ma'naviy komillikka intilishda deb bilganlar. Bandai solih, dunyo foniyligini chuqur his etgan holda ezguliklar qilib qolishga, o'zidan yahshi nomu-nishon qoldirishga shoshilishi, shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlaridan o'tmog'i kerak. Dunyoviylikka moyil g'ijduvoniya, naqshbandiya suluklari, ayniqsa, Naqshbandning "Dil ba yoru dast ba kor" tamoyili hayot ma'nosini tushunishda g'oyat muhim tamoyildir.

Inson umrining ma'nosini ekzistensializm falsafasi azob-uqubat chekishda deb biladi. Inson, ularning fikricha, azob-uqubatlardan uchun tug'ilgan. **Gedonizm** uni yaxshi yeb-ichish, lazzatlanishda, **al'truizm** deb nomlangan boshqa bir falsafiy – ahloqiy oqim fikricha, boshqalarga yaxshilik qilish, sahovat ko'rsatishdadir. Bunda sahovat ko'rsatilayotgan kishi kimligining aslo farqi yo'q.

Hozirgi zamon falsafasining nuqtai - nazari, tabiiyki, yuqoridagi yondoshuvlardan birmuncha farqlanadi, shunga ko'ra hayotning ma'nosi mavhum tushuncha emas. U konkret ijtimoiy- tarixiy

mazmunga ega, jamiyat ijtimoiy-sinfiy tuzilmasi bilan bog'langandir. Negaki har bir ijtimoiy qatlam, sinf, jamiyatning, kishilar siyosiy, milliy va boshqa hil uyushmalarining, guruhlarining aniq maqsad va hayotiy manfaatlari mavjud. Hayotning ma'nosi har bir konkret guruh yoki uyushma a'zosi uchun ana shu muqaddas ideallarni ro'yobga chiqarish bilan bo'glanib ketadi. Bunda ijtimoiy o'zlikni, o'z mavjudligi, ildizlari, qadriyatlari, istiqbol imkoniyatlarini anglab yetish o'ta muhim ahamiyatga egadir. "Qanday yashamoq kerak?" degan savolga javob topish uchun avvalo odam o'ziga-oz'i "Men o'zi kimman?" degan savol bilan murojaat qilmog'i kerak.

Shunisi ham muhimki, inson ma'naviy jihatdan hur, erkin bo'lgandagina uning ijodiy salohiyati yuz ochadi, uning hayot ma'nosini anglab yetishi uchun shart-sharoit etiladi. Umr deganlari boshdan kechirilgan yillar miqdori bilan emas, balki amalga oshirilgan ezgu ishlar bilan o'lchanadi. "Hayot,-degan edi J.J. Russo-o'z-o'zicha hech narsani anglatmaydi, hayotning qimmatini qanday yashashga bog'liq." Rimlik faylasuf Seneka fikricha, inson umri masalga o'xshaydi: uzunligi bilan emas, mazmuni bilan qadrli. Muhimi uzoq yashash emas, to'g'ri yashay bilishdir.

Umr qisqa, ammo uni mazmun bilan to'ldirib, uzaytirish mumkin. Bu insonning o'ziga havola. Zero fransuz donishmandi Mishel Monten qayd etganidek, hayot o'z-o'zicha yaxshilik ham, yomonlik ham emas, sen uni nimaga aylantira olsang o'shadir. Ba'zilar uchun umr hali yashamay turib tugagan. Odam ikki karra dunyoga kelmaydi, lekin bir marta yashashni ham eplolmayotganlar kammi?! Har daqiqasi oltinga teng umrni sovrarayotganlarni nima deb atash mumkin?! "Benaf yashashdan o'lim afzal!-degan edi I. Gyote,-ammo bundan ham yomonrog'i tirik murda bo'lishdir". Shoir M.Shayhzoda yozganidek:

***Umrlar bor, tiriklikda o'likdir,
Umrlar bor, mangulikda tirikdir.***

Ayrimlar tom ma'noda yashamaydilar, yashamoqqa urinadilar, holos. Bundaylar umri samarasiz, hayoti izsiz kechadi, nomu-nishon qolmaydi. Vaholanki, har daqiqa g'animat: hayot gashtini surish, yangiliklar qilish, jamiyatda o'z o'rnini topish, hamma-hammasiga ulgurish kerak. Buning uchun umrni mazmun bilan to'ldirish yashashga ishtiyoq aslo so'nmasligi kerak. Har bir tongni o'z hayoting ibtidosi deb bil va quyoshning har botishini o'z hayoting intihosi deb tushun,-deydi donishmandlardan biri. Har bir kunning qandaydir hayrli

ish bilan, o'z ustingdan biron-bir g'alaba qozonish yoki nimanidir o'rganish bilan nishonlansin.

Shu ma'noda hayot, AQSHlik taniqli faylasuf J.Santayana iborasi bilan aytganda, tomosha ham, bayram ham emas, mashaqqatli ishdir, katta san'atdir. Hayotning ma'nosi arshi-a'loda emas, hayotning o'zida—mehnatda, tarbiyada, turmushda, adabiyot, ilm-fan, ijtimoiy-siyosiy faoliyatdadir. Bu faoliyat yuksak umuminsoniy ahloq, ijtimoiy ideallar va manfaatlar bilan sug'orilmas ekan, hayotga ma'no bag'ishlay olmaydi.

O'lim haq, umr-o'tkinchi, hayot esa abadiy. Ongli, esli-xushli odam bu ziddiyatni o'zicha yechishga, umrni imkon qadar tabiiy yoki tibbiy uzaytirishga, o'zidan yaxshi nasl yoki ezgu nom qoldirishga intiladi.

O'lmoq tug'ilmoqdayin tabiiy. O'limning muqarrarligini hamma biladi, ammo u yaqin emasligi tufayli hech kim o'lim haqida o'ylamaydi. Zotan to'g'ri yashash uchun o'limni har doim yodda tutmoq darkor. O'limdan aksariyat ko'pchilik vahimaga tushadi. Faylasufona yondoshilsa, o'limdan qo'rqish ham, qo'rqamaslik ham mumkin, baribir u muqarrardir. Naql qilishlaricha, Sokratni sud qilib, o'ttiz hukmdor seni o'limga mahkum etdi, deyishganida donishmand ularga qarata: "Sizlarni esa tabiat o'limga mahkum etgan" –deb javob qilgan ekan.

O'tkinchi umr, muqarrar o'lim va abadiyatga intilish o'rtsidagi ziddiyat tasavvuf falsafasida ta'sirchan ochib berilgan. "Jannat va do'zah qayerdaligini so'rab yurma,- deydi Bedil.—Umr inson faoliyati va hislatlari hosilasi. Sen qancha fazilat urug'ini eksang, ular shuncha jannat mevalarini bergusidir. Agar senga yomon hislatlar rahnamao bo'lsa, sen uchun do'zah eshigi ochilur". Huvaydo fikricha, ohiratda ochiq yuz bilan turish uchun inson tangri rizq qilgan ne'matlardan bahramand bo'lishi, ammo nafs quliga aylanmasligi kerak:

***Hudoning raxmati ko'p, besabab yo'q,
Huvaydo, sen so'zingni muxtasar qil.
Belingni bog'lagin, azmu safar qil,
Bu dunyodan o'zingni qilg'il ozod,
Kecha – kunduz ketarga aylagil zod.***

Bu satrlar tarki dunyochilikka da'vat emas. Abadiyatga poklanish, zohirni emas, botinni rostlash, qalb, ruh kamoloti bilan erishiladi. "Insonning ichi – hurriyat olami" – degan edi J.Rumi.

Tiriklik - ulkan mas'uliyat. Hayot – muttasil o'zgarish, yangilanish, harakatda. O'tgan kunlarga afsuslanish kelajakdan nolish kabi

bema'ni ishdir. O'z joniga o'zi qasd qilish esa na dunyoviy va na diniy tomondan oqlab bo'lmaydigan nodonlik. Hayot har qancha sermashaqqat bo'lmasin, undan har bir insonning kuchi va ehtiyojiga yarasha o'rin topiladi. Bizgacha yashab o'tganlar mehnati, kuchi, quvvati bizga me'ros qoldirilganidek, kelgusi avlod bizning mehnatimiz, bilak kuchimiz va aqlimizdan naf olib yashmog'i lozim: "Hayot men uchun erib tugayotgan sham emas, – degan edi Bernard Shou—u mening qo'limga bir lahzaga berilgan va men uni kelajak avlodga tutqazishimdan oldin mumkin qadar yorug'roq alanga oldirishga majbur etishim kerak bo'lgan ajib mash'aldir." Modomiki abadiy yashab qolish imkoni yo'q ekan, odamlar xotirasida ezgu nom bilan yashab qolish imkoni bor:

***Qololmas jahon ichra mangu kishi,
Faqat qolg'usi yaxshi nomu ishi.***

Muslihiddin Sa'diy

Shunday qilib, sobit e'tiqodli inson haqiqiy va sohta qadriyatlar farqiga borib, o'z shahsiy manfaat, ehtiyojlarini xalq, millat, jamiyat maqsad va manfaatlari bilan uyg'unlashtira olganda uning umri ma'no kasb etadi, tiriklikning qadriga yetadi, o'limdan qo'rqmasdan va uni hohlamasdan, hayotni teran anglab, his qilib, to'laqonli yashaydi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Inson, falsafiy antropologiya, antroposotsiogenez, antropoid, biologizatorlik, sotsiobiologik mavjudot, ong, in'ikos, ongsizlik, hayotning ma'nosi, gedonizm, altruizm, o'lim, abadiyat.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Falsafiy antropologiya qanday masalalar bilan shug'ullanadi?
2. "Indiv'id," "odam," "shaxs" tushunchalari o'rtasida farq bormi?
3. Antroposotsiogenezning diniy, fantastik, ilmiy va falsafiy talqinlari o'rtasidagi asosiy tafovut nimada?
4. "Inson –sotsiobiologik vujud" deganda nima nazarda tutiladi?
5. "Sotsial darvinizm" qanday ta'limot?
6. Onglilik va ongsizlik o'rtasidagi nisbatni izohlab bering?
7. Siz hayotning ma'nosi nimada deb bilasiz?
8. "O'lim huquqi," ya'ni o'z joniga qasd qilish haqida fikringiz qanday?

ADABIYOTLAR :

1. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. - "Fidokor" gazetasi, 2000 yil 8 iyun.
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. -"Tafakkur" jurnali, 1998, 2-son.
3. Komilov N. Tasavvuf. -Toshkent, 2001.
4. Falsafa. O'quv qo'llanma.- Toshkent, 2000.
5. Falsafa. Ma'ruzalar matni.- Toshkent. 2000.
6. Qahhorov M. A., Falsafa, Ma'ruza matnlari.- Farg'ona, 2000.
7. Qahhorov M.A. Sotsiologiya nima?- T. Fan va texnologiya, 2007.

8-MAVZU

BILISH FALSAFASI

I.Falsafaning borliq va uning qonunlarini bilish haqida baxs yurituvchi qismi «bilish nazariyasi» yoki «gnoseologiya» (yunon. «gnosis»-«bilim») deb nomlanadi. Garchi «gnoseologiya» termini ilmiy muomalaga kiritilganiga uncha ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, dunyoni aql-tafakkur asosida idrok qilish, fahmlash, bilish tarixan olis moziyga – insoniyatning go'daklik va bolalik pallalariga borib taqaladiki, bu davrlarda xali ilm-fan, demakki, ilmiy bilish ham kurtak yozmagan edi. Shu boisdan borliqni yaxlit bir butun sifatida anglashga qaratilgan **falsafiy bilish** ilmiy bilish bilan bir narsa emas, balki ma'lum ma'noda ilmiy bilishni ham o'z ichiga qamrab oladigan, to'g'rirog'i, unga tayanadigan, borliqning u yoki bu qismi, jixati, unsuri haqida emas, balki uning butun boshli tizim sifatidagi xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganishga, tadqiq qilishga qaratilgan mohiyat-e'tibori bilan eng chuqur, keng va asosli bilishdir.

Falsafiy va ilmiy bilish o'rtasidagi tafovutni yanada yaqqolroq xis qilish uchun «Falsafa fanmi yoki fan emasmi?» degan savolni o'rta qo'yaylik. Bu savolning ham o'ziga yarasha tarixiy ildizlari bor, zero XIX asrda g'arbda falsafaning ijtimoiy ong shakli sifatidagi o'ziga xosligini inkor etuvchi **stseintizm** (lotin. «sayentis»-«fan») va buni yoqlab chiquvchi **antistseintizm** oqimlari bu masalada uzoq vaqt tortishganlar.

Fikrimizcha, **falsafa bir jixatdan fan**; u ilm-fan bilan bog'langan, qolaversa, mustaqil fan sifatida muayyan ilmiy – tadqiqotchilik

maqomiga ham ega. U ilmiy bilimlarni generator misoli bir umumiy maxrajga keltirib, «Dunyo nima?» degan azaliy savolga ilmiy izox berishga intiladi. Shunga ko'ra, uni «fanlar gultoji», «fanlar shoxi», «fanlar fani» deb ulug'lash rasm bo'lgan.

Ayni chog'da falsafa fizika, matematika, kimyo singari oddiy fan emas. Uning asosiy vazifasi ilmiy bilimlarni umumlashtirishdangina iborat, deb ham bo'lmaydi. Falsafaning, falsafiy bilishning ilmiy bilishdan ustunligi va o'ziga xos, betakror alomati ham, extimol shundaki, u dunyoni yaxlitlikda idrok etish, anglash vazifalarini hal qilish bilan chegaralanmasdan, tafakkurning erkin ijodiy parvozi amalga oshadigan soha sifatida bundan-da yuqoriroq ko'tariladi, dunyoning to'laqonli falsafiy manzarasini kashf etadi. Shu ma'noda falsafiy bilish bilan ilmiy bilishni, aynan bir narsa deb, ular o'rtasidagi sifatiiy ayirmani ko'ra bilmaslik amalda falsafani – erkin, ijodiy tafakkurga asoslangan bilishni oddiy fan qatoriga tushirib qo'yish, uning qadr-qimmatini bir qadar kamsitish bilan barobar.

Falsafa – ijod, falsafiy bilish – borliqni nafaqat ilmiy bilimlar, balki yana intuitsiya, xayol, abstraktsiya kuch-quvvati bilan, keng qamrovli nigox bilan ijodkorona bilish ekanligi yana shu bilan tasdiqlanishi mumkinki, buyuk alloma-faylasuflarning aksariyati ayni vaqtda ilmiy yoki badiiy ijodda ham ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgan, ulug' olimu – shoirlar, ixtirochi – kashfiyotchilar, daho ijodkorlarning ko'pchiligi ayni vaqtda atoqli mutafakkirlar bo'lishgan.

Shunday qilib, gnoseologiya – falsafiy bilish haqidagi ta'limot. Bundan buyon uni lo'nda qilib «bilish» deb yuritamiz.

II. **Bilishning asosi va maqsadi** masalalari dastlab qadimgi yunon faylasuflari Demokrit, Platon, Aristotel, so'ngra epikurchilar, skeptiklar, stoiklar diqqat markazida bo'lgan. **Skeptitsizm** oqimi (Pirron, Karnead, Enesidem va b.) bilimni reallikdan ajratib, tashqi olamning chinligiga shubxa (lotin. «skepsis»-«shubxa») bildirgan yoki uning mavjudligini butunlay inkor qilgan bo'lsalar, **agnostitsizm** (lotin «agnosis»-«bilmayman») vakillari to'g'ridan-to'g'ri «inson olamni bila olmaydi» deb hisoblab, aql-tafakkur rolini yerga urganlar. Chunonchi, agnostitsizmning taniqli nazariyotchisi, ingliz faylasufi Devid Yum fikricha, har qanday bilish asli bilmaslikdan yoki bilmaslikning yangi sohalarini ochishdan iborat. Ushbu oqimning yana bir taniqli vakili – Immanuel Kant : «Insonlar to'g'risida biz xech nima bilmaymiz, biz ularning ko'rinishlari bilan duch kelamiz, xolos» degan va borliqni bilib, anglab bo'lmas mohiyatlar – «narsa o'zida»lar yig'indisi deb atagan. Sokratning mashxur: «Men shuni bilamanki, xech narsani bilmayman» degan paradoksi ham ma'lum ma'noda agnostitsizmni oqlaydi.

Ilmiy -dunyoviy falsafa inson aqli, tafakkurini, bilish imkoniyatlarini yetarlicha baholamaslik yoki qasddan kamsitish bilan aslo kelisha olmaydi, sezgilarimiz, tasavvurlarimiz, tushunchalarimiz borliq haqida to'liq bilim berishga qodir, inson dunyoni bila oladi, deb hisoblaydi, ayni vaqtda dunyoni bilish murakkab, tadrijiy ijtimoiy-tarixiy jarayon ekaniga aloxida urg'u beradi.

Ilmiy falsafa nuqtai-nazaridan skeptitsizm va agnostitsizmning gnoseologik ildizi bilish jarayonini amaliy faoliyatdan uzib talqin etilganidadir. Bilish dunyoni jonli mushoxada etib, shundan xulosalar yasashdangina iborat emas, bu buyumlashgan, murakkab «sub'ekt-ob'ekt» munosabatlari, bir marotabalik akt emas, balki millionlab marotaba takrorlanuvchi, shu bois narsa-hodisa(ob'ekt) mohiyatiga bosqichma-bosqich kirib borish imkoniyatini beruvchi hayotiy jarayondirki, bunda sub'ekt tobora ob'ektni to'laroq, mohiyatan aniqroq va atroflicha qamrab ola boradi. Qolaversa, atrof-olam xossa va qonuniyatlari bir yoki bir necha avlod sa'y-xarakati, biluvchanlik intilishi bilan kashf etilishi aslo mumkin emas. «Quloch yetmas narsani qamrab olib bo'lmaydi» deydi donishmand. Buning uchun har qancha allomai zamon bo'lmasin, bir olimu donishmandning, xatto, olimlar jamoasining xohish-irodasi, xarakati yetarli emas. Borliq – bexad, bexudud tilsimot, binobarin, uning qonuniyatlarini birin-ketin ocha borish uchun butun insoniyat ilmi, aqlu-tafakkurining mashaqqatli va beto'xtov faoliyat ko'rsatmog'i talab qilinadi. Bilish asosida yotuvchi ana shu turli-tuman insoniy faoliyat ko'rinishlarining jami **amaliyot**(praktika) deb ataladi. U o'z ichiga oddiy mushoxada(ko'zatish)dan ilmiy eksperimentgacha, mehnat, ijtimoiy-siyosiy faoliyatdan tortib badiiy va ilmiy ijodgacha inson moddiy hamda ma'naviy faoliyatining barcha turlarini qamrab oladi. Bilishni ijtimoiy-tarixiy jarayon deb talqin etilishining ma'nosi ham shunda.

Ibtidoiy jamiyatda bilish va buyumlashgan faoliyat bir-biridan ajralmagan bir narsa edi, chunki inson nimaiki bilsa, tajribada bilar edi. Keyinchalik, tabiiy-tarixiy asosda yuz bergan mexnatning aqliy va jismoniy turlarga taqsimlanishi natijada, g'oyalar ishlab chiqarish buyumlar ishlab chiqarishdan mustaqillashgach, nazariya va amaliyot faoliyatning o'zaro bog'liq ikki turiga aylandi, bilish asosan aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi kishilarning faoliyat sohasi bo'lib qoldi.

Bilish, ilmiy falsafa ta'biricha, bilmaslikdan – bilimga, kamroq bilishdan tobora ko'proq bilishga, qismni bilishdan – tizimni bilishga, ba'zida qo'lga kiritiladigan yanglish, mavxum bilimdan – tobora haqiqatga, to'liqroq va aniqroq bilimga yunalgan dialektik jarayon.

«Umrning butun ma'nosi mavxumlikni to'xtovsiz zabt etish, tobora va xamisha ko'proq bilimga intilishdir»- degan edi fransuz adibi Emil Zolya. Bilmaslik – nodonlik, bilib olinmagan narsa hamisha sirli, qo'rqinchli, begona. Bilimsizlik – ojizlik. «Bilganlarimizning cheki bor,- deydi fransuz allomasi P.Laplas, - bilolmagan narsalarimizning esa xad-chegarasi yo'q». Bilmagan narsalarini bilib olmog'i va o'zi ham bunga ishonmog'i uchun inson muttasil fikrlamog'i lozim. Bu inson erkinligi va qadr-qimmatining birlamchi sharti, zero u dunyoni qanchalik bilsa, o'zligini ham shunchalik anglaydi. Bilim manbai esa bexad: insoniyat bu yo'lda qanchalik yutuqlarga erishmasin, biluvchanlik qobiliyati nechog'lik takomilga yetmasin, barcha odamlarning izlanishi, kashfi va bilimi uchun o'rin topiladi. A.Firdavsiy uqtirganidek,

***Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on,
Shunda bilursankim, ilm bepoyon.***

Shunday qilib, ko'rdikki, bilish – borliqni aks ettirishdan iborat dialektik jarayon bo'lib, uning zamirida olam haqidagi bilimlarning tobora ko'payib borishi yotadi.

Bilimga eltuvchi yagona yo'l faoliyatdir. Shu ma'noda amaliyot – bilishning asosi. **Amaliyot** va **nazariya** bir butunning – faoliyatning ikki turi sifatida biri-ikkinchisidan farq qiladi, ammo ayni vaqtda bir-birini taqozo etadi ham. «Ilm-aql shamchirog'i» deymiz, buning ma'nosi shuki, nazariy ong amaliyot yo'lini yoritish uchun undan bir qadam oldinroq ildamlashi lozim. Buni fransuz faylasufi Deni Didro juda chiroyli ifodalagan: «Narsalar qanday bo'lmog'i lozimligini bilish aqli odamga xosdir; narsalarning haqiqatda qandayligini bilish tajribali odamga xos; narsalarni yanada takomillashtirishni bilish buyuk odamga xos». Darhaqiqat, nazariya amaliyotdan dadilroq odimlaydi, biroq uning yo'nalishi va xatto har bir odimi pirovardida amaliyot izmida, negaki bilishning maromi, ustuvor yo'nalishlari va tub maqsadini xuddi qonun kabi qat'iy qilib amaliyot belgilab beradi. Shu bois nazariya, xatto eng mavhum bilimlar ham oxir-oqibatda amaliyotga xizmat qiladi, uni rivojlantiradi. Demak, amaliyot bilishning asosigina emas, bosh maqsadi hamdir. Buyuk nemis shoiri I.Gyote ogoh etganidek, «amaliyot quruqdir, do'stim, ammo yashnar xayot daraxti». Amaliyotni ko'zlamagan, amaliy nafi bo'lmagan bilim, g'oya soxta nazariyabozlikdan boshqa narsa emas.

Shunday qilib, bilishdan maqsad – bilim zaxirasini tobora ko'paytirish, «bilim uchun bilish» emas, uni amaliyotda qo'llash, bilim

vositasida insoniy erkinlik va kuch-qudrat miqyoslarini o'stirishdir. Bilim va qudrat – ikkovi egizak. Inson qancha ko'p bilsa, uning dasti shunchalik uzun. A. Rudakiy ta'biricha, bilim – barcha kulfatlarga qalqon. Har qanday bilim bizni xarakatga, g'ayratga undagan taqdirdagina qimmatlidir. Nafaqat moddiy ishlab chiqarishda, tadbirkorlikda, balki ma'naviy hayotda ham, amaliy faoliyatdagidek, kimki bilimga tayansagina kamol topadi va o'zligini ro'yobga chiqara oladi. Demak, bilish – bilim jamg'arishning o'zi kifoya emas, bilim xazinasini amalda ishlatish uchun o'quvli xam bo'lish kerak. Buni XI asrda yashab o'tgan alloma bobokalonimiz Yusuf Xos Xojib "Qutadg'u bilik" ("Saodatga eltuvchi bilim") dostonidagi g'oyat ibratomo'z nasixatida shunday ifodalagan:

***Bilimni buyuk bil, o'quvni ulug',
Bu ikkov ulug'lar kishini tulug',
O'quv paydo bo'lsa, ulug'lik bo'lar,
Bilim kimda bo'lsa, buyuklik olar.
Bilimdan yozilar bor tugun, chigal.
Bilimni uqib ol o'zing har mahal.***

III. **Bilish bosqichlari.** «Sezgilar ishonchli, to'g'ri bilim beradimi yoki tafakkurmi?»- bu dilemma bilish bosqichlari haqidagi munozarali masaladan boshlanib, falsafa tarixida **sensualizm** (lotin. «sensus»- «sezgi») va **ratsionalizm** (lotin. «ratsionalis»-«aqliy») oqimlari yuzaga kelishiga va ular o'rtasidagi uzoq tortishuvlarga sabab bo'lgan. Sensualistlar (J.Berkli, D.Yum, J.Lokk va b.) «sezgilargina yagona to'g'ri bilim beradi, xatto, aql xam sezgiga tayanadi» deb bir qutbni egallasa, ratsionalistlar (B.Spinoza, R.Dekart va b.) «Sezgilar odamni chalg'itadi, yagona ishonchli manba – aql» deb hisoblab, qarama-qarshi mavqeda turadilar.

Yana boshqa bir gurux faylasuflar ham borki, ular xissiy (empirik) va aqliy (mantiqiy) bilish o'zaro zid emas, balki biri-ikkinchisini to'ldiradi deb hisoblaydilar. Chunonchi, tasavvuf falsafasi buni o'zicha talqin eta borib, ko'ngil(dil)dan aql sari borish ham, aqldan ko'ngilga qarab yurish ham bir narsa, chunki har ikki holatda ham uning ichki xarakatini nur va ilohiy latiflik boshqaradi, deydi. Shuning uchun aqlni – yurakka, yurakni – aqlga qarshi qo'yish puch bir da'vo. Tasavvuf falsafasiga ko'ra, buning sababi shundaki, insonning zoxiri – botiniga, botini – zoxiriga tobe. Vujud – zoxir, aql – botin. Jism – ko'rinadigan, rux – ko'rinmaydigan mavjudlik. Ko'rinadiganni ko'rish ham, bilish ham mumkin, ko'rinmaydiganni esa ko'rish bilishdan, bilish esa ko'rishdan qiyin. Sirru mohiyat zoxirda emas, botinda yashirin. Shu

bois xis bilan cheklanmay, aqlga murojaat etiladi. Atoqli tasavvufchi faylasuf Shayx Aziziddin Nasafiy: «Ulug' odamlarning avvalu-oxiri, zoxiru-botini, mohiyat va shakllarini idrok etish uchun o'zingning mohiyating, zoxir va botiningni anglab yetgin»,- deydi. Jaloliddin Rumiy bu jarayonni surat (hodisa) dan siyrat (mohiyat) ga borish deb atagan.

Ilmiy falsafaga ko'ra, **bilish ikki bosqichli**: xissiylikdan – narsa-hodisalarning tashqi xossalarini sezish, idrok etish va tasavvur qilishdan boshlanadi va yuqoriroq bosqichga – ularning ichki muhim aloqa va bog'lanishlari, qonuniyatlarini tushuncha, xukm va xulosalar tarzida anglash, mohiyatan tushunish darajasiga ko'tariladi. Binobarin, bular qarama-qarshi, ammo uzviy bog'liq bosqichlar bo'lganidan, o'zaro zidlash yoki birini-ikkinchisidan ustun qo'yish mantiqsiz.

Bilish sezgidan – narsa-hodisaning rangi, xidi, ta'mi, shakli, qattiq-yumshoqligi to'g'risida **beshta tashqi sezgi** organlari bergan ma'lumotdan boshlanadi. Bunday qobiliyat odamdagina uchramaydi. Atoqli sufiy alloma Zayniddin Muhammad Gazzoliy yozishicha, «besh sezgi(xavosi panjgona) barcha xayvonda ham bordur va ko'zi, qulog'i, dimog'i, ta'm bilish, issiq-sovuqni farqlash sezgilari yaxshi ishlaydirgan odam xali xayvonot olamidani yuqori ko'tarilmagandir. Odamzotning xayvonotdan farqi uning ko'ngil olamidir. Inson vujudi – tuproqdan, dili – iloxiy nurdan yaratilgandir. Dil haq taoloning arshi a'lodan insonga ato etgan eng muqaddas tuxfasidir. Inson vujudida mana shu dil yoki rux podshodir. Inson vujudining barcha a'zolari podshox rux(dil)ning lashkarlari bo'lib, uning amri farmoni bilan ish tuturlar. Rux bo'lmasa, vujud o'likdan farqlanmas». Xullas, alloma tasavvufiy tushunchalarda bayon etganidek, sezgilar miyada «qayta ishlanib», yaqqol xissiy obraz-idrokka birlashtiriladi, ya'ni ong faktiga aylantiriladi. Bu obraz bir bora yaratilgach, so'ngra beiz yo'qolib ketmaydi, balki xotira va xayolda muxrlanadi, binobarin, ong zaxirasida saqlanadi va lozim bo'lgan vaqt va joyda qayta jonlantirilishi, ya'ni tasavvur etilishi mumkin bo'ladi. Tasavvur narsaning xissiy obrazini uning o'zi bilan bevosita ta'sirga kirishmasdan xam qayta xosil eta olish xususiyati sifatida xissiy bilishning yuqori shakli, mantiqiy bilishga o'tish uchun o'ziga xos «ko'pri» bo'lib maydonga chiqadi.

Ayrim ta'limotlarda haqiqatga na xissiy (empirik), na aqliy (ratsional), balki gaybona-ilohiy yo'l bilan erishiladi, deyiladi. Chunonchi, tasavvufchi alloma Ibn Arabiy bilimlarni «kasbiy», ya'ni o'rganib olinadigan va «vaxbiy»-o'rganilmasdan beriladigan bilimlarga bo'ladi. Uning fikricha, barcha narsalarni «kashfi-shuxud», ya'ni ichki

dunyo haqiqatlarini tariqqat axliga zoxir bo'lishi orqali anglab olish mumkin. «Aqliy bilish, oddiy mantiq xaqiqatni bilib olish yo'lidagi parda-xijobdur» - deydi u. Fikrimizcha, tasavvufona, «g'aybona» bilish ilmiy falsafada «oltinchi sezgi» deb nom olgan kuchli ichki faxm – intuitsiyaga yaqin qobiliyat bo'lib, darhaqiqat, ichdan bila va ko'ra olishdek bu o'ta noyob biluvchanlik xususiyati xar kimga xam nasib etavermaydi, biroq uning xis-tuyg'u va aqldan tamomila mustaqil bo'lolmasligi aniq.

Aksariyat dinlar, ob'ektiv-idealistik falsafiy ta'limotlarda «Olamiy aql» tushunchasi ishlatiladi. Naql qilishlaricha, Olohhdan: «Yo rabbimiz! Arshi a'lodan xam a'loroq biror narsa yaratdingizmi?» deb so'raganlarida parvardigori olam: «Ha, aqlni yaratdim» degan ekan. «Aqlning qiymatiga teng narsa nadur?» deb so'ralganida: «Xayxot! Xech kimsa buni bilishga qodir bo'lmagay» degan javob bo'libdi. Xakim at-Termiziy «Oloh aqldan ustun va sharafliroq biror narsa yaratmagan» deya ta'kidlaganda shu haqiqatni nazarda tutgan bo'lsa, ne ajab. Tasavvufda Ollox qudratining mujassami bo'lmish ilohiy va mutloq aql – «aqli kull» ham, oddiy insongagina tegishli «aqli ju'z» ham e'tirof etiladi. «Aqli kull»ning qudrati va birlamchiligini inkor etish Olohni inkor etish bilan barobar. Ayni vaqtda «aqli juz» esa haq va botilni bir-biridan bexato farqlashga qobil emas. Odam aqli ju'zga qaram ekan, xech qachon o'zligini to'g'ri idrok eta olmaydi, degan noratsional fikr xam bildiriladi.

Ilmiy falsafa aqlni insonga xudo emas, tabiat ato etgan eng buyuk in'om deb biladi. Aql insonni extiros va nuqsonlardan baland turibgina qolmay, fazilatlari, iste'dodi, ezguliklaridan maqsadga muvofiq foydalanishda ham yordam beradi. «Mantiq tafakkur kishilarining tangrisidir» - degan edi nemis adibi va mutafakkiri Leon Feyxtvanger. U insonning ma'naviy quroli, bebaxo qomusi.

Bilish xissilikdan boshlanib, xis-tuyg'ulardan oziqlanib, aqliy bosqichda – tushuncha, xukm va xulosa kabi mantiqiy shakllarda davom etadi. Aql xissiyotning ko'zini ochadi. Fransuz allomasi J.Fabr qayd etganidek, «aql muloxaza yuritish, anglash xususiyatiga, ya'ni sabab va oqibatni uzviy bog'lash, «nima uchun?» degan savolga javob berish, tasodiflarni aniqlash, qonuniyatlarni ochish, yangi xususiyatlarning yangi sharoitlarga mosligini belgilash, voqealar zanjirining boshi va nixoyasini topish xususiyatiga ega.»

Tushuncha – narsa-xodisalarning eng muxim va umumiy belgi, xossalari haqidagi bilim. Tafakkur ularni ikkinchi darajali, nomuhim belgilardan mavhumlashtirib, ajratib oladi va so'zlarda ifodalaydi. Masalan, «inson» tushunchasi jami odamzotga xos ong, til, nutq, tafakkur, mexnat qobiliyatini umumlashtiradi. Bilib olinayotgan yangi

belgi va xossalari yangi tushunchalarni hosil qiladi. Tushunchalar mantiqiy boglovchi yordamida inkor yoki tasdiq **xukmlariga** birlashadi, voqelikdagi bog'lanish va qonuniyatlarni ifodalaydi. Masalan, «Odam-ongli mavjudot», «Mexnatsiz baxt yo'q» va xokazo. Bir yoki bir necha xukmdan mantiqiy usullarda keltirib chiqarilgan yangi bilim **xulosa** deyiladi. Xulosa chiqarishning yakka xukmdan umumiy xukmga boruvchi induksiya, uning aksi bo'lgan deduksiya, o'xshash belgilarga asoslangan analogiya bo'icha xulosa chiqarish kabi bir qator turlari bor. Chunonchi, barcha sobiq ittifoqdosh respublikalar bozor iqtisodiyotiga o'tayotganligi haqidagi umumiy xukmdan deduktiv yo'l bilan mustaqil O'zbekistonning ham bozor iqtisodiyotiga o'tayotganligi haqida xususiy xulosa yasash mumkin. Har bitta inson baxtga tashnaligidan «Inson zoti baxtga intiladi» degan umumiy induktiv xulosa chiqarsa bo'ladi.

Bilish mantiqiy tafakkurga, chin tushunchalar, to'g'ri fikrlar, ishonchli xukmlar va qat'iy mantiqiy xulosalarga tayanadi. Ko'rgan-kechirganlaridan saboq olib, xulosa chiqarib borish ham yaxshi fazilat.

IV. Haqiqat, ta'bir joiz bo'lsa, bilish nazariyasi va umuman falsafaning tub masalalaridan. Zero bu har qanday faoliyatning pirovard maqsadi. Buyuk nemis mutafakkiri G.-V.-F. Gegel ta'biricha, «eng jiddiy ehtiyoj – bu haqiqatni bilish ehtiyojidir». Biroq haqiqatni izlab topish, uni soxta haqiqatdan farqlay olish, yangilashga yo'l qo'ymaslik, atoqli fransuz olimi Blez Paskal qayd etganidek, oson ish emas: «Bunda uch maqsadni ko'zda tutish: haqiqatni qidirib topish, topgandan so'ng isbotlash, nihoyat, uni soxtalikdan ayira bilish darkor».

«Haqiqat nima?» degan savolga bir xil javob olish qiyin. Haqiqat ko'p qirrali va ko'p o'lchamli. **Plyuralizm** – har kimning o'z haqiqati bor degani. Ammo kundalik ong, ijtimoiy ruhiyat nuqtai nazaridan emas, nazariy ong yuksaqligidan yondoshilsa, haqiqatga falsafiy-gnoseologik ta'rif berish talab qilinadi.

Materializm falsafasi uchun haqiqat xissiylik bilan, xis qilish mumkin bo'lgan narsa bilan birday. Chunonchi, nemis allomasi Lyudvig Feyerbax to'g'ridan-to'g'ri: «Haqiqatlik – bu xis qilish bilan barobar narsa» degan. Idealizm falsafasi vakillari nazarida haqiqat sub'ekt bilan bog'liq, sub'ektiv narsa. Masalan, taniqli rus faylasufi N.K.Mixaylovskiy ta'biricha, «Haqiqat inson tufayli mavjud, insonsiz haqiqat yo'q». Pragmatizm falsafasining asoschisi, AQSHlik mutafakkir Charlz Pirs uni «ko'pchilik e'tirof etgan, tasdiqlagan fikr» deb sub'ektiv-ijtimoiy fikr darajasiga ko'tardi. Uning maslakdoshi U.Jems «har qanday foydali g'oya men uchun haqiqat», deydi.

Nemis faylasufi G.Loaxim, garchi haqiqat mavjudligini e'tirof etsa-da, uni «cheksiz bilish jarayonida etib bo'lmaydigan ideal»,- deb ta'riflaydi.

Tasavvuf va boshqa diniy-falsafiy yo'nalishdagi ta'limotlarga ko'ra, surat – obraz, siyrat – ma'no; ma'noga etish – xaqqa etishdir. Jaloliddin Rumiy: «Ollohning yaratgan olamlari cheksiz bo'lganiday, uning ilmi ham cheksizdir va Kur'oni Karim Ollox ilmining hammasi emas, uning bir qismi, binobarin, bu ilm keyin ham kashf etilishi mumkin» degan. Yangi haqiqatlarni ochishda, alloma fikricha, «yarim yo'lda to'xtab qolish yaramaydi: haqiqat yo'lida shariat bosqichidan ma'rifatga o'tiladi. Ma'rifati, bilimi oshgani sayin odam iloh g'aybiga yaqinlashadi, haqiqat oshig'i bo'lib, Haq sari talpinaveradi». Demak, diniy falsafada haqiqat – Haq (Olloh), haqiqatni bilish – Ollohni anglash.

Ilmiy, dunyoviy falsafa nuqtai nazaridan **haqiqat – narsa emas, balki uning in'ikosi bo'lgan bilim.** Bilim bo'lganda ham yolg'on bilim, yanglish bilim, qotib qolgan aqida emas, balki voqelikni to'g'ri aks ettiradigan, unga muvofiq, tajribada tasdiqlangan chin, hayotiy bilim, nazariya, g'oya. Shu ma'noda bilimning haqiqat yoki haqiqat emasligini ayrim odam, gurux, xatto, olomonning tasdiqlashi yoki inkor etishi bilan ulchanmaydi, zero «ko'pchilikning e'tirof etishi xali haqiqat uchun uzil-kesil dalil emas» (D.Didro).

Bilim haqiqatligining hamma uchun birday obektiv mezoni – bu **amaliyot.** Bu fikrni soddaroq qilib italiyalik mutafakkir T.Kampanella: «Haqiqat mezoni - tajriba» degan. Ilm-fanda haqiqatni ko'proq yolg'iz olim kashf etadi, ammo bundan u subektiv mazmun kasb etib qolmaydi. Fan, ilmiy tadqiqotlar sohasida ham obektiv mezon o'z kuchini saqlaydi, zotan Albert Eynshteyn ta'kidlaganidek, «tajriba sinoviga bardosh bergan narsagina haqiqat».

Shunday qilib, haqiqat, ilmiy falsafaga ko'ra, voqelikka to'la mos, ya'ni adekvat bilim. Bilimning haqiqatligi amaliyot bilan yoinki chinligi avvaldan ma'lum, isbot talab qilmaydigan aksiomatik bilimlar (masalan, «ikki karra ikki - turt») qabilidagi) bilan mantiqan isbotlanishi yoki rad etilishi mumkin.

Dunyoda xech narsaga haqiqatchalik mashaqqat bilan erishilmaydi. Bu – yanglishuvlar, ikkilanishlar, taxminlar, omadsiz urinishlar va kashfiyot lazzatlari bilan to'la yo'l. Haqiqat yuzada yotmaydi, ammo uni izlashga jur'at bilan kirishishning o'ziyoq taxsinga loyiq. **Qotib qolgan bilim yo'q, binobarin, haqiqat ham o'zgarishdagi jarayon.** Bir ijtimoiy makon va zamonda haqiqat bo'lgan bilim boshqasida o'z ahamiyatini yo'qotishi, eskirishi mumkin. Shuni nazarda tutib, «har bir inson, - degan edi L.Tolstoy,- bashariyat

aql-idroki yaratgan jami boyliklardan bahramand bo'lmog'i mumkin va lozim, ammo ayni vaqtda u o'ziga qadar yashagan odamlardan qolgan haqiqatlarni o'z aql-idroki sinovidan o'tkazmog'i lozim»).

Binobarin, hamma davr, sharoit uchun maqbul hamda o'zgarmas **absolyut haqiqat** yo'q va bo'lmaydi ham. **Haqiqat nisbiy**, konkret, unda zamon muxri bor. Misni – oltindan, soxta haqiqatni – chin bilimdan farqlash, adashmaslik uchun ishni fikr bilan, fikrni – ish bilan tekshirib turiladi. Shunda odam boshi berk ko'chaga kirib qolmaydi, yanglishgan taqdirda ham haqiqatni tezda topadi, zero yanglishganini tan olgan odam ham donodir. Faqat kaltabin, nodongina o'z xatosini tan olmaydi, o'z umrini tugatgan aqidalardan voz kecholmaydi.

Shunday qilib, bilishdan maqsad – chin bilim – haqiqatga yetish. Borliqning mutloq haqiqatiga turli daraja va miqyosdagi konkret, nisbiy haqiqatlarni bilish orqali bosqichma-bosqich erishiladi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Bilish, ilmiy bilish, falsafiy bilish, xissiy bilish, aqliy bilish, sensualizm, ratsionalizm, amaliyot, haqiqat, abadiy haqiqat, absolyut va nisbiy haqiqat.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. «Gnoseologiya» so'zining lug'aviy ma'nosi nima?
2. Ilmiy bilish va falsafiy bilish o'rtasida nima farq bor?
3. Amaliyotning bilishdagi o'rni qanday?
4. Dunyoni bilishning chek-chegarasi bormi?
5. «Avvalo o'zingni angla, bil» degan faylasuf kim?
6. Intuitsiya bilishning qaysi turiga kiradi?
7. Ko'pchilik e'tirof etgan bilim haqiqat bo'ladimi?
8. «Har kishining o'z haqiqati bor» degan fikrga qanday qaraysiz?

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T, Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. – "Fidokor" gazetasi, 2000 yil, 8 iyun.
3. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratiyalash va yangilash, mamalakatni modernizatsiyalash va islox qilishdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma yig'ilishidagi nutq – Toshkent, 2005.

4. Falsafa. E.Yusupov taxriri ostida. Tuldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent, Sharq, 2005.
5. Qahhorov M.A.Falsafa. Ma'ruza matnlari .- Farg'ona, 2000.
6. Qahhorov M.A. Inson va jamiyat falsafasi .- Qo'qon, 2002.

9-MAVZU

QADRIYATLAR FALSAFASI

I **«Qadriyat» tushunchasi.** Falsafaning qadriyatlarining mohiyati, tasnifi, inson hamda jamiyat hayotidagi roli taxlil etiladigan qismi **«qadriyatlar falsafasi» yoki «aksiologiya»** (yunon. «aksiya»- «qimmatdon») deb ataladi. «Qadriyat» tushunchasi «qadr» so'zidan olingan. Olamda qadr-qimmat, nufuz, ahamiyati bo'lmagan narsa - hodisalarining o'zi yo'q. Binobarin, keng manoda qadriyatlar bilan har kim har qadamda duch keladi, qadriyatlar muammosi bilan tabiiy va ijtimoiy fanlarning deyarli barchasi shug'ullanadi, zero bilim va uni egallashning usullari, metodlari ham e'tiborga molik eng ezgu qadriyatlardir. Aksiologiya esa, ijtimoiy-falsafiy nazariya sifatida, konkret qadriyatlarning konkret kelib chiqishi va namoyon bo'lishi shart-sharoitlari hamda xususiyatlaridan ma'lum darajada «yuqorilab», qadriyatning eng umumiy va yaxlit tushunchasini shakllantiradi, uning ijtimoiy borliq va ong bilan a'loqadorlikdagi

rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq etadi, falsafiy va sotsiologik jihatlardan izoxlaydi.

Aksiologiya maxsus tadqiqot sohasi sifatida g'arb mamlakatlarida XIX asr oxiri– XX asr boshlarida umumiy qimmatdorlik muammosiga a'loqador bo'lgan ba'zi murakkab falsafiy masalalarni hal qilishga urinish tarzida paydo bo'ldi. G'arb aksiologiyasi dastlab uch yo'nalishda rivojlangan: ob'ektiv-idealistik, sub'ektiv-idealistik va naturalistik.

Ob'ektiv – idealistik nazariya (yangi kantchilik, fenomenologiya, neotomizm, intuitivizm va boshqalar) qadriyatlarni makon va zamondan xoli, narigi dunyoga xos mohiyat deb qaraydi. **Sub'ektiv – idealistik nazariyalar** (mantiqiy pozitivizm, emotivizm, etik-lingvistik taxlil, U.Erban, D. Proll, K.Lyuisning qadriyat-iroda nazariyasi va boshqalar) qadriyatlarni faqat ong sohasi, inson sub'ektiv munosabatlarining ko'rinishi deb hisoblaydi. **Naturalistik nazariyalarga** ko'ra (axloqiy naturalizm, manfaat nazariyasi, evolyutsion etika, kosmik teleologiya etikasi va boshqalar) qadriyatlar inson tabiiy ehtiyojlari yoki umuman tabiat qonunining ifodasi. Ko'rinib turganidek, aksiologiya asoschilari qadriyatlar tabiatini tadqiq etish turli-tuman falsafiy masalalar bilan bog'liqligini to'g'ri qayd etganlar va ayni chog'da aksiologiyaning qadriyat xaqidagi umumiy nazariyadan iborat nisbiy mustaqil xarakterini ham aloxida ta'kidlab ko'rsatganlar.

Shunga qaramay, shuro tuzumi qadriyatlar falsafasi bo'lmish aksiologiyani toki 60 – yillar oxirigacha «burjua soxta fani» tariqasida ta'qiqlab keldi, xatto keyinchalik - aksiologiya tadqiqotlariga yo'l ochilgan chog'da ham asosan «sotsialistik», «proletan», «shuroviy» qadriyatlar ustida fikr yuritish va ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlarga qarama - qarshi qo'yib, bir tomonlama ulug'lashdan, sinfiy – partiyaviy, buyuk millatchilik, mustamlakachilikni ustun qo'yuvchi yasama, sun'iy «qadriyat»- larni zur berib targibu – tashviq qilishdan nariga o'ta olmadi. Shuro tuzumining aksiologiyasi mustabid tuzum va kommunistik mafkuraning g'oyaviy cho'risi edi.

Mustaqil O'zbekistonda aksiologik tadqiqotlar va qadriyatlarni o'rganish, tiklash, zamon ruhi bilan boyitish borasidagi amaliy ishlarga aloxida e'tibor qaratilmoqda, negaki bu sa'y – xarakatlar oliy qadriyat bo'lmish mustaqillikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qadriyat – jamiyat va tabiatdagi ahamiyati, o'rni, nufuzi e'tirof etilgan moddiy va ma'naviy nematlar, munosabatlar, jarayonlardir. Qadriyatning mohiyatini tor ma'noda, qimmatli bor narsalar, masalan, qimmatbaho buyumlar yoki moddiy – iqtisodiy qimmatli yuqori narsalar deb tushunish yaramaydi. Qadriyat narsaning

bahosida ham aks etmaydi, bahosi arzon, masalan, gugurt ham xech narsa o'rnini bosmaydigan qadr – qimmatga ega bo'lishi va, aksincha, bahosi nihoyatda baland buyum qadri ham shu qadar yuqori bo'lavermasligi mumkin. Demak, qadriyat – bu narsaning o'zi emas, balki uning ijtimoiy ahamiyati mujassamlashuvidir.

Qadriyatni narsaning nafi, foydaliligi bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Nimaiki odamga foyda keltirsa, masalan, yolg'onchilik, riyokorlik, qadriyat bo'lavermaydi, o'z navbatida, xozir, shu damda nafi tegmayotgan narsa, chunonchi, arxeologik qazishmada topilgan moziyning tilsiz guvoxi bo'lgan sinia ko'za ilmiy – tarixiy nuqtai – nazardan bebaho qadriyat deb e'tirof etilishi mumkin.

Moddiy va ma'naviy ne'matlarni ko'zdan kechirsak, ularning ijtimoiy nufuzi, o'rni, ahamiyati bir xilda emasligini, binobarn, qadr – qimmat turlichaligini ko'ramiz. Narsa – hodisa umuman o'zgarmagani holda, ijtimoiy makon va zamon o'zgarishi oqibatida shu narsa, hodisaning ahamiyati, o'rni, ijtimoiy baxosi o'zgarishga duchor bo'lishi, demak, uning qadr-qimmat o'zgarishi: oshishi yoki, aksincha, tushib ketishi, ya'ni qadrsizlanishi tabiiy xol. **Qadrsizlanish** o'z-o'zicha emas, balki ijtimoiy borliq, ijtimoiy ongdagi ziddiyatlar, ularning hal etila borishi ifodasi sifatida yuzaga chiqadi. Qadrsizlanish – ushbu jarayonning bir qutbi, xolos, uning ikkinchi, qarama – qarshi qutbida yangi qadriyatlar shakllanishi tuxtamay davom etadi. Chunonchi, mustaqillikning qo'lga kiritilishi shuro tuzumi kishilarimiz ongiga zo'rma-zo'raki singdirgan «sotsialistik mehnat», «baynalmilalchilik», «kommunistik axloq», «kommunistik partiyaga sadoqat» kabi qadriyat deb kelingan hodisa va tushuncha, tamoyillarni o'tmish mulkiga aylantirdi, uning o'rnini «insonparvarlik», «istiqlol mafkurasini», «milliy davlatchilik», «milliy ong» kabi yangi qadriyatlar egalladi.

Qadriyatlar uchun bir tomondan barqarorlik, ikkinchi tomonidan esa o'zgaruvchanlik xos. Bir nuqtai nazardan qadriyat deb baxolanishga loyiq narsa ikkinchi nuqtai nazardan bunday baholanmasligi mumkin. Binobarin, qadriyatlar nihoyatda xarakatchan, o'sish – o'zgarish, bir turdan ikkinchi turga, bir xolatdan uning aksiga tezda o'tish va moslashish tabiatiga ega. Chunonchi, kechagi shuro tuzumida la'natlangan, taxqirlangan va ta'qiqlangan xususiy mulkchilik bugungi bozor iqtisodiyoti davrida ijtimoiy taraqqiyot va barqarorlik garovi, kishining tabiiy xaq– xuquqi sifatida e'tirof etilayapti va kafolatlanayapti.

Qadriyatlar mavzusi, ayniqsa, bir jamiyat va ijtimoiy tizimidan ikkinchisiga tub burilish bilan o'tayotgan, kishilar bir qancha o'n yilliklar mobaynida moslashgan qadriyatlar tizimini qayta nazardan o'tkazayotgan pallalarda dolzarb tus oldi. Bunday paytlarda

qadriyatlarning mezonini ham qaytadan idrok etiladi. Ijtimoiy borliqda va kishilar ongi, fikrida eski odatlar va xayot tarzini yangilari bilan shiddatli kurashi qadriyatlar olamiga daxl qilmay qolmaydi, davr va jamiyat oldida turgan bosh maqsad va unga erishish yo'llari nimani qadriyat deb bilish kerakligini aniqlab, qadriyatlarning yangi tizimini shakllantirishda bosh omil bo'ladi.

II. **Qadriyatning turlari.** Ijtimoiy zamon va makon, ong shakllari, ijtimoiy hayot sohalari, tarqalish miqyoslari, substrati va sub'ektiga ko'ra qadriyatlar bir necha turga bo'linadi. Chunonchi:

- 1) **ijtimoiy zamon nuqtai-nazaridan**-tarixiy va zamonaviy;
- 2) **ijtimoiy makon nuqtai-nazaridan**-mahalliy, mintaqaviy, global;
- 3) **ijtimoiy ong shakllari nuqtai-nazaridan**-axloqiy, diniy, falsafiy, badiiy, ilmiy, siyosiy, xuquqiy va xokazo;
- 4) **ijtimoiy xayot sohalari nuqtai-nazaridan**-iqtisodiy, siyosiy, sotsial, madaniy, xuquqiy, mafkuraviy, ekologik va xokazo;
- 5) **tarqalish miqyoslari nuqtai-nazaridan**-individual, guruxiy va ommaviy;
- 6) **substratiga ko'ra**-moddiy va ma'naviy;
- 7) **ijtimoiy sub'ekti nuqtai-nazaridan**: sinfiy, milliy va umuminsoniy.

Qadriyatlar dunyoni bilishning maqsadi, bilimlarimizning voqelikka mos kelishi (haqiqatligi) mezonini yoki biror ideal tarzida ham namoyon bo'ladi. Qadriyatlarning asosiy ijtimoiy funksiyalari yuqorida sanab o'tilgan tasnifiy turlarining o'ziga xosliklaridan kelib chiqadi. Chunonchi, diniy qadriyatlar ijtimoiy ongning ana shu shakli mohiyati va xususiyatlarini ifodalaydi, iqtisodiy qadriyatlar iqtisodiy hayot sohasining eng muhim xususiyatlarini gavdalantiradi, kishilarni uni egallashga da'vat qiladi va xokazo.

Qadriyatlar muayyan turlarga bo'linganligiga qaramay, har bir tarixiy davr doirasida o'zaro birikkan, biri-ikkinchisini to'ldirgan ma'lum **tizim shaklida yashaydi**. Qadriyatlar tizimi tarixan, asta-sekinlik bilan tarkib topadi. Qachonlardir, xali insoniyat ibtidoiy jamoa bosqichida ekanligida, odam o'zi va atrofidagi olam mohiyatini aniqlash, bilish darajasiga yetmagan bir vaqtlarda, u qadriyat nimaligini bilmagan, «qadriyat» tushunchasi ham bo'lmagan. Olimlar guv oxlik berishicha, xozirda ham ibtidoiy darajada qolib ketgan ko'pgina urug' va qabilalar so'zlar zahirasi bu tushuncha umuman uchramaydi. Demak, qadriyatni idrok etish, farqlash, baholay olish uchun narsa-hodisalarning mohiyatini faxmlash, tushunish, anglash talab qilinadi. Narsa-hodisani atroflicha bilgan, o'rgangan taqdirdagina uning qadriyat yoki qadriyat emasligini yaqqol ajrata olamiz. shu ma'noda bugungi sivilizatsiyamiz jamg'argan qadriyatlar

tizimi – bu insoniyatning atrof – borliqni bilishi, o'zlashtirishi yo'lidagi uzoq va sarmashaqqat nazariy hamda amaliy faoliyatining mahsuli.

Bugun, bozor iqtisodiyoti sharoitida yurtimizga yangi ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy qadriyatlar – xususiy tadbirkorlik, fermerlik, biznes, aktsiyadorlik, mulkdorlik, menejment, marketing va boshqalar kirib kelmoqda. Uddaburonlik, uning zahirida yotgan bilimdonlik va o'quvning qadr – qimmatini oshmoqda, iqtisodiy va siyosiy hayotda demokratiya, erkinlik oliymaqom qadriyat ekanligi jamoat ongiga chuqur singib bormoqda.

III. **Umuminsoniy va milliy qadriyatlar** nisbati masalasi ucha muhim ijtimoiy – falsafiy va siyosiy masala, negaki bugungi kunda jahonda ko'pmillatli bo'lmagan birorta mamlakat yo'q. Milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar nisbatini aniqlash ertami-kechmi jamiyat oldida muqarrar paydo bo'ladi.

Umuminsoniy deb barcha xalqlar, millatlar, bashariyat uchun mushtarak qadriyatlarga aytiladi. Masalan, tinchlik, demokratiya, ijtimoiy adolat, ma'naviyat, ezigulik, insonparvarlik, xuquqiy davlat, qonun ustuvorligi – bular irqi, dini, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi qandayligidan qat'iy nazar, inson zoti uchun bir xilda ahamiyatli, ya'ni umuminsoniy mohiyatga ega qadriyatlardir. «Umuminsoniy» degan so'z bu qadriyatlar bir qadar mavxumligini ham anglatadi, negaki «umuman insoniyat», xuddi «umuman odam» kabi sof abstraktsiyadir, amalda insoniyat hamisha muayyan millat va elatlar yig'indisidan iborat. Binobarin, umuminsoniy qadriyatlar – bu millat va elatlardan ayri, alohida olamda yashovchi qadriyatlar emas, ularning mazmuni umuminsoniy, umumiy, amalda bu mazmun hamma vaqt ma'lum shakl – shamoyilga, qobiqqa, ya'ni milliylikka o'ralgan bo'ladi.

Milliy qadriyatlar – millat tarixi, mavjudligi va taqdiri uchun hayotiy ahamiyatga ega qadriyatlardir. Millat yashar ekan, milliy qadriyat ham bo'ladi. Millat ravnaqi – milliy qadriyatlar ravnaqi, milliy tanazzul – milliy qadriyatlar tanazzuli. Milliy qadriyatlarda ushbu millatning ongi, hayot tarzi, ma'naviy va moddiy faoliyati gavdalanadi.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar umumiylik va juz'iylik sifatida birikkinchisini taqozo etadi, biri ikkinchisidan ayri holda yashay olmaydi. Umuminsoniylik – bu shunday ummonki, unga milliylik daryo va irmoqlari muntazam toza obi – hayot eltib, qurib qolishidan saqlaydi. O'z navbatida, milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlarning hayotbaxsh zaminida ildiz otmasa, undan oziqlanmasa, ular ham xalokatga maxkum.

O'zbekona milliy qadriyatlarimiz ildizlari qariyb uch ming yillik tarix qa'riga borib taqaladi. Ajdodlarimiz muqaddas deb bilgan

qadriyatlar ilk yozma matni eramizdan oldingi birinchi ming yillikda dunyo ko'rgan «Avesto»da jamlangan. Er, suv, olov va ko'k tangrilari ustidan quyosh bosh ilox, u o'zga tangrilarga nom bergan, vazifalarini tayinlagan, payg'ambar Zardusht orqali o'z kalomini odamlarga ham etkazgan. Osoyishtalik, falokat, ma'murchilik, urushlar-barcha-barchasi Oliy iangri marhamatidan yoki qaxridan.

Qadim Turonzaminda milliy qadriyatlar nafaqat zardushtiylik, balki boshqa diniy va falsafiy ta'limotlar, chunonchi, islomning, tasavvuf falsafasining kuchli ta'sirida shakllangan. Markaziy Osiyo xatto buddaviylik dini ta'siridan ham bebahra qolmagan. Bu erda vujudga kelgan diniy oqimlar vaqti kelib qo'shni mamlakatlarga ham tarqalgan. Butun sharq olami extirom bilan tilga oladigan ko'plab sufiy ustozlar (A.Navoiy «Nasoyim-ul muhabbat» asarida tasavvuf ahllari bo'lmish 770 avliyo haqida ma'lumot beradi) ning ham tag zoti shu o'lkadan ekanligi e'tiborga molik.

Milliy – madaniy qadriyatlarimiz tarkib topishida islomning mukaddas kitobi – Qur'oni Karim bilan bir qatorda Muhammad paygambarning so'zlari va ko'rsatmalarini o'zida majussam etgan hadislar aloxida o'rin tutadi. Hadislarda dunyoviy qadriyatlarga ham keng o'rin berilgan. Ushbu axloqu-odob qomusini yaratishda vatandosh allomalarning xizmati benihoya ulug' bo'lganligi ham iftixorli. Chunonchi, atoqli muxaddis Imom al-Buxoriy (819-870) islomiy odam xulqi va tafakkur tarzini belgilab berishda kuchli ta'sirga ega besh mingdan ziyod xadisga tartib berib, o'z faoliyati bilan dini islomda butun boshli yangi mazxabga asos solgan.

Islom va islomiy falsafa inson ma'naviy – ruhiy kamoloti, botiniy mukammalligi bilan bog'liq qadriyatlar rivojiga keng yo'l ochdi, ammo ikkinchi tomondan, ko'proq duolar bilan band bo'lib, moddiy – iqtisodiy qadriyatlar rivojini ta'minlay olmadi, xatto, ba'zan bu qadriyatlar oyog'iga kishan bo'ldi: iqtisodiyotda tovar – pul munosabatlari islomga moslashtirildi, masalan, sudxo'rlik man qilindi. Bu esa kapital jamg'arilishi, moliya – kredit, bank tizimlari rivojiga to'siq bo'ldi. Natijada iqtisodiy munosabatlar o'rta asrlar darajasida qolib ketdi. Islomga xos tavdiliya – tekischilik, tenglashtirish tamoyili shaxsiy tashabbusni jilovladi. Shariyat me'yor va qoidalari, olloh tolmonidan berilgan deya uqtirilgani sababli, ming yil davomida deyarli o'zgarishsiz saqlanib qoldi. Shular oqibatida jamiyatda turg'unlikka, an'anaviylikka moyillik kuchaydi, islom sharqi kapitalistik iqtisodiy munosabatlar tulqinida ilgarilab ketgan garbdan sezilarli orqada qoldi. Xususan, XVI asrga kelib Markaziy Osiyo xalqlarining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy xayotida parokandalik sodir bo'ldi. Feodal tarqoq va ko'p sonli xokimiyat da'vogarlari o'rtasidagi muttasil

urushlar temuriylar qudratini susaytirdi, bu davrda nafaqat iqtisodiy qadriyatlar, shu bilan birga mintaqqa ilm – fani, falsafasi, umuman ma'naviy qadriyatlari ham quvginga uchradi, ular urnini xurofot va bid'at egalladi. XVII – XIX asrlar ham shu jixatdan mintaqamizdagi tarqoqlik va parokandalikka deyarli barham bera olmadi, kapitalizm an'anaviy, konservativ jamiyatga aylangan Markaziy Osiyoni «chetlab» o'tdi, u tom ma'nodagi yirik savdo yo'llari va jahon bozoridan chetda qolib ketdi. Bu esa xalqimizning tadbirkorlik, uddaburronlik, omilkorlik, iqtisodiy tafakkur kabi qadriyatlari sustlashuviga sabab bo'ldi.

Bugun O'zbekistonga ob'ektiv zaruriyat tarzida bozor iqtisodiyoti, uning beshafqat, ammo odil qonunlari, tamoyili krib keldi. Uning ijtimoiy – yangilovchilik mohiyati keng miqiyosdagi xususiy tashabbus va tadbirkorlikka, tovar – pul va moliya – kredit munobatlariga tayanadi, binobarin, islom dini va falsafasi targib etuvchi mo'minlik, kamsuqumlik, muloyimlik, o'z qalbiy kamolotini ko'zlash bilangina chegaralanish kabi ma'naviy – axloqiy qadriyatlar bilan zamonaviy ustuvor iqtisodiy qadriyatlar o'rtasida ziddiyat mavjudligini payqash qiyin emas.

Demak, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mutanosibligi buzilgan yoinki ular o'rtasida muayyan ziddiyatlar yuzaga kelgan chog'da milliy qadriyatlar umuminsoniy mazmun bilan bo'itiladi, tuldiriladi.

«Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq – degan edi O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» nomli asarida, - ajdodlarimizning ko'p asrlar mobaynida yaratib kelgan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosini tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi». Millat ma'naviyati, aql – itdroki, shuuri, o'zligi uning ona tili, ana'nalari, ruhiyatida jamlangan, shu bois milliy qadriyatlarni tiklash, uning milliy xis-tuygularini, g'urur va iftixorini o'stirish demakdir.

Odatiy qadriyatlardan butunlay yangi qadriyatlar tizimiga o'tish xamma vaqt ziddiyatli, u ma'naviy-ruhiy iztiroblar orqali kechishi tabiiy. Yangi ijtimoiy qadriyatlar xali tushunarsiz va begona bo'lgan sharoitda ko'pchilik o'zi ko'nikkan shaxsiy qadriyatlar doirasida qolishga moyil bo'ladi. Aksariyat empirik zaminga ega bu kundalik qadriyatlar ijtimoiy qadriyat va meyorlarga mutanosib bo'lmasligi ham mumkin. Biroq inson o'zoq vaqt o'z shaxsiy qadriyatlari olamida biqinib yashay olmaydi, shu bois u ertami – kechmi murakkab xayotiy vaziyatlarda xam suyanch bo'la oladigan ijtimoiy qadriyatlarga ega bo'lishi zarur. Yangi demokratik jamiyatda u qadriyatlarni o'zi tanlab olish xuquqiga ega bo'ladi. Qadriyatlarni tanlab olish erkinligi ham shaxs, ham millat darajasida yakkalikdan — umumiylikka va eng

umumiylikka, aniqrog'i, individual, shaxsiy qadriyatlardan – ijtimoiy qadriyatlarga, milliy qadriyatlardan – umumbashariy qadriyatlarga tomon yunalgan, ob'ektiv va sub'ektiv omillar bilan bog'liq murakkab jarayondir.

Sho'ro davrida asil o'zbekona qadriyatlarimiz, olamga mashxur o'zbekchilik fazilatlari millatning o'zi kabi qatag'on qilingan, kamsitilgan, «sotsialistik qadriyatlar» ga qarama – qarshi qo'yilib, yuzaki va jo'n talqin qilingan bo'lsa, mustaqillik yillarida ularni tiklash, bilish va o'rganishga keng yo'l ochildi. Jahon bugun o'zbekni tanitotgan va tan olayotgan ekan, avvalo milliy qadriyatlarning, millatni-millat, xalqni-xalq qilib jipslashtiruvchi qudratli omil ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Inson – eng oliy qadriyat

M.A. Qahhorov

f.f.d. prof.

Yo. Ortiqov

Tarih ta'lim yunalishi

II kurs talibi

Tabiat va jamiyat – turfa xil qadriyatlar hazinasi. XXI asr fan – texnika, texnologiyasi, xayratomiz kashfiyotlar va ixtirolar bilan unimissiz boyitmoqda. Ayni chog'da butun insoniyat tarixi va, ayniqsa, so'ng'gi asr tajribasi «eng oliy qadriyat - inson» degan umumfalsafiy xulosaning xaqqligini qayta va qayta tasdiqlamoqda. Insonni dunyodagi bor qadriyatlar ichida eng yuksak, tengi yo'q qadriyat deb bilish «insonparvarlik» yoki «gumanizm» (lotin. «gumuns» - «insoniy») deb ataladi. Nazariy jihatdan gumanizm insoniy xis – tuyg'ular, orzu – umidlar, xuquqlarni e'tirof etish va xurmatlashni, amaliy tomondan – inson baxt-saodati, kamoloti, «inson» degan nomga munosib hayot kechirishi uchun zarur shart – sharoitlar yaratish to'g'risidagi g'amxo'rlikni bildiradi.

Insonparvarlik g'oyalari va amaliyoti uzoq tarixga ega. Dastlabki bosqichlarda gumanizm g'oyalari xalq ommasini kishini – kishi tomonidan iqtisodiy va ma'naviy ezish, ekspluatatsiya qilishga, jamiyatda ildiz otgan ma'naviy – axloqiy illatlarga qarshi norozilik ifodasi sifatida paydo bo'lgan. Shu jumladan bizgacha etib kelgan qadimgi davr xalq ogzaki ijodi namunalari – ertak, afsona, rivoyat, dostonlarda iqtisodiy va siyosiy xuquqlaridan maxrum, ezilgan, xo'rlangan axoli toifalarining xalqqa erk, tenglik, insoniy turmush, baxt keltiruvchi podshohlar, donishmandlar, qahramonlar haqidagi orzu – armonlari aks ettirilgan. Keyinchalik bu g'oyalar chuqur idrok etilgan holda turli falsafiy va ijtimoiy – siyosiy konsepsiyalarga zamin bo'ldi.

Gumanizm g'oyalari o'rta asrlarda insonni xudo va din nomidan tabiatan gunoxga moyil, gunohkor banda sifatida kamsitib, insoniy fazilatlarni ilohiy fazilatlar oldida yerga urib, insoniy xuquq va erkinlik, aql – tafakkurga asoslangan hur fikr bildirgan olim va mutafakkirlarni «xudoga shirk keltirgan» tamg'asi bilan inkvizitsiya gulxaniga tashlagan, sazoyi qilgan diniy mutaassibchilik va ularni qo'llab – quvvatlangan feodal amaldorlarga nisbatan qat'iy isyon tariqasida maydonga chiqdi. Insonni ulug'lash, insoniy fazilatlarni eng nodir qadriyat deb e'tirof etish sharoq, shu jumladan, Markaziy Osiyo falsafasida an'anaviy hisoblanadi. Bular Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Koshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Ulug'bek, Navoiy, Jomiy, Rumiy, Rudakiy, Firdavsiy, Bobur va boshqa mutafakkirlar ijodida yorqin aks etgan.

Chunonchi, Forobiy fikricha, inson ko'plab ajoyib fazilat va xislatlar sohibidirki, aynan shular tufayli odamlar birlashib, jamiyat yuzaga keladi, inoqlik, axillik inson qavmi tabiatida bor va bu jamiyatga olam-olam naf keltiradi. Navoiy nazdida, inson – olam ziynati, butun borliq, mavjudot uning baxt – saodati uchun yaralgan. Navoiy gumanizmining asil shiori «Odami ersang, demagil odami, oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami» misralarida jamlangan.

Gumanizm sabog'ini ham navqiron Evropa oqsoch sharqdan o'rgangan, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Ijtimoiy – falsafiy fikrdagi o'ziga xos oqim sifatida gumanizm g'arb mamlakatlarida Uyg'onish davrida, ya'ni XV – XVI asrlarda tarkib topdi. Feodalizm va o'rta asr teologik (ilohiyotchilik) qarashlariga qarshi kurashda u burjuaziya mafkurasiga qo'l keldi va asosan ilmiy, materialistik g'oyalardan iborat edi. Uyg'onish davri gumanist allomalarning butun boshli bir avlodini etishtirib berdi: bular qatoriga Petrarka, Dante, Bokachcho, Leonardo da Vinchi, Erazm Rotterdamskiy, Jordano Bruno, Rable, Montel, Kopernik, Shekspir, F. Bekonlarni kiritamiz. Ular inson shaxsini erkin deb e'lon qildilar, diniy tarkidunyochilik, zohidlikka qarshi chiqdilar, insonning dunyoviy ne'matlardan lazzatlanish va erkin fikrlash xuquqini astoydil ximoya qildilar. Bu insonparvarlik g'oyalarini rivojlantira borib, XVIII asr ma'rifatparvarlari erkinlik, tenglik va birodarlik, insonning o'z tabiiy xulq – atvorini xech qanday to'siqlarsiz rivojlantirish shiorlarini o'rta tashladilar. T. Mor, T. Kampanella, T. Myuntser kabi allomalar, keyinchalik esa utopik sotsializm tarafdorlari o'zlariga zamondosh, shakllanib kelayotgan kapitalizm jamiyatining ayrim g'ayri – insoniy illatlarini ko'rgach, xususan, xususiy mulkchilik va individualizm to'g'irayotgan ma'naviy – axloqiy tubanlashuv, jamiyatning keskin tabaqalanishini antigumanistik xarakterda, deb baholadilar, mulk tengligini talab qildilar, insoniy fazilatlar to'la ro'yobga chiqqan, ijtimoiy tenglikka qurilgan va o'zlaricha «sotsialistik» deb nomlangan jamiyatni orzulab risolalar bitdilar, xatto, ayirimplari tajribada ruyobga chiqarishga urinib ham ko'rdilar. Shunday qilib, insonparvarlik – insonni oliy qadriyat deb e'tirof etish bashariyatning o'zini-o'zi anglashi natijasi o'laroq chuqur ildizlarga ega.

Bugungi kunga kelib gumanizm umuminsoniy qadriyatlarning o'zagiga aylangan. Uni barcha mutaraqqiy demokratik davlatlar e'tirof etish bilan kifolanmay, qonuniy kafoyatlagan ham. Chunonchi, o'z milliy zaminida umuminsoniy qadriyatlarni singdirayotgan mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasida inson, uning xayoti, erki, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa xuquq hamda erkinliklari qonun ximoyasida, deyilgan.

Gumanizm jamiyatning insonni qadrlashidagina emas, unga boshqa kishining munosabatida va uning o'z-o'ziga munosabatida ham namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, ruyi zaminda inson bo'lib dunyoga kelmoqning o'zi ajib xikmatdir. «Men uchun, - degan edi donishmandlardan biri, - insondan qimmatliroq haqiqat yo'q. Inson butun bir olamni olib yuradigan jonu-jahondir». Insonparvarlik kundalik tushmushda yon – veridagilarga, do'stlaring va xatto, begonalarga munosabatingda ko'rinadi. Buni fransuz adibi A. Sent – Ekzyuperi shunday ifoladagan: «Inson bo'lish – bu mas'uliyat sezishingdir. O'zingga aloqasizday tuyulsa ham qashshoqlik oldida andisha qilishingdir. Do'stlarning erishgan har bir g'alabadan faxrlanishingdir, o'z g'ishtingni qo'ya turib, dunyodagi bunyodkorlikka ko'marlashayotganingni xis etishingdir

Insonparvar kishi nafaqat o'ziga, balki o'zgalarga ham ulug'lik va ezgulik tilaydi. Kurramizdagi eng ajoyib xilqat inson ekanligini tushunib yetmog'imiz va bu bilan faxrlanmog'imiz, yaxshi insonlarni boshimizga ko'tarmog'imiz kerak. Har bir kishi – butun bir kitob, hamma gap uni o'qiy olishda. Shu ma'noda odamlarni «yaxshi» va «yomon»ga ajratish ham nisbiy, shartli, negaki odamlar xech qachon mislsiz yaxshi yoki haddan tashqari yomon bo'lmaydilar, bu bizning beradigan bahomizga bog'liq. «Insonni bilish uchun, - degan edi nemis faylasufi L. Feyerbax, - uni sevisht kerak». Kim xech kimni sevmasa, uni ham xech kim sevmaydi, boshqalarni xurmat qilgan insongina o'zi ham xurmat ko'radi.

Xaqiqiy insonparvarlik – bu o'z-o'zingni ham inson deya xurmat qilishdir, zero qadim yunon faylasufi Pifagor uqtirganidek, «avvalo o'zingni xurmat qila bil». Har bir odam o'z-o'zini nechog'lik baholasa, uning qadr-qimmatini o'shanga teng bo'ladi. O'z qadr-qimmatini anglash aqlli odamni yanada kamtarin, shuning bilan birga yanada ustuvor qiladi. O'zini xurmat qilgan odam boshqalarni ham xurmat – extiromga o'rgatadi. «Odam pulsiz, uysiz, er-mulksiz qolsa, sadqayi sar-bularning hammasi unga tegishli emas, - degan edi qadimgi rimlik faylasuf Epiktet,—ammo insonning o'z haqiqiy mulki – insoniy qadr-qimmatini yo'qotishi achinarlidir». Qadr-qimmat insonni eng yuksaklikka ko'taradi, uning faoliyatiga, butun intilishlariga olijanoblik bag'ishlaydi. Inson o'z kuchiga ishongan joydagina biror narsaga erisha oladi.

Shunday qilib, jamiyat qadriyatlarisiz yashay olmaganidek, qadriyatlar jamiyatdan, insondan tashqarida ma'noga ega emas. Insonning o'zi qadriyatning oliy timsolidir.

10-MAVZU

GLOBAL MUAMMOLAR FALSAFASI

1. Global muammolarning mohiyati nimada? Yashab turgan davrimizning xilma – xil ta'rifu – tavsiflari bor. Olimlar uni ilm-fan, – texnika, texnologiya, biologiya asri degan nomlar bilan ataydilar. Bulardagi haqiqat zarrachalarini inkor etmagan holda qo'shimcha qilib aytish mumkinki, davrimiz informatsion texnologiyalar va axborot asri hamdir. Axborot o'zlashtirishning osonlashuvi butun dunyoni turli jixatlardan yaqinlashtirishga, xech qanday mubolag'asiz "umumiy uy"ga aylantirishga olib kelmoqda. Dunyo globallashtirishda, ya'ni milliy chegaralarni pisand etmagan holda moddiy va ma'naviy qadriyatlar insoniyatning umumiy mulkiga aylanib borayapti. "Global" so'zi «eng keng,umumiy miqyosdagi» degan ma'noni

bildiradi. O'z navbatida globallashtirish jarayoni global muammolarni vujudga keltirmoqda ham.

Jaxon miqyosida yuz berayotgan jarayonlar taxlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda insoniyat uchun dolzarb bo'lib turgan global muammolar quyidagilardan iborat:

1. Er yuzidagi tinchlikni ta'minlash va yalpi qirg'in urushlarining oldini olish.

2. Atrof – muxitni, ekologiyani ximoya qilish.

3. Axoli sonining keskin ko'payishi bilan ishlab chiqarish mutanosibligini ta'minlash.

4. Er yuzi axolisini zarur miqdorda oziq – ovqat, energiya va suv manbalari bilan ta'minlash.

5. Ochlik, qashshoqlik va qoloqlikni tugatish.

6. Xavfli kasalliklarni tugatish.

7. Inson axloqiy – ma'naviy muxiti sofligini saqlash.

Bu muammolarning har biri u yoki bu darajada ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy, xuquqiy nuqtai-nazardan taxlil etilgan, ayni paytda ularni ijtimoiy–falsafiy taxlil etish muhim ahamiyatga ega. Global muammolarning ijtimoiy-falsafiy taxlili avvalo ularni keltirib chiqargan sabablar, ularning namoyon bo'lish shakllari va mohiyatlari masalasini qamrab oladi. Ushbu muammolarni taxlil qilishda falsafaning tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik, atroflicha yondoshuv kabi tamoyillari qo'l keladi. Global muammolar taxlili shundan dalolat bermoqdaki, ular, bir tomondan, insoniyatning shu vaqtlargacha yuz bergan taraqqiyoti mahsuli xisoblanadilar. Ikkinchi tomonidan esa, ularni yuzaga keltirishga muayyan ijtimoiy shart – sharoitlar ham sababchidir. Global muammolarning kelib chiqishi, chuqurlashib borishi, ko'lam va hal etilish murakkabligi jixatlaridan uch guruxga ajratib o'rganish mumkin:

1. Mavjud ijtimoiy tuzumning tabiati, turli mintaqada davlatlarini xilma – xil manfaatlari bilan taqozo etilgan muammolar.

2. «Inson-jamiyat» tizimi doirasida kelib chiqadigan muammolar.

3. «Jamiyat-tabiat» tizimi doirasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan muammolar.

Global muammolar o'zaro qanchalik farqlansa – da, bu sohada umumiylik, dastavval, butun insoniyatning hayot shart – sharoitlari, imkoniyatlari va istiqboli masalalari bilan bog'lanib ketgandir. Ikkinchi tomondan, ular u yoki bu darajada hozirgi davrning bosh omili – fan – texnika inqilobi bilan aloqadordir, ya'ni uning oqibatidir. Fan ishlab chiqarishga joriy etilishi va turli maqsadlarda qo'llanilishi natijasida fan – texnika taraqqiyoti chuqurlashgan sayin global muammolarning o'tkirlashuvi kuzatilmog'da.

II. Global muammolarni xal etish yo'llari. Insoniyat global muammolarni keltirib chiqarganligi bilan kifoyalaniq qolmasdan, ularni hal qilishning yo'llari va usullari ustida ham bosh qotirmoqda. Masalan, jaxondagi xozirgi vaziyat nafaqat yalpi qirg'in va oddiy qurol-yarog'lar zaxirasi to'planayotgani bilan , balki chuqur ijtimoiy o'zgarishlar yuz berayotganligi bilan ham tavsiflanadi. Sobiq sotsializm lagerining deyarli barxam topganligi, an'anaviy kapitalistik deb atalgan mamlakatlarda chuqur ichki o'zgarishlarning yuz berganligi, jaxon xalqlarining mushtarak taqdir egalari ekanligi xaqidagi g'oyalarning tobora keng xalqlar, millatlar tafakkuriga singib borayotganligi global, umumbashariy muammolarni xal qilishda, birinchi navbatda, er yuzida tinchlikni ta'minlash va yalpi qirg'in urushlarining oldini olishda nixoyatda qo'l kelmoqda. Natijada jaxonda xarbiy-siyosiy, shu jumladan, termoyadroviy qarama-qarshi turgan kuchlar o'rtasidagi antogonistik ziddidt tomonlardan birining barxam topishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotdi. Jaxon xamjamiyatida muayyan ijtimoiy-siyosiy umumiylikka erishilmoqda, tinchlik insoniyat uchun oliy ne'mat ekanligi xaqidagi g'oya tobora ko'pchilik kishilar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Yana bir muhim global muammo – ochlik, qashshoqlik va savodsizlikning oldini olish haqida gapiradigan bo'lsak, buning asosiy omillaridan biri – rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovutlarni, ziddiyatlarni kamaytirish ekanligi tobora ayon bo'lib bormoqda. Erdagi xayotni saqlab qolishning asosiy sharti yalpi qirg'in urushlarini oldini olish hamda sayyoramizning birqancha mintaqalari axolisining qoloqliigini tugatib, insoniyat jamiyati mutanosib rivojlanishiga erishish va ma'naviy muxitni sog'lomlashtirish uchun kuch – g'ayratlarni birlashtirishdan iboratdir.

Global muammolar tizimidagi oziq – ovqat resurslarini ko'paytirish, energiya quvvatining yangi manbalarini qidirib topish zaruriyati jaxon okeani hamda kosmosni o'zlashtirish sari etaklamoqda. Jaxon okeani resurslarini o'zlashtirish masalasi XX asrning ikkinchi yarimidan boshlab insoniyat oldida ko'ndalang bo'lib turibdi. Umuman olganda, sivilizatsiyaning butun tarixi davomida okean zaxiralari va imkoniyatlaridan oqilona foydalanish masalasi insoniyat uchun nihoyatda muhim bo'lib kelgan. Okean kislorod etkazib beradi, g'oyat katta miqdordagi ma'dan xomashyosi olish uchun zarur bo'lgan biomoddalarning salmoqli xajmi okeanlarda xosil bo'ladi, okean iqlimni tartibga solib turadi va muhim tansport tarmog'i hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, jaxon olkeanini o'zlashtirishni chuqurlashtirish jamiyat muammolarini xal qilishning ishonchli vositalaridan biridir. Okeandan foydalanishning an'anaviy ob'ektlari

– baliqchilik, suv o‘tlarini ishlatish va boshqalar hozirgi vaqtda g‘oyat muhim bo‘lib qolmoqda.

Kosmosni o‘zlashtirish ham umumbashariy muammolarni hal etishning nihoyatda dolzarb usullaridan biriga aylandi. Koinot – butun insoniyat mulki deb e‘lon qilingan makon. Koinotni o‘zlashtirish muammolari global ahamiyatga molik bo‘lganligi uchun barcha mamlakatlarning kuch-gayratini birlashtirib, undan butun insoniyat manfaatlari yo‘lida foydalanish lozim. Olimlarning ko‘pchiligi koinotni o‘zlashtirish qanchalik qimmatga tushadigan va ko‘plab xarajat talab qiladigan ish bo‘lishiga qaramasdan, bu umumbashariy muammolarni hal qilishning ishonchli usuli ekanligini e‘tirof etmoqda. Hozirgi asosiy vazifa – koinotni o‘zlashtirishni butun insoniyatning manfaatlari, imkoniyatlari, ehtiyojlari bilan uzviy bog‘lashdir. Boshqa barcha global muammolarni hal qilish ham shu maqsadlarga tayanmog‘i lozim.

Umumbashariy globallashuv jarayoni O‘zbekistonni ham chetlab o‘tgani yo‘q, albatta. Jumladan, energiya va yoqilg‘i resurslaridan tejimli foydalanish, xom ashyo resurslaridan foydalanish va ekologiya muvozanatini saqlash, dunyo okeani ifloslanishi, jonli tabiatning yo‘qotilishi, oziq – ovqat bilan ta‘minlash, rivojlangan mamlakatlar bilan o‘rtadagi tafovutni kamaytirish, demografiya sohasidagi muammolar mamlakatimiz shart – sharoitida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston oldida ana shu xildagi muammolarni aynan bir ijtimoiy – siyosiy tuzumdan ikkinchisiiga o‘tish davrida ko‘ndalang bo‘layotganligi yosh, mustaqil davlatimiz o‘ta murakkab bosqichni boshidan kechirayotganligini bildiradi. Umumbashariy muammolarning hal etilishi mamlakatimiz ijtimoiy jarayonlarining istiqbolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammolarning mohiyati, mazmuni, ularni echish yo‘llari, vositalari ilmiy – falsafiy jihatdan Prezident I.A.Karimovning «Yuksak manaviyat-yengilmas kuch», «O‘zbekiston XXI asr bo‘lagasida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda» va boshqa asarlarida atroflicha yoritib berilgan.

Bularda mamlakatning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘rni, tabiiy resurslari, demografik xususiyatlari va insoniy salohiyatini nazarda tutib, boy ma‘naviy merosimiz, tarixiy tajriba, milliy qadriyatlarimizga asoslanib, yaqin kelajakda mamlakatimiz rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilishi har tomonlama tahlil etilgan. Yurtboshimiz buni quyidagi jamlalarda ifodalagan: «Jaxon sivilizatsiyasi xazinasiga ulkan xissa qo‘shgan boy tariximiz, buyuk madaniyatimiz, ko‘p avlodlar xayoti davomida vujudga keltirgan beqiyos tabiiy va aqliy

imkoniyatlarimiz, xalqimizning yuksak madaniyati va axloqiy qadriyatlarimiz, zaminimizda yashayotgan odamlarning mehnatsevarligi, saxovatligi, bagrikengligi va jaxon xamjamiyatida o'ziga munosib o'rinni egallashga bo'lgan istagi buning garovidir».

Mamlakatimizga sobiq ittifoqdan «meros» bo'lib o'tgan global muammolardan biri – Orol dengizi muammosi hammaga yaxshi ma'lum. Mintaqamiz davlatlari xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda bu muammoni hal etishning ilmiy – texnikaviy echimini izlamoqdalar. Ayni vaqtda O'zbekistonda axoli soni sezilarli darajada o'sib borayotganligi ham kuzatilmoqdaki, bu global muammolarning keskinlashuvi davlat raxbarlaridan eruv, tuproq resurslaridan oqilona foydalanish masalasini dolzarblashtirmoqda. Respublikamizga tadbiqan «demografik vaziyat g'oyat muhim xususiyatlardan biri, - degan edi I.A. Karimov, - jumxuriyatimizda axoli va mehnat resurslari har yili yuksak suratlar bilan ortib bormoqda». Jumladan, 1980 yilda axolining bir yillik tabiiy o'sishi 421 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 1989 yilda 480 ming kishini, 2007 yilda qariyb 600 ming kishini tashkil etgan.

Mustaqil O'zbekiston, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, nodavlat, notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda umumbashariy muammolarning o'ziga tegishli va o'zi bilan bog'liq qismlarini hal etish yo'lidan bormoqda va bunda muayyan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritmoqda. Bozor munosabatlariga o'tish davrida axolini kuchli ijtimoiy muxofaza qilish siyosatini ishlab chiqilganligi va amalga oshirilayotganligi bunda muayyan ijobiy axamiyatga ega bo'lmoqda.

Mamlakatimiz xukumatining sa'y – xarakatlari bilan «Soglom avlod» davlat dasturining ishlab chiqilganligi, «Ona va bola» davlat dasturining yaratilganligi va xayotga tadbiq etilayotganligi, shu yusinda onalarning sog'lig'i muxofaza qilinayotganligi, chaqaloqlar o'limining oldi olinayotganligi, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatilayotganligi, ta'lim va tarbiya davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan xolda rivojlantirilayotgani xalqning ertangi kuniga ishonchini mustaxkamlamoqda, umumbashariy muammolarni echish uchun zarur ijtimoiy zaminlar vujudga kelishiga imkon yaratilmoqda.

III O'zbekiston rivojining ijtimoiy – falsafiy muammolari milliy mustaqillikning qo'lga kiritilganligi bilan bog'liqdir. Mamlakatimizda qariyb bir yarim asr davomida xukm surgan mustamlakachilik, mustabidlik tuzumlari barxam topishi, xalqimizning azaliy orzu – umidlariga erishishi bilan bir qatorda jamiyatimiz oldida bir qator yangi murakkab masalalar ham payda bo'ldi. Mamlakatimiz endi

qaysi yo'ldan va qanday ijtimoiy model buyicha rivojlanadi, nimani saqlab qolish lozim va nimalardan voz kechish kerak? degan savollar diqqat markazidan o'rin oldi. Uzoq tariximizdan hozirgi kunimiz va ertangi taqdiriimizgacha taalluqli ko'plab narsalarni falsafiy tafakkur tarozisiga quyish va baholash zaruriyati tug'ildi.

Mustaqillik davrining ijtimoiy – falsafiy muammolari dolzarbligiga va ularni hal qilish zarurligiga mamlakatimiz prezidenti I.A.Karimov alohida e'tibor qaratib: «Markazlashtirilgan tartibda rejalashtirish va boshqaruvning ma'muriy – buyruqbozlik uslubidan bozor iqtisodiyotiga o'tish – bu mavjud xo'jalik yuritish usulini yangilash yoki takomillashtirish emas, balki tamoman yangicha xo'jalik yuritish tizimini joriy etishdir. Bu bir sifat xolatidan ikkinchisiga o'tishdir. Bu odamlar uchun mutlaqo yangi xayot falsafasidir», degan edi.

Mustaqil O'zbekistonning rivojlanishi bilan bog'liq ayrim ijtimoiy – falsafiy muammolar xususida yuqoridagi mavzularda qisman fikr yuritildi. Ayni vaqtda boshqa bir qator ijtimoiy – falsafiy masalalar hamon o'z dolzarbligini yo'qotganicha yo'q. Bular jumlasiga mamlakat ijtimoiy taraqqiyotining yangi modelni yaratish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, fuqarolik jamiyatini qaror toptirish singari nazariy va amaliy jihatdan g'oyat dolzarb muammolarni kiritish mumkin.

Respublika prezidenti I.A.Karimovning so'nggi yillarda e'lon qilingan bir qator dasturi – amaliy asarlarida mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotining yangicha modeli masalasi birmuncha oydinlashtirib berilgan. Shunga qaramay, «Yangi jamiyat modeli qanday bo'ladi?» degan savol bu borada ijtimoiy – falsafiy tadqiqotlar davom ettirilayotganidan dalolat beradi.

Shuni qayd etish lozimki, o'tgan asrning 70 – 80 yillarida, xali kapitalizm va sotsializmning taxlikali qarama – qarshiligi sharoitidayoq ayrim uzoqni ko'zlagan mutafakkirlar tomonidan jamiyatning kapitalistik va sotsialistik bo'lmagan yangi modelini yaratish zarurligi xaqida g'oyalar ilgari surilgan edi. AQSHda taniqli sotsiologlar P. Sorokin, Y. Tinbergen, sobiq SSSRda akademik A.D. Saxarov amalda kapitalizm va sotsializmning beryoqlamaligini bartaraf etuvchi, na sotsialistik va na kapitalistik bo'lmagan «integral jamiyat» modelini vujudga keltirishga da'vat qilib maydonga chiqdilar. Bunday jamiyat bo'sh erda paydo qilinmasdan, sotsializmdan ijtimoiy tenglik, kuchli ijtimoiy muxofaza, ishlab chiqarish ustidan ishchi nazorati kabi tamoyillarni qabul qilgan xolda, ularni kapitalizmdan olingan erkin bozor iqtisodiyoti, xususiy mulkchilik, moddiy manfaatdorlik kabi tamoyillar bilan qo'shish, ya'ni integratsiyalash natijasida vujudga keltirish maqsadi qo'yilgan edi. Ushbu «integral jamiyat» g'oyasini uning mualliflari kuch – g'ayrat ayamadan samarali targ'ibu –

tashviq qildilar va u nafaqat oddiy fuqarolar, balki ko'plab siyosatchilar, davlat raxbarlari ongidan mustahkam o'rin egalladi.

Bugungi kunga kelib «integral jamiyat» barpo etish g'oyasi ko'plab mamlakatlarda, jumladan, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya, Gollandiya, Shvetsiya, Yaponiya, Finlandiya kabi etakchi davlatlarda u yoki bu darajada o'z tamoyillarini ro'yobga chiqardi. Uning asosiy xususiyatlari – mulkchilik shakllari va xo'jalik yuritish usullari xilma – xilligi, iqtisodiy va siyosiy demokratiya, insonparvarlik mafkurasi, xuquqiy davlat, fuqaroviy jamiyat, texnik – texnologik va ma'naviy etuklik – ozmi – ko'pmi darajada voqelikka aylandi. Sivilizatsiyaning umuminsoniy qadriyatlariga qurilgan mazkur «integral jamiyat» modeli O'zbekiston xalqining azaliy orzu – armonlari, xayotiy muddaolariga ham aynan mos tushadi. Eng muhimi – integral jamiyatni vujudga keltirish uchun mamlakatimiz barcha moddiy va huquqiy, siyosiy va ma'naviy shart – sharoitlarga, etarli mehnat va boshqa resurslarga ega.

Ijtimoiy taraqqiyotning integral modeli ayrim tadqiqotlarda «aralash jamiyat» deb nomlanmoqda. Biroq bu nom, fikrimizcha, ta'riflanayotgan yangi va ko'pqirrali ijtimoiy hodisaning mohiyatini to'laqonli ochib bera olmaydi. Negaki yangi, integral jamiyat modeli bir necha ijtimoiy tuzumlarning allaqanday mavxum qorishmasidan iborat emas, balki XXI asr boshlanishida sivilizatsiyamiz qiyofasini belgilab beruvchi g'oyat qimmatli ijtimoiy, siyosiy, xuquqiy, texnologik yutuqlarning mujassamidir. Ushbu oliyjanob maqsadga erishishning falsafiy asoslangan yo'llari quydagilardan iborat:

1. Xalqning ma'naviy yetukligini, axloqiy barkamolligini ta'minlash, uning ongidagi aqidaparastlik, jur'atsizlik, boqimandalik mayllariga barxam berish, iqtisodiy hayotni har tomonlama chuqur islox qilish, mulkchilik shakllari xilma – xilligini joriy etish.

2. Ijtimoiy yunaltirilgan bozor munosabatlarini joriy etish.

3. Isloxotlarning xuquqiy negizlarini yaratish.

4. Ijtimoiy – siyosiy barqarorlikni, fuqarolar osoyishtaligini, umumiy totuvlikni ta'minlash.

5. Kuchli fuqarolik jamiyati xamda davlat boshqaruvining shunga monand tizimini barpo etish.

6. Iqtisodiyotni boshqarishning bozor munosabatlari talablariga mos yangi tashkilotlari, muassasalarini vujudga keltirish, uning ma'muriy - buyruqbozlik tizimini barxam toptirish va boshqalar.

Bugungi tub isloxotlar, chunonchi, ijtimoiy va xususiy manfaatlarni ijobiy tarzda muvofiqlashtirishga, murosai – madoraga keltirishga qodir bozor iqtisodiyoti, yangicha ijtimoiy va siyosiy muassasalar majmui yaratilayotgan mustaqil O'zbekistonning milliy zamini integral

jamiyat modelini mamlakatimizda ham muvaffaqiyat bilan amalga oshirish mumkinligi va lozimligidan dalolat bermoqda.

Ushbu ulug'vor maqsadni to'liq anglamasdan isloxotlarning yo'nalishlarini belgilash va ularni samarali amalga oshirish mumkin emas. Ayni paytda pirovard maqsadga olib boruvchi chora – tadbirlar mazkur yo'lning har bir bosqichida o'z mazmuniy ifodasini topmogi lozim. Ushbu o'tish davrida davlat xokimiyati idoralarining yo'naltiruvchilik faoliyatining ahamiyati ham nixohat darajada oshadi. Ko'zlanayotgan maqsadga erishish va unga olib boruvchi yo'ldagi azaliy vazifalarni ado etishga qaratilgan sa'yi – xarakatlarning muvaffaqiyatini ta'minlovchi manbalar masalasiga kelganda, ularni quyidagilar tashkil qiladi:

1. Kishilarning samarali mehnat qilishlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning ta'sirchan tizimini shakllantirish, har bir kishining barakali mehnat qilishdan shaxsan manfaatdor bo'lishini ta'minlashning kafolatlarini yaratish. Bu – har bir fuqaroning mulkka egalik xuquqi, iqtisodiy faoliyatda to'la erkinlik, ya'ni bozor munosabatlarning tulaqonli sohibi bo'lishi demakdir.

2. Axolini yuqori darajada zamonaviy, savodxon, yuksak madaniyatli bo'lishiga erishish. Chunki faqat yuqori saviyali, ma'lumotli, madaniyatli va kasbiy tayyorgarligi jixatidan etuk bo'lgan shaxsgina iqtisodiy erkinlikni xis qiladi, demokratik va ma'naviy o'zgarishlarning ishonchli tayanchi bo'la oladi.

Yangi jamiyatga o'tish sur'atlari, ayniqsa, mulkdorlar sinfini shakllantirishga ko'p jixatdan bog'liq. Chunki, prezidentimiz I.A.Karimov juda o'rinli qayd etganidek, «Har qanday iqtisodiy rivojlangan mamlakatni olmang, u erda hal qiluvchi kuch – mulkdorlar sinfi hisoblanadi. Qayerda axoli tarkibida xaqiqiy mulk egalari xissasi katta bo'lsa, o'sha erda iqtisodiyot barqaror rivojlanadi».

Mustaqillikning dastlabki yillarida ayrim jamiyatshunoslarimiz «sotsializm bilan birga jamiyatning sinflarga bo'linishi ham barxam topdi», «sinflar yo'q bo'ldi» qabilidagi noilmiy xulosalarga kelishgan, xatto «sinf» tushunchasi ishlatilmay, o'rniga ilmiy maqomi noaniq «toifa», «tabaqa» singari terminlar qo'llana boshlagan edi. Prezident I.A.Karimov «mulkdorlar sinfi» degan tushunchani keng ishlata boshlashi bilan nazariy fikr yana qaytib jamiyatimiz ijtimoiy – sinfiy tuzilmasini taxlil qilishga kirishdi.

Sho'ro tuzumida jamiyat ikki sinf va bir qatlam («ishchi+dexqon+ziyoli») dan tuzilgan, buning zamirida ijtimoiy mulkning ikki shaklda – davlat va kolxoz – kooperativ shaklda ekanligi yotadi, deb xisoblagan, demak, mulk shakli asosiy sinf yasovchi

alamat qilib ko'rsatilgan bo'lsa, hozirgi bozor iqtisodiyoti mulkchilik shakllari xilma – xilligiga, xo'jalik yuritishning turli – tuman usullariga asoslangan iqtisodiy demokratiya ifodasi sifatida an'anaviy sinflar, ijtimoiy qatlamlar va guruxlar yonida yangi ijtimoiy – sinfiy birliklar, shu jumladan, mulkdor sinf, qatlam va guruxlarni dunyoga keltirayapti. Mulk shakli va xo'jalik yuritish usuli, daromad manbai va miqdori shunga o'xshash bir qator mezonlar bo'yicha yo'zaga kelayotgan eski va yangi ijtimoiy – sinfiy unsurlarni birlashtirganligidan respublikamizning yangi ijtimoiy – sinfiy tuzilmasini ko'p qirrali va ko'p o'lchamli desak to'g'ri bo'ladi. Uning o'zagini mulkdorlar sinfi tashkil qiladi.

Ijtimoiy – falsafiy adabiyotda mulk egasi borki, hammasini shu sinf tarkibiga kiritishga urinishni ko'zatish mumkinki, bu unchalik to'g'ri emas. Jamiyatda u yoki bu shakldagi (shaxsiy, oilaviy, jamoaviy va xokazo) mulk sohibi bo'lmagan odamning o'zi yo'q, ammo bundan ularning hammasi mulkdorlar sinfiga kiradi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Fikrimizcha, tom ma'nodagi mulkdor deb biror – bir shakldagi xususiy mulk (er maydoni, ishlab chiqarish vositalari, do'kon, kashfiyot, ixtiro va xokazolar) ni tasarruf etish xuquqini amalga oshirayotgan kishini atash mumkin. Shu ma'noda mulkdorlar sinfining ijtimoiy negizini xususiy tadbirkorlar tashkil etadi. Ayni vaqtda xususiy mulk sohiblari yoki mustaqil xo'jalik yuritayotgan xususiy tadbirkorlar ishchi, dexqon sinflari, ziyolilar sinfi tarkibida ham bor. Chunonchi, fermer, pudratchi, ijarachi, shirkatchi dexqonlar, aktsiyador ishchi – xizmatchilar, intellektual mulk sohibi bo'lgan ziyolilar. Binobarin, «mulkdorlar sinfi» xaqida emas, «mulkdor sinflar, qatlamlar va guruxlar» to'g'risida gapirish mantiqan to'g'riroq bo'ladi. Mulkdor sinflar va guruxlar kengayib borishi zamirida bozor iqtisodiyotining mulkchilik plyuralizmi, iqtisodiy raqobat, daromadlarning chegaralanmasligi tamoyillari, xususiylashtirish (mulkni davlat tasarrufidan chiqarish) jarayoni yotadi. 1991 yil nodavlat sektorida atigi 268.5 ming axoli band bo'lsa, 2007 yili bu raqam qariyb 7 mln. kishiga etdi, xususiy tadbirkorlar soni 11 mingdan 1 mln. kishiga o'sdi. Ya'ni bozor munosabatlari mulkdor sinf va qatlamlarni taqozo etibgina qolmay, ularni yaratayapti ham. Axolining sotsial mobilligi (xarakatchanligi) oshyapti, bir sinf, ijtimoiy gurux tarkibidan ikkinchisiga o'tishlar tezlashayapti: kechagi maktab o'qituvchisi – bugun broker, davlat xizmatchisi – savdogar, muxandis – xususiy korxona sohibi, kolxozchi – fermer va xokazo. O'n minglab ishchi, dexqon, xizmatchi ochiq va yopiq turdagi xissadorlik jamiyatlari aktsiyadorlari. Endi xususiy tadbirkorlar ichida ham mulkiy tabaqalanish boshlanayapti – yirik sarmoyadorlar, biznesmenlar,

savdogarlar etishib chiqayapti. Xullas, yangi ijtimoiy – sinfiy tuzilma qaror topyapti.

Fikrimizcha, ularning tarkibi quyidagi unsurlardan iborat:

1. Xususiy tadbirkorlar sinfi.

2. Ishchilar sinfi.

3. Dexqonlar sinfi.

4. Ziyolilar sinfi.

5. Boshqaruvchilar (davlat idoralari, korxonalari va xo'jaliklari raxbarlari) sinfi. Har bir tarkibda mulkning shakli, xo'jalik yuritish usullari, daromad manbai va miqdoriga ko'ra tafovutlanuvchi ichki sinfiy qatlamlar bor. Masalan, ishchilar orasida davlat korxonalari, xususiy korxonalar, qo'shma korxonalar ishchilari, aksiyador va aksiyador bo'lmagan ishchilar. Dexqonlar sinfida fermerlar, pudratchilar, ijarachilar, shirkatchilar, tomorqachilar, davlatga qarashli xo'jaliklar dexqonlari va xokazo. Umuman olganda, yuqoridagi sinfiy bo'linish asosida mehnat xarakteri buyicha tafovutlar (xususiy faoliyat, sanoat mehnati, agrar mehnat, aqliy mehnat, boshqaruv mehnatiga taqsimot) yotadi.

Ayni vaqtda bozor iqtisodiyoti – odil, ammo beshafqat iqtisodiy – ijtimoiy tizim ekanidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish natijasida buning tabiiy oqibati bo'lmish ishsizlikning miqyoslari oshadi, uning majburiy va yashirin ko'rinishlari ommaviy tus oladi. Jamiyatda qisman bo'lsa – da o'z ijtimoiy maqomidan maxrumlik (marginallashuv) va xatto, lyumpenlasshuv (ijtimoiy tubanlashish) xollari yuz berayaptiki, bu tegishli sotsial amortizatorlar tizimini yaratishni zarur qilib qo'yyapti.

Xullas, mulkdorlar sinfini, ijtimoiy barqarorlik va farovonlik garovini yaratish – mustaqil O'zbekiston uchun strategik maqsad. Biroq hammani mulkdor qilib bo'lmaydi, binobarin, sotsial sohada ko'pchilikni muayyan daromad manbai va miqdori bilan tasniflanuvchi «o'rta» sinflarga aylantirish maqsadi quyilgan. Zero Prezident I.A.Karimov uqtirganidek, «jamiyat haddan tashqari boylarga va haddan tashqari kambag'allarga ajralib ketishiga yo'l quyishga xaqqimiz yo'q». Chunonchi, AQSHni olsak, bu mamlakat axolisining 10 foizi o'ta boy – badavlat, 10 foizi - faqiru – fuqaro, qolgan 80 foizi o'ziga to'q, o'rtaxol sinflardir. O'zbekistonda bu darajada erishish uchun maqsadli ijtimoiy muxofazalashga o'tish, ko'pchilikda sho'ro tuzumi tomir yoydirgan boqimandalik ruxiyatini bartaraf eta borib, tobora ko'proq axolini kichik va o'rta tadbirkorlikka, yakka tartibdagi xunarmandchilik, fermerlikka jalb etish, ishsizlik miqyoslarini kamaytirish lozim.

Ijtimoiy – siyosiy sohadagi ustivor vazifa fuqaroviy jamiyatni qaror toptirish, deb belgilangan. Xo'sh, «fuqaroviy jamiyat» o'zi nima? Bu o'rinda «fuqarolik jamiyati» va «fuqaroviy jamiyat» tushunchalarini aralashtirib yubormaslik muhim.

Fuqarolik jamiyati bu fuqarolik xaq – xuquqlari e'tirof etilgan, uni qonunlar, Konstitutsiya kafolatlagan jamiyat. Demokratik ijtimoiy – siyosiy tuzumlarda davlat fuqarolik maqomini ta'sis etib, odamlarni muayyan xuquq va erkinliklari, burchlarini xuquqiy me'yorlarda aks ettiradi. «Fuqaroparvar jamiyat» esa fuqarolarni ijtimoiy va mulkiy tengligi imkoniyati ta'minlanadigan adolatli jamiyat. Fuqaroparvar jamiyat odamlarning azaliy orzu – armoni bo'lib kelgan va ijtimoiy adolat tamoyillarini o'zida gavdalantiradi. Buyuk Aristotel shogirdi – fotix Aleksandr Makedonskiyga nasixatida: «Bilgilki, adolat qudratli xudoning erdagi birdan – bir o'lchovidin» degan. Fuqaroparvar jamiyatda davlat bilan fuqarolar o'rtasida xuquqiy, demokratik munosabatlar o'rnatiladi.

Fuqaroviy jamiyat esa, bulardan farqli o'laroq, davlatning jamiyatni boshqarish asosiga, fuqarolar turmushini idora etishi kengayishiga qurilmay, aksincha, davlat tasarrufida bo'lgan ko'plab boshqaruv funktsiyalarini fuqarolarning o'zini-o'zi idora etishi bilan almashtirish, ya'ni fuqaroning xohish – irodasi qonunlashgan, idora etadigan jamiyatdir. Davlat, uning ko'pdan – ko'p idora va maxkamalari ado etadigan vazifalar bosqichma – bosiqch nodavlat, norasmiy jamoat tashkilotlari zimmasiga, chunonchi, mehnat jamoalari, ko'ngilli va ijtimoiy uyushmalar, jamoatchilik xarakatlari, jamg'armalar, mahallalar, fuqarolarning kengashlari ixtiyoriga o'ta boradi. «Davlat - jamiyat» munosabatlarida birinchisining ta'sir doirasi va ma'suliyati ikkinchisiga yuklana boradi.

Ravshanki, bu o'z – o'zidan amalga oshmaydi, balki avvalo davlat siyosatini puxta yo'lga qo'yish, kuchli davlat tizimini yaratish, axolini davlatni idora etish ishlariga keng jalb qilish va o'rgatish, xuquqiy va siyosiy ong hamda madaniyatni yuksak darajaga ko'tarish orqali qo'lga kiritiladi.

Fuqaroviy jamiyatni «xuquqiy davlat» tushunchasi bilan birday deb tushunish yaramaydi, vaxolanki, xuquqiy davlat fuqaroviy jamiyat qaror topishining dastlabki zaruriy sharti. Bu – fuqaroning ijtimoiy tashkilotlar, muassasalar, xarakatlar bilan munosabatlari qonun va xuquqiy me'yorlar bilan tartibga solinadigan davlat. Fuqaroviy jamiyat ham ana shu demokratik tamoyillardan kelib chiqadi, ammo bunda fuqarolar xalq – davlat boshqaruvining vositasiga, davlat esa, fuqarolar xohish – irodasining ijrochisiga aylanadi. Xullas, fuqaroviy jamiyatda davlat va xalq manfaatlari, ya'ni uzoq tarix saxifalarida

ko'pincha bir – biriga mos tushmagan, xatto zid bo'lib kelgan bu ikki manfaat mutanosib bo'lishiga, xokimiyat-xalq xokimiyati bo'lishiga erishiladi, yanada aniqrogi, fuqaro o'zini – o'zi boshqaradigan bo'ladi, maxsus idora etish organi bo'lmish davlatga ehtiyoj kamayib, uning xarajatlari tobora qisqarib boradi.

Mustaqil O'zbekistonda hozirda o'zini-o'zi boshqarish maqomiga ega uyushma va xarakatlar tobora ko'payib bormoqda: masalan, siyosiy partiyalar, jamoat va ommaviy tashkilotlar, norasmiy xarakatlar, mahalla, jamgarmalar shu jumladan Siyosiy va xuquqiy savodxonlikni oshirish, ijtimoiy - siyosiy turmushni yanada demokratiyalash va erkinlashtirish borasida ishlar davom ettiriladi.

Ta'lim, kadrlar tayyorlash sohalarini islox qilish vazifasi bugun ijtimoiy taraqqiyotimizni rivojlantirishning, fuqaroviy jamiyatni qaror toptirishning muhim zaruriy shartiga aylandi. Ushbu ehtiyojga javoban «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risidagi qonun» qabul qilindi. Endi hamma gap ularni hayotga tadbqiq etishda.

Mustaqil O'zbekistonda inson shaxsi erkinligi, uning xuquqlari muxofazasi butun boshli qonunlar tizimi bilan ta'minlangan. Inson xuquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili, inson xuquqlari respublika milliy markazi, Oliy Majlisning amaldagi qonunchilik xujjatlari monitoringi instituti kabi muassasalarning tashkil etilishi va faoliyati ham shular jumlasiga kiradi. Respublikamiz yo'l boshchisi ta'kidlaganidek, «Xokimiyat tuzilmalarining demokratik mazmuni ko'p jihatdan davlatni boshqarishda fuqarolarning ishtirok etishi masalasi qanchalik hal qilinganligi bilan belgilanishi ma'lum. O'zbekistonda ushbu xuquqning amal qilishi uchun qonun asoslari yaratilgan».

Ayni paytda, mamlakatimiz raxbarining alohida qayd etib o'tishicha, hali jamiyat va fuqarolar davlatni boshqarishda ishtirok etish, ularni qanday boshqarayotganliklari to'g'risida axborat olish xuquqini anglashiga hamda mazkur xuquqdan amaliy hayotda foydalana oladigan bo'lishlariga erishmoq lozim. Shundagina davlat xokimiyati idoralari, ulardagi mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldidagi o'z mas'uliyatlarini xis etadigan bo'ladilar.

Shu bilan bir qatorda umuminsoniy tamoyillar va me'yorlarni, butun dunyoda chuqur ildiz otgan demokratik qadriyatlatlarni o'rganmasdan, ulardan ijodiy foydalanmasdan yurtimizda samarali faoliyat ko'rsatishga qodir siyosiy institutlarni, demakki, fuqaroviy jamiyat va demokratik xuquqiy davlat asoslarini shakllantirib bo'lmaydi. Binobarin, mustaqilligimizni ijtimoiy jihatdan takomillashtirish borasidagi vazifalar haqida gapirib, Prezident I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarida jamiyat xayotining iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy, xuquqiy sohalarini

erkinlashtirishni isloxatning strategik yo'nalishi deb baholangani bejiz emas. Xo'sh, inson qachon xaqiqiy erkin bo'ladi? Ulug' bobokalonimiz Amir Temur: «Qayerda qonun xukmronlik qilsa, o'sha erda erkinlik bo'ladi» degan. Binobarin, o'zini-o'zi boshqarish tamoyillarini mustahkamlash bilan bir qatorda puxta sozlangan mexanizmdek ishlovchi va samara beruvchi qonunlar chiqarish faoliyatini ham takomillashtirish talab etiladi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Global, globallashuv, umumbashariy muammolar, texnogen muammolar, antropogen muammolar, ekologik tanazzul, ijtimoiy taraqqiyot modeli, aralash jamiyat, mulkchilik plyuralizmi, fuqaroviy jamiyat, xuquqiy davlat, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqaruvi, mulkdorlar sinfi, o'rta sinflar.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Globallashuv jarayoni nimani anglatadi?
2. Umumbashariy muammolarni sanab bering.
3. Antropogen global muammolar texnogen global muammolardan nimasi bilan farqlanadi?
4. Global muammolarni hal qilishning qanday yo'llari mavjud?
5. «Integral jamiyat» nima?
6. Mulkdorlar sinfi qanday shakllantiriladi?
7. Fuqarolik jamiyati qaror topishida o'zini-o'zi boshqarish organlarining ahamiyati qanday bo'ladi?
8. Fuqaroviy jamiyat va xuquqiy davlat tushunchalari nima bilan farqlanadi?
9. Mustaqil O'zbekiston rivojining yana qanday ijtimoiy – falsafiy muammolari xaqida so'zlab bera olasiz?

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. Uksak manaviyat-engilmas kuch. —T. Manaviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., O'zbekiston, 1997.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T., 1998.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T., 1999.
6. Qahhorov M.A. Falsafa. Ma'ruza matnlari. - Farg'ona, 2000.
7. Falsafa. O'quv qo'llanma. E. Yusupov taxriri ostida. –T., Sharq, 2000.

8. Qahhorov M.A Mustaqil O'zbekiston: ijtimoiy – sinfiy tuzilma o'zgarishlari.- T., Fan, 2007.